

316  
I-60

# INSON QADRI



# **INSON QADRI**

**“O‘ZBEKISTON”  
TOSHKENT – 2023**

UO‘K 821.316.728(575.1)

KBK 84.60.56(50‘)

I 60

Yangi O‘zbekistonda xalqimiz turmush farovonligini oshirish, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha O‘zbekiston fuqarolarining huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qo‘lingizdagi kitob inson sha’ni va qadr-qimmatini yuksaltirish, uning hayotdan rozi bo‘lib yashashini ta’minlashdek ulug‘vor maqsadlarning yurtimizdagi amaliy ifodasi haqida hikoya qiladi.

To‘plamda davlat va jamoat arboblari, taniqli yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar, mashhur san’atkorlar hamda o‘z hayoti misolida mehr va e’tibor ko‘rgan oddiy insonlarning fikr-mulohazalari, samimiy e’tiroflari jamlangan.

## SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

“Inson dunyoga nega keladi, uning yashashdan maqsadi nima?” degan falsafiy savollar atrofida soatlab bahs yuritsa bo‘ladi. Qilni qirq yoradigan bilimdonlar, allomalar, mutafakkirlar bu savollarga o‘nlab-yuzlab to‘g‘ri va chiroyli javoblarni berishlari mumkin. Lekin “Inson hayotda qanday yashashi kerak?” degan eng muhim savolga bitta javob bor. Buni laboratoriyada murakkab ilmiy tajriba o‘tkazayotgan olim ham, yangi binoga g‘isht terayotgan usta ham, yaxshi niyat bilan yerga nihol qadayotgan dehqon ham biladi: “Inson hayotda yaxshi yashashi kerak”.

Mana shu oddiy, o‘z o‘rnida eng to‘g‘ri va haqqoniy javob zamirida bashariyatning azaliy orzu-umidlari, xohish-istaklari mujassam.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatida faoliyatini boshlagan dastlabki kunlardanoq “Inson qadri uchun” degan tamoyil Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng muhim va ustuvor mezoniga aylandi. Prezidentimiz rahbarligida ishlab chiqilgan mamlakatni 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mazkur tamoyil asosiy qoida sifatida o‘z ifodasini topdi.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida yurtimizda yangi, keng ko‘lamli demokratik islohotlarga kirishildi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotimizni har tomonlama yuksaltirish, xalqimiz turmush farovonligini oshirish, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha O‘zbekiston fuqa-



rolarining huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalari alohida belgilab qo'yildi.

2022-yilning mamlakatimizda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb e'lon qilingani, Davlat dasturi asosida bu borada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani ana shu ezgu va xayrli ishlarning mantiqiy davomidir.

Eng muhimi, inson qadrini ulug'lash degan tamoyil faqatgina so'zda yoki shiorlarda emas, balki amalda, har bir fuqaroning hayotida, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashda, barcha yurtdoshlarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratib berilayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mazkur kitob inson sha'ni va qadr-qimmatini yuksaltirish, uning hayotdan rozi bo'lib yashashini ta'minlashdek ulug'vor maqsadlarning yurtimizdagi amaliy ifodasi haqida hikoya qiladi.

Ishonamizki, davlat va jamoat arboblari, taniqli yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar, mashhur san'atkorlar, o'z hayoti misolida mehr va e'tibor ko'rgan insonlarning fikr-mulohazalari, samimiy e'tiroflari jamlangan mazkur to'plam o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Mutolaadan so'ng har bir yurtdoshimiz inson qadr-qimmatini va sha'ni eng oliy qadriyatga aylangan shunday aziz va bag'rikeng Vatanda yashayotganidan yana bir bor faxr va g'urur tuyg'usini his etishi shubhasiz.

## SENI TUSHUNSALAR VA ANGLASALAR...

Dunyo dunyo bo‘lganidan beri fe‘l-atvori, dunyoqarashi, axloq-odobi bir xil, bir xil fikrlaydigan, bir xil hayot kechiradigan, voqea-hodisalarga bir xil munosabat bildiradigan ikki kishi bo‘lgan emas. Bo‘lmaydi ham. Har kimning o‘z dunyosi, o‘z haqiqati, amal qiladigan aqidalari, yuradigan yo‘li, aytadigan gapi, intiladigan manzili, ixlos-e‘tiqodi, shoir so‘zi bilan aytganda, “sig‘inadigan mozorlari” bor. Shu xilma-xillikdan buyuk umumiylik kelib chiqadi.

Tog‘ cho‘qqilari bir xil balandlikda bo‘lganida, ularning osmon-o‘par darajadagi salobatlari hech kimga ko‘rinmas va sezilmas, tog‘ degani shunday bo‘ladi-da o‘zi, deya hech kim hatto hayratlanib ham qo‘ymasdi.

Olimlar bir xil darajada ilmi, har yozganlari topilma, har izlanishlari olamshumul ixtiro bilan tugaydigan noyob iste‘dod egalari bo‘lganlarida ularning oddiy ko‘mir qazuvchilardan farqi qolmasdi.

Tibbiyotchilar ko‘pdan beri mavjud va yangidan paydo bo‘layotgan kasalliklarni butunlay daf qila olganlarida odamlar “Doktor bor – nima g‘amim bor”, deya salomatliklariga e‘tibor bermay qo‘ygan bo‘lardi.

Hamma o‘z hayotini yashaydi, o‘zi to‘g‘ri deb bilgan ishni qiladi. O‘z yechimining qadriga yetadi. Dunyoni yuz bor kezib chiqsangiz ham, erta-yu kech shaxsiy xato-kamchiliklaridan gapiradigan, hamma ko‘rgiliklarini o‘zidan ko‘radigan, nohaqliklaridan xijolat tortadigan birorta tirik jonni uchrata olmaysiz. Turfaxillikning bu g‘aroyib zanjirini uzish qiyin. Lekin...

Hech bir istisnosiz katta-yu kichik, yaxshi-yu yomon, ishonchli-ishonchsiz, o'g'ri-yu to'g'ri, omadli-yu noshud – hamma-hammani qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish qiyin, ammo tushunsa bo'ladi. “Odamlar bir-birlarini tushunganlarida edi, dunyo bu qadar shafqatsiz bo'lasmidi?”, degan gap bor. “Meni eshitganingiz uchun rahmat”, degan gap ham ko'pchiligimizga tanish.

Vodiy safariga borayotib, poyezd vagonida bir yigit bilan yonma-yon o'tirib qoldim. Undan eshitganlarimni hikoya tarzida qog'ozga tushirishdan o'zimni tiyaman – qaysi bir joylarini buzib qo'yishim mumkin. Shu bois uning noyob hikoyasini qanday eshitgan bo'lsam, shunday keltirmoqchiman: “Dadam Rossiyaga ishlagani ketib qaytib kelmadi. Tirikmi-yo'qmi, hech kim bilmaydi. Keyinroq o'sha yoqda uylanib olganini eshitdik. Onam kasalmand edi. Ikkita ukam bor, yeyman-ichaman, deydi.

O'n ikki yoshimda o'g'rilik qildim. Uyda yeydigan hech vaqo qolmagandi. Sezishmadi. Onam yig'ladi, ammo... iloji yo'q edi. Keyin qo'shnimizning hovlisiga tushdim, do'kondan bir nimalarni o'mardim. Bir kishining hamyonini olib qochdim. Qo'lga tushib, bir yil-u olti oyga qamaldim. Uyga kelganimda onam to'shakka mixlanib yotardi. Ukalarim tomorqaga ekin ekishgan ekan, mirobboshi suv bermabdi. Oldiga borib, iltimos qildim, yalindim. Ko'nmadi. “Ha, o'g'rivachcha, senga endi suv kerak bo'lib qoldimi?” dedi. Uning bu gapi menga dadamni haqorat qilganday tuyuldi. Qo'lidagi ketmonni yulqib olib, boshiga tushirdim. Aft-basharasi qon bo'ldi. Suvni ochdim. Yana qamaldim. Onam olamdan o'tdi.

Ikki yil o'tirdim, vaqtidan biroz avval qo'yvorishdi. Qishloqqa kelib ish izlay boshladim. Hammaga uchrashdim, ko'p joyga ariza yozdim, ish bo'lsa bo'ldi, qilaman, dedim. Yo'q, na tanish, na notanish yordam berdi. Aksincha, bir-birlariga sirli qarab: “Ha, falonchi o'g'rimi, undan sal nariroq yurgan ma'qul”, deyishdi, xolos. Hamma mendan nari bo'lganidan keyin, men ham mahalladan, ham-

qishloqlardan uzoqlashdim. O‘zimga o‘xshagan ko‘chabazorilarga qo‘shildim. Jinoyat qilib yana qamaldim.

Mana, qaytib kelyapman. Yana ish izlayman, ish bergichlarning oldiga boraman, ariza yozaman, egilib iltimos qilaman, ahvolimni tushuntiraman. Siz meni tushuning – biror joyga ilinib olsam bo‘ldi, mulla mingan eshakday jim yuraman endi, uyoqlarni sog‘lig‘im ko‘tarmaydi. Ish topolmasam nima qilaman? Oshqozonni quruq suv bilan to‘ldirib bo‘lmaydi, yoshim o‘ttizdan oshdi – uylanishim, bola-chaqali bo‘lishim, ukalarimni qanotim ostiga olishim kerak. Qani o‘sha qanot? Cho‘ntagimda bir so‘m pul yo‘q. Mana, siz, katta odamga o‘xshaysiz, ayting-chi, men ga o‘xshaganlar nima qilishi kerak? Hamma mendan yuz o‘girsasa, yana o‘sha eski kasbimga qaytaman-da! Boshqa yo‘l bo‘lsa, ayting, aka. Maktabda yomon o‘qimaganman, dadam tashlab ketmaganida, men ham odam bo‘lardim, biror kasbni egallardim, o‘zimga yarasha qiziqishlarim bor edi. Qizlarga atab she‘rlar yozardim. Buni kimga tushuntiraman...”

Hamrohimni diqqat bilan, so‘zini bo‘lmay eshitdim. G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi ko‘z o‘ngimdan o‘ta boshladi. Bir vaqtlar mamlakatning nufuzli gazetasi o‘rta maktablarning bitiruvchilariga: “Baxt nima?” degan savol bilan murojaat qilgan. Necha yuz ming javob kelgan. Bir qizcha: “Seni eshitsalar va tushunsalar, shuning o‘zi baxt”, deb yozgan. Shu javob hammani qoniqtirgan. Uch marta jinoyat ko‘chasiga kirgan bu yigitning dardini biror kishi eshitganmi, tirikchiliging qanday, deb so‘raganmi?

Eshitish va tushunish nahotki qiyin bo‘lsa? Qiyin emas, ammo bunday qilishga nimadir hamisha xalaqit beradi. Nima o‘zi o‘sha “nimadir”? Meningcha, beistisno har birimizning o‘zimizga o‘xshagan ichki “men”imiz. “Men gapirishim kerak, mening fikrim to‘g‘ri, boshqalar jim eshitsin, betgachoparlik qilmasin, men ayt-

dim, bo‘ldi-da”, deymiz; to‘g‘rimi-noto‘g‘rimi, o‘rinlimi-o‘rinsizmi, o‘zimizning tor qarashlarimizni o‘tkazamiz, qanchadan qancha yechimlar, taklif-u tashabbuslar ro‘yobga chiqmay qolib ketadi. Eshitish, tinglash kerak, deyilganda faqat nuroniylar, ustozlar ko‘zda tutilmaydi. Ularning boy hayotiy tajribasini inkor etmagan holda, yoshlarni, hatto, qayeri og‘riyotganini aytib berolmaydigan bolalarni ham tinglash kerak.

Bekatda muzqaymoq yeb o‘tirgan ona-bolani ko‘rdim. Avtobus keldi. Ona qo‘lidagi qog‘ozni yerga uloqtirdi, qizchasi bo‘lsa maxsus idishga tashladi. Shu qizaloqdan ham bir nimalarni o‘rgansa bo‘ladi.

O‘tgan asrning to‘qsoninchi yillari arafasida televideniya namoyish etilgan bir lahvani tez-tez eslab turaman. Boltiqbo‘yi davlatlarida sobiq Ittifoqdan ajralib chiqish harakatlari boshlangan kezlilar. Ittifoq rahbari M.Gorbachyov u yerga borib, odamlar, yoshlar bilan gaplashdi. Shahar ko‘chalaridan birida Ittifoq markazidan kelgan mehmonlarning ko‘zi yo‘l chetida yig‘lamsirab turgan bolaga tushadi. M. Gorbachyov unga engashib: “Nega yig‘layapsan, bolakay, senga nima kerak?” deydi. Bola boshini ko‘tarib, “Menga ozodlik kerak”, deydi. Shu bittagina so‘z “zo‘r bilan bo‘lgan imorat”ning tanazzulini tezlashtirib yubordi deyish mumkin.

Ilmda insoniy madaniyatning hamma jihatlarini mavjud – so‘zlash odobi, bahs-munozara, kattani kichik oldida izza qilmaslik, sabr-toqat, murosa madaniyati, ammo boshqalarni tinglash, fikrini eshitish, tanqidiy mushohadalariga e‘tibor masalasida bir muncha oqsoqlik bor.

Bir kitobda o‘qiganman: “Boshi berk ko‘chaga kirib qolgan kishi xafa bo‘lmasin, chunki bu yanglishish unga to‘g‘ri yo‘lni topishda yordam beradi”. Demak, faqat bir tomonni eshitish, bir necha kishininggina fikri bilan ish tutish kutilgan natijaga olib kelmasligi mumkin, ikkinchi, uchinchi tomonlarni ham e‘tibor bilan tinglash



kerak, fuqarolariga o‘z fikrini emin-erkin bayon qilish imkonini bergan jamiyatgina taraqqiyotga yuz buradi.

2017-yili mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida shunday burilish yuz berdi. Xalq bilan bevosita muloqot qilish, odamlarning orzu-istaklari, fikr-mulohazalari, iqtisodiy, ma’naviy va boshqa ehtiyojlaridan boxabar bo‘lish, buning uchun joylarda xalq qabulxonalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, jamiyatning har bir a’zosi fikriga quloq tutish, sobiq tuzum sharoiti kadrlari, turli diniy e’tiqod egalari, adashganlarni tushunib, to‘g‘ri yo‘lga o‘tganlarga toqatlilik, kechirimlilik Prezident Shavkat Mirziyoyev boshlagan yangi siyosatning o‘zak yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Har bir kishi bu yorug‘ olamda o‘tayotgan hayotidan rozi bo‘lib yashasin, jamiyatning har a’zosi o‘ziga yarasha qadr-qimmatga, obro‘-e’tiborga, moddiy va ma’naviy siylovga ega bo‘lsin, aql-zakovati, ishbilarmonligi bilan topgan xususiy mulkiga, farzandlariga qoldirayotgan merosiga hech kim ko‘z olaytirmasin, degan shior o‘rtaga tashlandi.

Inson qadr-qimmatini, sha’n-shavkati, faxr-iftixori bilan bog‘liq bu va boshqa islohotlar jamiyatda ijtimoiy faollik, Vatan va millat taqdiriga daxldorlik muhitini yuzaga keltirdi. Bu muhitdan huquqiy madaniyat, o‘zlikni anglash, burchga sodiqlik kelib chiqdi va ular hayotiy zaruriyatga aylandi. Buning ma’nosi shuki, jamiyat yangilanayotgan ekan, bu jarayon odamlar ongidagi yangilanishlarsiz kechmaydi. Ong insonning jamiyatdagi o‘rni, qadr-qimmatini, yashash tarzi bilan bog‘liq.

Bir vaqtlar “Hamma yaxshi narsalar – bolalarga”, degan shior bo‘lardi. Albatta, shunday. Ammo milliy yuksalish yo‘liga o‘tgan jamiyatda “Jamiki sa’y-harakatlar, ijtimoiy-ma’naviy sarf-xarajatlar, maqsad-muddao – avvalo inson, uning kamoli va roziligi uchun”, degan shior bo‘lishi kerak. Bu shior zamirida ijtimoiy adolat tushunchasi yotadi.

Biror korxonada mehnat qilayotgan hatto oddiy xodim ham mehnati, tajribasi, izlanishlari qadrlanayotganini his etsa, fikr-mulohazalari tinglanayotgani, takliflari e'tiborga olinayotganini sezsa, ayni shu jamoa uchun kerakligini anglasa o'ziga, burch va mas'uliyatiga nisbatan talabchanligi oshadi.

Sobiq tuzum tanazzuli haqida ko'p yozildi, ammo uning bir xatosini takror-takror aytishdan charchamasligimiz kerak. Bu tuzum insonni qadrlay olmadi, anglashga intilmadi. Hazrati inson darajasiga ko'tarish o'rniga quldek ishlatdi, xo'p-xo'pchilikka o'rgatdi, ammo qozonidan xabar olmadi. Biz ijodkorlar ham qarab turmadik: uyidagi kasal bolasini tashlab, bir tup g'o'za niholi atrofida girgilton bo'layotgan paxtakor onalar haqida ocherklar yozdik. She'rlar to'qidik, qo'shiq kuyladik.

Tuzum o'z tanazzulini o'zi yaratdi. "Qornimga emas, qadrimga yig'layman", degan nolalarga guvoh bo'ldik. Rahmatli dadam "Har ishni "Bismilloh" deb boshlaydigan zamon kelarmikin?", deb o'tdilar. Hayit namozi chala qolgan, joynamozlar yig'ishtirib otilgan, qozonda qaynab turgan sumalak ustiga belkurakda tuproq sochilgan paytlarni ko'rdik. Bu haqda yana ko'p yozish mumkin.

Ortda qolgani rost bo'lsin.

## **UCH TAQDIR HAQIDA HIKOYA**

Xorazmning Yangibozorida uch inson taqdiri iziga tushgani, ularning yaqinlari quvonchi cheksiz ekanini his qilib, nimadir yozishni o‘ylab qo‘ydim, oradan bir hafta o‘tdi...

Tongga yaqin shivalab yog‘ayotgan yomg‘ir tovushidan uyg‘onib ketdim. Derazani ochsam, mayin kuz yomg‘irining ifori dimog‘imga urildi. Bu manzara menda har safar bir ma‘yus, bir go‘zal xotirani yodga soladi.

Birida kuz yomg‘iri taloshlarida ijaraga uy qidirganimizni eslayman. O‘shanda farzandlarimiz hali yosh edi, turmush o‘rtog‘im bilan Toshkentning yomg‘irli havosida uy izlar ekanmiz, qizlarimning “Qachon o‘z uyimiz bo‘ladi?” degan savolidan qalbimiz o‘rtanardi.

Yana birida Yangi O‘zbekistonimiz tongida o‘z uyimning derazasidan kuz hikmatini tomosha qilib o‘tirar ekanman, hayotimning yorqin kunlari uchun shukrona aytish baxti nasib etganidan mamnun bo‘laman.

Ha, chindan ham o‘z uyiga ega bo‘lgan insonlar xotirjam yashaydi, miriqib dam oladi, ishida unum, ro‘zg‘orida baraka bo‘ladi. Chog‘roqqina bo‘lsa-da, o‘z uyida erkin yashab, halol rizqini oilasi davrasida huzur bilan baham ko‘rayotganlar, aslida, dunyodagi eng baxtli odamlardir. Boshpanasi, yashashga joyi yo‘q, ijara-da yashayotgan kishilarning esa yeganida huzur, uyqusida halovat bo‘lmay, ichki bezovtalikda yuradi. “O‘z uying – o‘lan to‘shaging” degan maqol bejiz aytilmagan.

Shunday o‘ylar bilan o‘tirar ekanman, xayolimda Azamatning o‘zgargan taqdiri jonlandi.

## Men ko‘rgan eng katta yaxshilik

Yangibozorlik Azamat Egamov yaqinda 23 yoshni qarshiladi. Lekin taqdir uni erta ulg‘aytirdi. Onasining munis siymosini eslolmaydi. U bir yosh bo‘lganida volidayi muhtaramasi bu dunyoni tark etgan. Ko‘p o‘tmay otasidan ham ayriladi. Chin yetimlik qismati boshlanadi.

U buvisining qo‘lida voyaga yetdi. Kun ko‘rish oson emasdi. Tengqurlari kabi bolalik gashtini surmadi, ko‘cha changitib o‘ynamadi. Mushtday boshi bilan olti yoshidan novvoylarga qarashib, non yopishni, do‘konlarni tozalab, savdo qilishni, ustalar yonida uy tiklab, ustachilikni o‘rgandi. Shu tariqa yillar zuvillab o‘taverdi. Avval maktabni, so‘ng kollejni tugatdi. Oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirish, arxitektor bo‘lish orzusini yuragining eng tubiga yashirib qo‘ydi.

Iztirob bilan ulg‘aygan yigitchaning boshiga yana hayot tashvishi tushdi. “Azamat uyimizga egalik qilmoqchi, merosxo‘r bo‘lmoqchi”, deya shubha-gumonlarga borayotgan qarindoshlarining gap-so‘zlari qalbini tosh kabi ezg‘ilardi. Qancha tushuntirishga harakat qilmasin, gumon deb ataluvchi isbot-dalili yo‘q shafqatsiz tuyg‘u yaqinlarining ongiga o‘rnashib qolaverdi. “Azamat uyingizni o‘z nomiga o‘tkazib oladi, chunki u shu uyda katta bo‘ldi, siz uysiz qolib ko‘chaga haydalishingiz mumkin”, deya tog‘asining ongini zaharlashga uringan ba‘zi “do‘stlarning” buzg‘unchi gap-so‘zlari tog‘a-jiyan orasiga sovuqchilik soldi.

– Buvimning, tog‘amning uyiga egalik qilish haqida hech qachon o‘ylamaganman. Bu uyda o‘zimni ortiqchaday his qilsam-da, qora tortib boradigan joyim yo‘qligidan dardimni ichimga yutib yuraverardim. Buvimni juda yaxshi ko‘raman, men tufayli halovati buzilishini istamay, noiloj uydan chiqib ketdim. Chunki tog‘am bilan o‘rtamizdagi ziddiyat kuchayib boraverdi. Uydan ketgach, ko‘p

qiynaldim. Ko‘cha-ko‘yda och-nahor tunab qolgan kunlarim bo‘ldi. Qo‘lim ishga bormadi, o‘zimni keraksiz buyumday his qildim, – deya eslaydi Azamat o‘sha azobli kunlarini.

Bu gaplarni yosh yigitdan eshitish bizga ham oson bo‘lmadi. Hozir o‘ylab qolaman, agar bugungi islohotlar bo‘lmaganida Azamat va unga o‘xshagan uy-joysiz, chorasiz insonlar ahvoli ne kechardi.

Azamatni eshitavergimiz keladi. Chunki o‘tgan kunlar o‘tdi, endi uning yorug‘ kunlari boshlanganidan xabarimiz bor-da.

– Ota-onasizlik, yaqin jigarlaring yo‘qligi hayotdagi eng katta bo‘shliq va o‘rni to‘lmas yo‘qotish ekan. Ko‘zimdan yosh oqizmay, yuragim qon yig‘lab yurgan azobli kunlarimning birida davlatimiz tomonidan 2 xonali uyning bepul berilishi hayotimga eng katta yaxshilikni olib kirdi.

“Bu – Prezident sovg‘asi. Sen kabi yoshlar taqdiriga yurt otasi befarq emas, hali eng yorug‘ va baxtli kunlaring oldinda, yangi uy muborak bo‘lsin”, deya qo‘limga xonadon kalitini tutqazgan tumanimiz hokimining so‘nggi so‘zlari qulog‘imga kirmadi. Bo‘g‘zimga nimadir tiqilib, ko‘zlarim jiqqa yoshga to‘ldi. Borarga joyi, yotishga uyi bo‘lmagan menday yetim yigitga davlatimiz tomonidan boshpana berilishi yetti uxlab tushimga ham kirmagandi. Yangi uyga kirib yashayotganimga ham yaqinda bir oy bo‘ladi. Lekin haliyam shu shinamgina uy va zamonaviy jihozlar nahotki o‘zimmiki, deya quvonchdan yuragim hapriqib ketadi. Prezidentimizning bu marhamati hayotga bo‘lgan muhabbatimni, o‘zimga ishonchimni oshirdi. Jamiyatda mening ham o‘rnim borligini eslatdi.

Shu gaplardan so‘ng davlatimiz rahbari olib borayotgan oqilon siyosat Azamat Egamov kabi ko‘plab yoshlarning hayotiga yorug‘lik, ertangi kuniga mustahkam zamin bo‘lib, ularni nurli manzillarga chorlayotganiga amin bo‘lasiz.



Balki siz Azamatga uy qanday berilgani bilan qiziqayotgandirsiz? Unda eshiting. Rost, u avvaliga davlat tomonidan uy berilishiga ishonmagan. Puling bo‘lmasa, kim uy beradi, deb o‘ylagan. Shu bois, davlat idoralariga yordam so‘rab bormagan. Uni tanigan-bilganlar tuman hokimi qabuliga borishni, Yangi O‘zbekiston siyosatida muhtoj aholini uy-joy bilan ta‘minlash Prezident e‘tiboridagi masala ekanini aytishgan.

Hokim huzuriga borgan Azamat yillar davomida ichini kemirib, yuragini ezib yurgan dardini ming istihola bilan aytdi. Aytdi-yu, yengil tortdi. Buyog‘i endi nima bo‘lsa, bo‘lar. Oradan ko‘p o‘tmadi. Bir kuni tuman hokimi chaqirayotgani, unga yangi uy topshirilishi haqida xabar keldi... Azamat hayajonli o‘ylar bilan belgilangan manzilga qanday yetib borganini bilmaydi. Qolgani kunday ravshan...

### **“O‘z uyim bo‘lishi haqidagi ishonchim sal qolsa so‘nib bo‘lgan edi...”**

Dunyoda taqdiri o‘xshash insonlar ko‘p. Ularning muammolari bir vaqtda, bir xil sharoitda yaxshilik sari yechim topganiga esa har doim ham guvoh bo‘lavermaymiz. Azamatning o‘tgan va bugungi hayoti haqida bilib oldik. Navbatdagi qahramonimiz – 16 yoshli Sarvar Sultonboyevning bolalik damlari ham kemptiklikda o‘tdi.

Bu haqda Sarvarning onasi Zulxumor Do‘shanova shunday hikoya qiladi:

– Turmush o‘rtog‘im bilan ahil yashardik. Xudo bizga o‘g‘il farzand berdi. Yaxshi niyatlar bilan Sarvar, deb ism qo‘ydik. Homiladorlik paytimda og‘ir ishlarni bajaraverganim uchunmi, sariq kasalni o‘tkazib yuborgan ekanman. Jarrohlik stoliga yotishga maj-

bur bo'ldim. Turmush o'rtog'im esa "senday yarimjon, xasta xotin bilan umrimni o'tkazmayman", deb tashlab ketdi.

O'g'lim bilan 16 yil ijarada yashadik. Mardikor bo'lib ishladim, kunimiz zo'rg'a o'tdi. Yolg'iz umidim, hayotda menga kuch berib turgan madorim o'g'lim bo'ldi. Lekin uning kelajagidan qattiq xavotirda yashardim.

O'sha og'ir kunlarda hokimiyatdan, turli idoralardan ko'p bor uy so'rab, yordam so'rab bordim. Yozgan arizalarim amaldorlarning stolida qolib ketdi. Hatto ba'zi rahbarlar men bilan gaplashishni istamadi. Shundan so'ng hech kimdan yordam so'ramay qo'ydim, to'g'risi, hech kimga ishonmadim. Umidim so'na boshladi.

Hatto qabr yoqasida ham umid yashaydi, deydi xalqimiz. Ba'zan hayotning o'zi insonlarga yo'l ko'rsatadi, har bir ko'rgilikning ajri bor. Yangi zamonamiz shunday insonlar baxtiga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Sarvar hali maktabda, 11-sinfda o'qiydi. U o'z uyi bo'lishini onasidan ham ko'proq istardi. Onasini esa hayotdan ham ko'proq yaxshi ko'rardi. Bu istak uni ko'p o'ylashga, nimadir qilishga undardi. Shunday kunlarning birida tuman hokimi aholi bilan sayyor qabul o'tkazayotganini eshitib, o'sha yerga boradi va uy so'rab murojaat qiladi...

– Boshida bundan bexabar ekanman, – deya so'zini davom ettiradi Zulxumor. – Bu haqda uy berilishi arafasida eshitib qoldim. Daf'atan, nimalar bo'layotganini hech tushunmadim, gangib qoldim. Chunki o'z uyim bo'lishi mumkinligi haqidagi ishonchim bundan o'n yillar oldin so'ngan edi-da. Yelkamizdagi og'ir yukdan bizlarni xalos qilgan va shunday to'kis sharoitlarni yaratib bergan Yurtboshimizga qanday minnatdorlik bildirishni bilmayman. Shu ishning boshida turganlar sog'-omon bo'lsin.

Bugun Sarvar va uning onasi yangi uylardan birida istiqomat qilmoqda. Ularning yangi hayotga jo'shqin intilishini, odamlarga nisbatan mehrini ta'riflashga so'z o'z o'z.

### 33 yil ijarada

Malika Matmurodovaning uch farzandi va bir nevarasi bor. Bu matonatli ayol bilan suhbatimiz bugungi kunning shukronasi bilan boshlandi.

– Yaqinda biz ham uch xonali uyga ega bo'ldik. Prezidentimiz oddiy xalqni o'ylab yuritayotgan siyosat tufayli yangi, chiroq va keng uyning sohibasiga aylandim, – deydi u. – O'z uyimiz bo'lishini bir umr orzu qilgan rahmatli turmush o'rtog'im ijara g'urbatlaridan charchab, og'ir mehnatlarda ishlab, ro'shnoqlik ko'rmay, hayotdan erta ketdi. 33 yillik hayotimiz ijara uylarda o'tdi. Har oyda eshikni taqillatib, pulni tayyorladingizmi yoxud uyni sotadigan bo'ldik, tez bo'shating, deyishsa, nima qilamiz, boshimizni qaysi devorga uramiz, degan o'y bilan qo'rqib yashardik. Qancha harakat qilib ishlamaylik, ro'zg'orning g'ori to'lmasdi.

Hayot insonni ko'p narsalarga majbur qiladi. Bolalari uchun hamma narsaga tayyor bo'ladi kishi. Malika Matmurodova ham farzandlari qiynalayotganini ko'rib, chorasiz chet elga ishlash uchun ketadi. 2007–2013-yillar davomida musofirlikda kun kechirdi, mehnat qildi. Lekin baribir hayotni bir maromga solib olishning iloji bo'lmadi. Begona yurt – baribir begona ekan, bu yoqda farzandlar sog'inchi. Ayol boshi bilan musofirlik azobini tortgani qoldi.

Nihoyat, farzandlari diydorini qo'msab, yana ularning bag'riga qaytdi. Afsuski, sog'lig'ini yo'qotib qaytdi. Ikki marta jarrohlik

amaliyotini boshidan o'tkazishga majbur bo'ldi. Bu ham yetmagan-day, surunkali qand kasalligini orttirib oldi.

Shunday og'ir kezlarda to'ng'ich farzandi Inobatni turmushga uzatdi. Ming afsuski, hech bo'lmasa qizim ijarada yashamaydi. o'z uyi bo'ladi, degan umidi bir yildan so'ng puchga chiqdi. "Qizingiz baxtli bo'ladi, chaqqongina, mehnatsevar ekan", degan qudalari endigina tug'ilgan norasida nevarasini ham ayamadi. "Bir og'iz aytmabsiz, qizingizning o'pkasi kasal ekan, bizga bunday kelinning keragi yo'q", deya xayr-xo'shni ham nasiya qilishdi.

Endi onaizorning ahvolini ko'ring. Yaralangan va toptalgan ko'nglini kimga ochsin, o'zini va bir burdagina bo'lib qolgan jigarporasini qanday yupatsin?!

Hayotning achchiq qismatini ko'p ko'rgan Malika mushtipar qizini bag'riga bosdi, jajji nevarasini peshonasidan o'pib, "Bu kunlar o'tadi, bizga atalgan yorug' kunlar ham bor", dedi.

U qudalaridan qanchalik xafa bo'lmasin, ko'nglining bir che-tida o'zini ayblardi. Negaki, qizi yosh boshi bilan sovuq, zax oshxonalarda tun-u kun idish yuvdi, tong izg'irinida sovuq suv sepib, ko'chalarni supurgani kechagiday esida. Shamollab yotib qolgan vaqti ham o'z bilganicha davolanib yurdi. Ijara haqini to'lash, oila kamchiliklarini butlash tashvishi deb o'zini ham, qizini ham asrashga imkoni bo'lmadi.

Yaxshiyamki, ikki o'g'li, qo'sh qanoti bor ekan. Ular yosh bo'lishiga qaramay, onasi va opasining yarasiga malham bo'lishga harakat qilardi. "Onajon, biz katta bo'lsak, albatta, yaxshi yashaymiz, ko'p kuyinmang, o'zingizni asrang, hali to'ylar qilamiz", deya onasini yupatib, ro'zg'or va ijara pulini eplab turdi.

Bir kuni tuman hokimi ularning xonadoniga hol so'rab keldi. Oilaning og'ir sharoitini ko'rib, nega shu vaqtgacha mahalla yoki hokimiyatga uy so'rab murojaat qilmagani bilan qiziqdi.

“Zamon shunchalik o‘zgarib ketdimi? O‘z tashvishimiz bilan bo‘lib atrofga nazar tashlashni unuttikmi? Oldimizga hokimning o‘zi kelib turibdimi?” – bu savollar Malikaning necha yillik alam-larini, ko‘ngil zadalarini qalqitib yubordi. Hokimga 33 yil faqat dashnom eshitib, tili qisq bo‘lib birovlarning uyida yashagani, hech kim holing qanday, deb so‘ramagani, yordam istab borgan eshigi yuziga yopilganini alam bilan so‘zlab berdi.

Oradan ko‘p o‘tmay Malika Matmurodovaga Prezidentimiz sovg‘asi – uch xonali yangi uyning kaliti topshirildi.

Bugungi Malika kechagi jabrdiyda emas, undan baxtli inson yo‘qdek go‘yo. U har kuni xalqimizning baxtli hayoti uchun yaratilgan sharoitlar, imkoniyat va imtiyozlar haqida do‘st-u tanishlariga shukronalik bilan so‘zlaydi. Prezidentimizning “Insonlarning dard-u tashvishini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir”. degan hayotbaxsh da‘vatini yodlab olgan.

Bugun o‘zgargan uch taqdir haqida yozmoqchi bo‘lganimiz shular edi. Keyingi yillarda hayotida tub o‘zgarishlar bo‘lgan insonlar bilan tez-tez uchrashib, dil izhorlarini tinglayapmiz. Ularning har biri o‘z uyiga, o‘z taqdiriga egalik qilmoqda. Yangi O‘zbekistonda-gi islohotlar bardavom ekan, bu kabi hayotiga baxt kirgan yurtdosh-larimiz haqida hali ko‘p yozamiz.



## **YURTIMIZDA YANGILANISH NAFASI**

“Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”.

“Xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o‘z davlatida ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rishni istaydi”.

“O‘zimiz o‘zimizga xiyonat qilmasak, o‘zimiz o‘zimizni aldamasak, halol-pok bo‘lib mehnat qilsak, men aminman, ko‘zlagan narsaga marralarimizga albatta yetamiz”.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-dekabrda parlamentga yo‘llagan birinchi Murojaatnomasidagi fikrlar hayotiy iboraga, jamiyat rivojining asosiy mezoniga aylanib ketdi. Shundan buyon an’anaga aylangan, har yili nainki parlamentga, shu bilan birga xalqqa, millatga yo‘llanayotgan Murojaatnomalarda qishloq va mahallalarni obod qilishdek dunyoda e’tibori bo‘lmagan ezgu ishning eng muhim va ustuvor yo‘naltiruvchi belgilab kelinadi.

### **Obodlikka eltuvchi yo‘llar**

Kandik qoning to‘kilgan qishloq va mahalla. U – vatan timsoli, davlat kamolining beshigi. Yurtimiz bir bo‘ston bo‘lsa, uning bir qismini ana shu maskan. Murojaatnomadan ruhlangan, kuch-quvvatlangan million-million yuraklar o‘z qishlog‘i, mahallasi va xonalariga ham bu so‘zlarga xos hayot tarzi kirib kelishini, bolalari o‘qitilishini, tibbiy bog‘cha, maktablarda ilm-tarbiya olishini, onalari ener-

giya quvvati-yu issiq suvi bo‘lgan oshxonalarda taomlar tayyorlashini, bag‘irlari zavqqa to‘lib, ko‘rkam xonadonda mehmonlar kutishni istashardi. Aslida, bu kabi orzu-niyatlar odam bolasi uchun hoy-u havas bo‘lmay, qulay yashashi uchun zarur bo‘lgan oddiy turmush sharoitlari edi, xolos.

Jamiyatda so‘z bilan ish birligi bo‘y ko‘rsata boshladi. Ayniqsa, uy-joy masalasida.

Tasavvur qiling, 2017-yilning o‘zida jami 3,5 million kvadrat metrdan ziyod namunaviy uylar va ko‘p qavatli uy-joylar barpo etildi, minglab odamlar boshpanali bo‘lib, yangicha yashash zavqini sura boshladi. Bu raqamni avvalgi yillarga taqqoslaganda, 2007-yilga nisbatan 20 barobar, namunaviy uy-joylar qurish dasturi boshlangan 2010-yilga nisbatan 3,5 barobar ko‘p uy-joy qurildi.

– Keyingi 25 yil mobaynida namunali uy-joy qurishni hisobga olmaganida, qishloqlarning tashqi qiyofasini yaxshilash va obodonlashtirish bo‘yicha biror-bir amaliy ish qilinmagan, buning uchun moliyaviy mablag‘lar ajratilmagan, – degan edi Prezidentimiz o‘sha kezlari o‘tkazilgan yig‘ilishlardan birida. – Aksariyat qishloqlarda ko‘chalar, ijtimoiy soha obyektlari, ichimlik suvi, elektr ta‘minoti kabi muhim sohalar yillar davomida qarovsiz va e‘tiborsiz qolishi oqibatida nochor ahvolga kelib qolgan.

Xarob va fayzi yo‘q joyda yashayotgan aholining kayfiyati ham kelajakka intilishi ham bo‘lmaydi. Agar biz qishloqlarni obod qilsak, u yerdagi xalqning kayfiyati o‘zgaradi, o‘z hayotini yanada yaxshilashga intilish paydo bo‘ladi, qishloqlar iqtisodiy yuksaladi. Bularning bari Vatanimizning obodligi va iqtisodiy yuksalishi uchun yana bir muhim turtki bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yaratilgan “Obod qishloq” dasturi ana shunday o‘tkir muammolarga amaliy javob, xalqning kayfiyatini ko‘taradigan, obodlik va iqtisodiy yuksalishga chorlaydigan hujjat sifatida yuzaga keldi. Mazkur dastur konsepsiyasi in-

sonparvarlik, xalqparvarlik, oldimizda turgan bir-biridan muhim masalalarni kompleks yondashuv asosida hal etish prinsipi asosiga qurildi. Uning tub mohiyati, o‘zak g‘oyasi va pirovard maqsadi – xalqimiz uchun munosib hayot sifati va turmush farovonligini ta‘minlashga qaratildi.

Uni amalga oshirish mexanizmlari, yo‘llari va usullari dastavval tajriba sifatida amaliyotda sinovdan o‘tkazildi. Buning uchun ilk qadam va manzil Jizzax viloyati Do‘stlik tumanining Manas qishlog‘i bo‘ldi.

### **Manas mo‘jizasi**

O‘tgan asrning 60-yillarida cho‘llarni o‘zlashtirishga yalpi kirishilgani, shu tufayli minglab kishilar yangi qo‘riqlar ochishga safarbar qilingani tarixdan yaxshi ma’lum. Ayni ana shu to‘lqin ichida bir paytlar Jizzax cho‘llarini o‘zlashtirishga safarbar etilgan cho‘lquvarlarning ko‘chib kelishi bilan hozirgi Manas qishlog‘i barpo bo‘lgan. Oradan yarim asrdan ziyod vaqt o‘tgan, zamon o‘zgarilgan, tuzum o‘zgargan, qishloq aholisi ham bir necha barobar ko‘paygan, biroq taraqqiyot bu qishloqni chetlab o‘tavergan. Oqibatda, hududning qiyofasi ham, ahvoli ham, mavjud shart-sharoitlar ham talabga javob bermay qo‘ygan edi.

2018-yilning 14-fevralida tuni bilan yog‘gan qalin qor Manas qishlog‘ini ham oppoq ko‘rpaga burkadi. Ammo tabiatning bu qishloq mo‘jizasi manasliklar qalbida mamnunlikdan ko‘ra, ko‘proq umid uyg‘otdi. Bilch-bilch loy ko‘chalarda oyoq bosib yurish qiyinchiliklashga aylangan. Chor atrofini pala-partish qurilmalar o‘ralgan ko‘p qavatli uylarning eshik-derazalaridan sizib kirgan izg‘irin tamlarni chaqib oladigan rutubatli bir tun edi. Nuragan tandirlar atrofida, elektr chirog‘i lipillaydi, suv tashib keltirish-ku, kat-

ta bir tashvish. Qishloqdagi vrachlik punktida oddiy shifokor an-qoning urug'idek gap. Buyoqda ishsizlar ko'p, qo'l kalta, ro'zg'or g'arib...

Ana shunday osmon olis, yer qattiq bir sharoitda, kutilmaganda, Manasda bamisoli quyosh balqidi. Mamlakatimizda kechayotgan shiddatli o'zgarishlar tufayli uzoq yillik o'tkir muammolarni hal etish, keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlarini olib borish orqali qish-loqda munosib sharoit yaratish, turmush madaniyatini yuksaltirish yo'lida amaliy ishlarga qat'iy kirishildi.

Bir kunda ko'chalarni to'ldirgan qudratli texnikalarning guvil-lagan shovqini atrofni tutgani, nurchi-yu suvchi, quruvchi-yu loyi-hachi, yo'lsoz-u gazchi, qo'yingki, barcha soha vakillarining qish-loqqa kelib, ularni bu og'ir ahvoldan qutqazishga jadal kirishgani dastlab odamlarni esankiratib qo'ygani ham bor gap.

Davlatimiz rahbari topshirig'iga muvofiq tuzilgan Respublika ishchi guruhi a'zolari, Prezidentning Xalq qabulxonalari, viloyat va tuman tashkilotlari mutasaddilari hududdagi har bir xona-don va ijtimoiy muassasalarga kirib, mavjud holatni atroflicha o'rgangani, fuqarolarning talab va istaklarini tinglagani bajarila-digan ishlar hajmini oldindan aniq belgilab olish imkonini berdi. Qisqa muddatda Manasda kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Qishloq shu kundan boshlab katta qurilish va bunyodkorlik maydoniga aylandi. Barcha bir yoqadan bosh chiqarib, bir zum ham tinmay, uni obod maskanga aylantirishga kirishdi.

Davlatimiz rahbari Manasda olib borilayotgan ishlar bilan muntazam qiziqib, xabar olib turgani, yuzaga kelgan muammo-larni tezkor hal qilish yuzasidan zarur ko'rsatma va topshiriqlarni berib borgani ishni samarali tashkil etishda hal qiluvchi rol o'ynadi, hasharchilarga katta kuch-g'ayrat bag'ishladi. Shu asnoda hudud manzarasi kun sayin ochilib, go'zallashib boraverdi.

Ha, bugun Manas aholisi mo'jizaga qiyos qilsa arzigulik yangi hayot, tez sur'atlarda kechayotgan ulkan o'zgarishlar og'ushida beshamoqda. Manasdagi o'zgarishlarga obrazli qilib, mo'jiza, deya ta'rif berilyapti. Lekin bu mo'jiza ertaklarda bo'lgani kabi yo'q joydan paydo bo'lib qolgan emas. Bu mo'jiza – insonga xos bo'lgan e'timodkorlik, azm-u shijoat mahsuli.

O'ylasang, aqling shoshadi, ko'rsang, ko'zing quvnaydi. Manasdagi yilni uzoq yillardan beri o'ylantirgan muammolar – yo'llar, ta'minlik suvi, elektr energiyasi bilan bog'liq masalalarning yechilishi, ko'p qavatli uylarning chiroy ochishi, ularda inson hayotdan qatnashib bo'lib yashashi uchun barcha sharoitning yaratilishi, shaharlarda ham orzu qiladigan bog'cha, maktab, mahalla binolari, muhassas madaniyat saroyi, eng zamonaviy tibbiy jihozlarga ega oilalar uchun poliklinika, 17 ta bolalar maydonchasi, 2 ta kichik futbol maydoni, 250 o'rinli stadion, yangi tikuvchilik majmualari, odamlarning muhtojligini oqartirayotgan chorvachilik majmuasi, novvoyxona, zamonaviy hammom va yana boshqa qator obyektlar... Bularning barqarorligini buniyod etishga 45 kun yetarli bo'ldi.

Bu yerdagi eng katta muammolardan biri ishsizlik, shu jumladan, ayollar o'rtasidagi bandlik masalasi edi. Bugun esa qishloqda bekorchi odamni topish qiyin: qisqa vaqt ichida 450 nafardan ko'prog'i fuqaro doimiy ish bilan ta'minlandi. Xususan, 200 nafar xonim-qiz tikuvchilik kurslarida o'qitilib, ularning 100 nafari "Manas" tikuvchilik majmuasiga, 100 nafari "Manas chevarlari" korxonasiga ishga qabul qilindi.

Madaniyat saroyiga yondosh hududda yaratilgan yashillik olami aholi dam olish maskani va yoshlar xiyoboni, bu yerda barpo etilgan turfa ranglarda jilolanuvchi favvora, baravj maysazorlar yagona tur me'moriy ansamblni vujudga keltirgan.

Xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, aholi og'irini yengil qilish maqsadida Davlat xizmatlari agentligining filiali, turli savdo



do'konlari, maishiy, aloqa hamda boshqa zamonaviy shoxobchalarni o'zida mujassam etgan yirik markaz, mahsulotlar assortimentiga ko'ra, shahardagidan hech qolishmaydigan supermarket faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Qishloqning mavjud 26 ta ko'chasidagi barcha hovli-uylarda ham qurilish-ta'mirlash, tozalik, obodonchilik va ko'kalamzorlash-tirish ishlari bajarilgani hududning havas qiladigan darajadagi manzarasini hosil qildi. Shu bilan birga, tomorqa xo'jaligidan samarali foydalanish, yangi bog'lar, issiqxonalar barpo etish, chorvachilik, parrandachilik, quyunchilikni yo'lga qo'yish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar o'z samarasini bermoqda.

Prezidentimiz Manasda amalga oshirilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishar ekan, eng muhimi, qishloq aholisining kayfiyati, turmush darajasi, dunyoqarashi va hayotga munosabati o'zgarib, ularda ertangi kunga mustahkam ishonch paydo bo'lganini e'tirof etdi.

## **Qishloqlar taqdirini o'zgartirgan hujjatlar**

Manasdagi yangilanishlar yurtimizdagi yangi o'zgarishlar to'liqlinining debochasi bo'ldi. Nega deganda, "Obod qishloq" dasturi deb atalmish ezgulik imoratining ilk g'ishti aynan shu yerda qo'yildi. Ovozasi butun yurtimiz bo'ylab taralgan dastur Manasda parvoz qilib, diyorumizdagi qishloq va ovullar, mahallalar uzra qanot yozdi.

Prezidentimiz bu jarayonni shunday ifodalagan edi:

**"Manas biz uchun shunday tajriba maktabi bo'ldiki, agar qishloqlarni zamonaviy maskanga aylantirish, iqtisodiy-ijtimoiy muhitni yaxshilash, odamlar kayfiyatini ijobiy tomonga keskin o'zgartirishni oldimizga maqsad qilib, izchil harakat qil-**

**Uk bunga erishish mumkinligiga odamlarni ishontira oldik, ruzimizda ham ishonch va qat'iyat oshdi".**

Ana shu ishonch va qat'iyat asosida, Manas tajribasi misolida "Obod qishloq" dasturining amaliy dastaklari ishlab chiqildi. Ularning barcha jihatlari davlatimiz rahbarining 2018-yil 29-martda qaratilgan "Obod qishloq" dasturi to'g'risida"gi Farmoni hamda "Obod qishloq" dasturini 2018-yilda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida o'z ifodasini topgan. Ushbu hujjatlarda belgilanganidek, mamlakatimizning har bir tuman va shahrida, avvalo, olis va tabiiy iqlim sharoiti og'ir hududlarda 2018-yilda 2 tadan, kelgusi yillarda 3 tadan qishloq va mahallada "Obod qishloq" dasturi amalga oshirilishi belgilandi. Shu yili 417 ta mahallada qurilish-ta'mirlash ishlari olib borildi. Buning natijalarini quyidagi raqamlar ifodalab turibdi. 127 ming 245 ta uy-joy va 1078 ta qavatli uylarni ta'mirlash va atrofni obodonlashtirish, 2189 kilometr ichimlik suvi tarmog'i, qariyb 800 ta ijtimoiy soha va 1750 ta obyektni infratuzilmasi obyektlarini qurish va kapital ta'mirlash kabi ishlar bajarildi.

2019-yilda bu ishlar ko'lami yanada kengaydi. "Obod qishloq" dasturining "Obod mahalla" dasturlari doirasida 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Bunga 6,1 trillion so'm yoki 2018-yilga nisbatan 1,5 trillion so'm ko'p mablag' sarflandi.

Qishloq joylarda – 17 ming 100 ta, shaharlarda – 17 ming 600 ta, jami 34 ming 700 ta yoki 2016-yilga nisbatan salkam 3 barobar ko'p arzon va shinam uylar qurildi. Kam ta'minlangan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj besh ming oilaga, jumladan, tegiryon ayollarga ipoteka krediti asosida arzon uy-joy sotib olish uchun 116 milliard so'mdan ziyod boshlang'ich badal ham to'lab berildi.

Raqamlar salmog‘idan va ko‘lamidan ham amalga oshirilgan ishlarning ulug‘vorligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Shunday bo‘lsa-da, bunga qanday omillar dastak bo‘ldi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Eng avvalo, dasturda belgilangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda, har bir qishloqda bajariladigan chora-tadbirlarning izchilligi, loyihalarni moliyalashtirish manbalari, moddiy resurslar ta‘minotining uzviy va chambarchas rejasi ishlab chiqildi. Bunda nafaqat shaharsozlik qoidalari va iqtisodiy omillarni, balki hududning landshafti, ekologik-estetik talablari ham hisobga olindi.

Har bir bino, u bog‘cha bo‘ladimi, shifoxonami, mahalla guzarimi o‘z asosiy vazifasini bajarishdan tashqari, ko‘rinishi bilan odamlarning kayfiyatiga ham bevosita ta‘sir etadi.

Shu jihat inobatga olinib, hududlarda qurilishi rejalashtirilayotgan ijtimoiy obyektlarni loyihalashtirishda eski qoliplardan voz kechib, innovatsion yondashuvlarni joriy etishga harakat qilindi. Shu bois, Gagarindagi binolarning me‘moriy qiyofasi Mo‘ynoq, Jo‘sh, Chiyali, Eshonobodagi ijtimoiy binolardan farq qiladi, o‘z navbatida, ular yurtimizning barcha viloyatlarida qad rostlagan obyektlarga o‘xshamaydi. Ularning umumiy o‘xshashligi yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlarda, shaharga xos bo‘lgan infratuzilmaning mujassamligida namoyon bo‘ladi.

Aytish joiz, dastur doirasida qayta qurilgan barcha qishloqlar o‘z madaniyat koshonalariga, yoshlar uylariga ega va ularning hammasida o‘zbek va jahon adabiyotining durdonalari jamlangan kutubxonalar mavjud.

Yana bir muhim jihati, “Obod qishloq” dasturi doirasida aholi, ayniqsa, xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlashga ham alohida e‘tibor qaratilyapti. Har bir qishloqda tikuvchilik sexlari qad rostlayotgani, ularda ishlaydigan minglab yoshlar o‘qitilib, chevarlik kasbini egal-

layotgani va daromad topayotgani dastur har tomonlama o'ylanib, uning ijrosiga kompleks yondashilganini ko'rsatib turibdi.

O'zgarishlarga guvoh bo'lgan xalqaro tashkilotlar vakillari, shu yerlarda voyaga yetgan, lekin taqdir taqozosi bilan hozirgi kunda boshqa yurtlarda yashayotgan kishilarning taassurotlarini yodga olish foydadan xoli bo'lmaydi.

– Bu yerda ko'rganlarim men uchun kutilmagan yangilik bo'ldi, – degan edi BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori Helena Freyzer obod maskanlardan birida bo'lgach. – Odamlarni uy-joy bilan ta'minlash, ular uchun yashash sharoiti yaratib berish masalasi BMT faoliyatidagi eng muhim masala hisoblanadi. O'zbekiston hukumatining bu masalani hal etishga katta e'tibor bilan qarayotganidan juda mamnunmiz. Biz intilishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz.

– O'zbekiston tinchlik-osoyishtalik tufayli jadal rivojlanmoqda, – deydi Rossiya Federatsiyasi Davlat dumasi federal majlisining mudofaa qo'mitasi raisi, Rossiya Qahramoni Vladimir Shamanov. – Men Gagarinda qad rostlagan muhtasham inshootlarda, o'qigan maktabimning ko'rkam binosida, odamlarga davlat tomonidan qurib berilgan zamonaviy uylarda, mahallalar obodligida aynan ana shu tinchlik va osoyishtalik samarasini ko'rdim. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona hamkorlikni mustahkamlashga, kichik Vatanim bo'lgan Gagarin shahrining yanada obod bo'lishiga hissa qo'shishni istayman.

Bunday samimiy so'zlarni yana ko'plab keltirish mumkin. Ular zamirida qishloq va mahallalarimizdagi o'zgarishlar qo'ni-qo'shni yurtlarda yashayotganlardan tortib, dunyoning nufuzli tashkilotlari vakillarida ham havas uyg'otayotganidan dalolat beradi. Ayni kezda ushbu xayrli ishga o'z hissasini qo'shishga, ishtirokchi bo'lishga ishtiyoq ham ustuvor. Bunga Osiyo taraqqiyot banki tomonidan

ajratilayotgan katta miqdordagi imtiyozli kreditlarni amaliy dalil sifatida keltirish mumkin.

Odam bolasi hayotida ikki narsani: ota-onani va Vatanni o‘z istagicha tanlay olmaydi. Ushbu benazir ne‘matlarni Allohning o‘zi in‘om etadi. Bu yorug‘ olamga kelgan inson baxt-saodat tuyg‘usini tuyishi uchun, avvalo, o‘z hayotidan qoniqish hosil qilishi, rozi bo‘lib yashashi kerak.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilib kelyapti va bundan buyon ham inshooloh, yurtdoshlarimizning yangidan yangi orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarishning hayotbaxsh dasturi va tayanchi bo‘lib qoladi.

## **YANGI UYG‘ONISH DAVRINING DASTURI**

“Aniq strategiya va uning istiqboliga qat’iy ishongan insonlar uzoqni ko‘ra olish qobiliyatiga ega bo‘lmagan kishilarga nisbatan hayotning turli burilishlari-yu kutilmagan hodisalariga tayyorroq bo‘ladi va ularni yaxshiroq yengib o‘ta oladi”, degan edi Uinston Cherchill.

Besh yil oldin davlatimiz, jamiyatimiz rivojida keskin burilish yasagan taraqqiyot ta’limoti – Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Har birimiz, har bir oila hayotida uning tutgan o‘rnini idrok etish uchun 2016-yildan avval mamlakatda vujudga kelgan holatni xolis-sona eslash kerak.

Ko‘p yillar mobaynida jur’atsizlik tufayli dadil qadamlarni tashlamasdan, muammolar yechimini paysalga solib, real vaziyatni ochiq aytishdan qo‘rqib, berkitib yurildi. Biz butun mustaqil davlatlar hamjamiyatida eng oxirgi bo‘lib milliy valyutamizni joriy etdik. O‘zgarishlarning zamini – haqiqiy xususiylashtirishga kirishilmadi. Haqqoniy iqtisodiy tashxis o‘rniga maqtanchoqlik, o‘zimizni bir qandaydir soxta, uydirma raqamlar bilan yupatib, o‘zining qandaydir manfaatlariga ega, hech kim tanimaydigan “xorijiy ekspertlar”ning maqtoviga mahliyo bo‘lib yurdik.

Natijada nihoyatda xatarli vaziyat vujudga keldi. Aholi turmush darajasining pasayishi, ishsizlik, davlat organlarining xalq bilan bog‘liqligi yo‘qolishi, iqtisodiy erkinlik va inson huquqlarini poymol qilish, korrupsiya, byurokratizm hamda boshqa avj olgan illat-

lar oqibatida xalqning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchsizligi kuchaydi.

Eslayman: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida rektorlik qilgan paytimdagi bitiruvchilar 2015-yilda uchrashuv qiladigan bo'ldi. Aniq bo'ldiki, 10 yil avval dargohni tugatgan 55 nafar kursdoshning 49 nafari chet elda ishlayotgan ekan. Nima uchun ular o'z mamlakatida ish topolmadi yoki ishlagisi kelmadi? Aminman: buning sababi ularda vatanparvarlik tuyg'usi yetishmaganida emas, o'sha paytdagi muhit ularni Vatandan siqib chiqargan.

Mamlakatda dehqonlar nima yetishtirishi va uni qanday narxda sotishi yuqoridan belgilab qo'yiladigan tartib joriy qilinib, paxta xomashyosi qimmatbaho eksport moli hisoblansa-da, fermerlarga yetishtirilgan hosil uchun dunyo bozorlaridagi narxning kichik bir qismi to'lanar, paxta yetishtirish daromadsiz bo'lib, dehqonlar eski sovet "majburlash-buyruqbozlik" tizimida ishlab keldi. Shu sabab paxta terish maktab o'quvchilari, talabalar, o'qituvchi, shifokorlar va boshqa "hasharchilar" zimmasiga yuklanar va shu bois O'zbekiston qator xalqaro "qora ro'yaxatlar"ga kiritilib bebro' bo'lib qolgan edi.

Taniqli iqtisodchilar D.Ajemoglu, J.Robinson o'zlarining 2012-yilda chiqqan mashhur "Nima uchun mamlakatlar muvaffaqiyatsiz bo'ladi: hokimiyat, farovonlik va kambag'allikning kelib chiqishi" degan kitobida O'zbekistonni "hozirgi kunda ekstraktiv (ya'ni aholining keng qatlamlari o'z faoliyatidan kelib chiqqan daromadlarini taqsimlash jarayonidan bebahra qiladigan – S.S.) iqtisodiy tizim tufayli tanazzulga uchrayotgan mamlakatlar" qatoriga kiritgan edi.

Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2015-yilga kelib O'zbekistonga kelib tushgan xorijiy investitsiyalar yalpi hajmi atigi 1,06 milliard dollarni tashkil qildi. Bu qo'shni Qozog'istonga nisbatan 6 marotaba kam bo'lgan. Hatto Qirg'iziston ko'proq sarmoya jalb qilish-

ga qodir edi. Kishi boshiga kelgan investitsiyalar bo'yicha O'zbekiston mintaqada eng so'nggi o'rinni egallab turgan.

Diplomatiyaning oltin qoidasi – “dushman orttirish oson, hamkor ko'paytirish darkor” prinsipini esdan chiqargan edik. O'sha davrda bizga xayrixoh, do'st davlatni topish amrimahol edi. Tutarisiz tashqi siyosat sababli Markaziy Osiyo va Afg'oniston – Jon qo'shni davlatlar bilan, ming yillik qon-qardosh xalqlar bilan muzko'rmas bo'lib qolgandik. Bir chaqirim narida – chegara ortida yashayotgan jigarlarimizning issiq-sovuq ma'rakasida qatnashish uchun ming azobda qanchadan qancha hujjatbozliklarni tengib, hadiksirab o'tib, manzilga yetib borguncha marosim tarqab, mulzam bo'lib, bir dardimiz ikki karra ortardi.

2016-yilda davlat rahbari sifatida faoliyat boshlagan Shavkat Mirziyoyevga ana shunday og'ir yuk meros bo'lib qolgandi. Davlatni halokat yoqasidan olib chiqib ketish favqulodda choralar, favqulodda jasorat, favqulodda shijoat talab qilardi. Prezident ana shu mas'uliyatni dadil zimmasiga oldi hamda boshqalarni ham ishonch bilan o'z ortidan ergashtirdi.

Buyuk davlat rahbarlariga doimo xos bo'lgan fazilatlardan eng muhimi yuksak tafakkur, hodisalar rivojini oldindan ko'rish, jargonlarning rivoji va yo'nalishini ilmiy bashorat qila bilishdir.

Prezidentimiz jamiyatimiz ahvolini chuqur tahliliga asoslangan holda yangilangan ichki va tashqi siyosat dasturi zarurligini asoslab berdi va ilgari surdi. O'zgarishlar jamiyatimiz, davlatimiz rivojlanishining yangi mafkurasini belgiladi. Xalq anchadan beri kutilgan o'zgarishlarni qo'llab-quvvatladi. Chunki islohotlar insonlar arzui-istaklari va umidlariga hamohang edi.

Men uchun bir narsa ravshan: agar o'z vaqtida davlat boshqaruv tizimi tubdan takomillashtirilmaganda, joylarga yangi vakolatlar berilmaganda, parlament, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari roli ko'tarilmaganda, iqtisodiy islohotlar boshlanmaganda,



inson huquqini kafolatlashga yangicha yondashuv tatbiq etilmaganda va batamom yangi tashqi siyosat olib borilmaganda – bugungi kunda mamlakatimizdagi vaziyat nihoyatda og‘ir bo‘lar edi.

Harakatlar strategiyasi nafaqat eng yetuk mutaxassislar, balki xalq, keng jamoatchilikning fikr va mulohazalarini o‘zida mujassamlagani uning idrokiy quvvatini yanada oshirdi.

Jamiyatimizning har bir qatlamida, barcha hududlarda ushbu hujjat jonli, katta qiziqish bilan muhokama etilganiga barchamiz guvoh bo‘ldik. Minglab takliflar ilgari surildi va bu xalqimizning ortib borayotgan siyosiy ongi va faolligi, mustahkam ijtimoiy pozitsiyasi va bo‘layotgan hodisalarga daxldorligi, befarq emasligining dalolatidir.

Harakatlar strategiyasining ahamiyati faqatgina nazariy masalalar bilan cheklanmaydi, albatta. Bu hujjatda mamlakatimizni isloh etish uchun zarur bo‘lgan amaliy choralar dasturi aniqlangan. U, avvalo, O‘zbekiston milliy manfaatlarini ta‘minlash, ayni vaqtda umumbashariy demokratik jarayonlarning chuqur tahlili asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning g‘oyalari umuminsoniy taraqqiyot tamoyillariga to‘la-to‘kis mos tushadi.

Ushbu hujjatga Vatanimiz va xorijda katta e‘tibor qaratildi va chuqur qiziqish bilan o‘rganildi. Yaxshi eslayman, o‘sha kezlarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan Jahon bankining vitse-prezidenti S.Miller bilan bo‘lgan suhbat chog‘ida Harakatlar strategiyasini sinchiklab o‘rganib chiqqanini qayd etib, shuni ta‘kidladiki, “Bu juda kuchli, muayyan ravishda tarixiy hujjat. U O‘zbekistonda yangi davr boshlanganini ifodalaydi va unda mamlakat rivojida yangi dinamikani belgilovchi yangicha dunyoqarash va yangilangan yondashuvlar bayon etilgan”.

Fikrimcha, yangilangan siyosatning eng muhim, ko‘zga tashlanadigan mohiyati shundan iboratki, u balandparvoz, havoyi shiorlarga asoslangan dasturlardan voz kechib, tom ma‘noda inson ehti-

yojlarini ilgari surishni o'zining asosiy va bosh maqsadi deb belgiladi. Shu jumladan, hududlardagi vaziyatga xolisona nazar tashlash, odamlarni bezovta qilayotgan muammolarni berkitmasdan ularni hal qilish yo'llarini izlash, topish va yechish yotadi.

Harakatlar strategiyasida zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biri – taraqqiyot nazariyasiga oid batamom yangi so'z aytiladi. Avvalambor, bu Prezident Shavkat Mirziyoyevning iqtisodiyotni tubdan modernizatsiya qilish uchun chuqur siyosiy islohotlar, davlat boshqaruv tizimining zarurligini har tomonlama asoslab berishiga e'tibor berilgan. Ushbu chuqur, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi tahlili asosida qilingan xulosa shuni isbotlaydiki, jadal iqtisodiy o'sish, rivojlangan bozor iqtisodiyoti, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish zamonaviy siyosiy tuzilma – rivojlanishning huquqiy asoslarini barpo etish va takomillashtirishni talab qiladi.

Bejiz emaski, Harakatlar strategiyasi aynan davlat boshqaruv tizimida huquq, inson erkinliklarini ta'minlash tizimlarini takomillashtirishga bag'ishlangan qismlardan boshlanadi. Kecha odamlarni besabab quvib yurgan ichki ishlar xodimlari bugun chinakam huquq muhofazachisiga, xalq xizmatchisiga aylanyapti. Prokuratura vakillari yurtdoshlarimizga qanday yordam kerak deb, uyma-uy surishibdi. Qachon shunday bo'lgan?

Harakatlar strategiyasini amalga oshirish natijasida hokimiyatga yangi avlod siyosatchilari kelmoqda. Ular aksariyat holda jahonning eng nufuzli universitetlarida ta'lim olgan, dunyo ko'rgan, shijoatli shaxslar. Barcha darajadagi davlat organlari va bo'g'inlari faoliyatiga tobora shaffoflik, hisobdorlik xos bo'lmoqda.

Yillar mobaynida chetga chiqarib qo'yilgan fuqarolik jamiyati qaytib kelmoqda. Aynan shu asnoda pandemiya davrida ijtimoiy hamkorlik, inqirozga qarshi choralarning milliy protokoli yaratildi. Ommaviy axborot vositalari tom ma'noda xalq ovozi, to'rtinchi hokimiyatga aylanmoqda, katta auditoriyaga ega bo'lgan qariyb 300 ga

yaqin xususiy va idoraviy internet nashrlari tashkil etildi. Siyosatchilarimiz, hukumat va parlament a'zolarini xalq endi tanimoqda. Insonlarda daxldorlik va uning natijasida mas'uliyat paydo bo'lmoqda.

Harakatlar strategiyasi asosidagi islohotlar iqtisodiy manyovr qobiliyatini yaratdi. Jahon iqtisodiyotidagi muammolarga qaramasdan yangi islohotlar yillari mobaynida O'zbekiston iqtisodiyoti 20 foizga o'sdi.

Nihoyatda og'ir pandemiya sharoitida, uning oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan 82 trillion so'mlik (qariyb 8 milliard AQSH dollari) kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Aholining asosiy qismi o'zining daromad manbalari va turmush darajasini saqlab qolishiga erishildi. Nufuzli moliya tashkilotlari dunyodagi sanoqli mamlakatlar qatorida O'zbekistonda iqtisodiyotning pasayishiga yo'l qo'yilmaganini ta'kidlamoqda.

Karantin cheklovlariga qaramasdan, keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari izchil davom ettirildi. Misol uchun, 1985-yilda, ya'ni sobiq sovet davlati eng kuchga to'lgan paytda Toshkent shahrida 1 million kvadrat metr turar joy qurilgan edi. 90-yillarda bu ko'rsatkich minimal darajaga pasayib ketdi. O'tgan yili, pandemiya bilan bog'liq cheklovlarga qaramasdan poytaxtimizda 4 million kvadrat metr uy-joy barpo etildi.

Mamlakat tarixida birinchi bor kambag'allik muammosining mavjudligi tan olinib, kambag'al qatlam aholining 12–15 foiz atrofida ekanligi ta'kidlandi. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil qilindi. Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy etildi. Pandemiya sharoitida bu tizim orqali 527 ming fuqaroning bandligi ta'minlandi.

Tashqi siyosat sohasiga oid muhim yangi yondashuvlar tatbiq etildi, tom ma'noda burilish amalga oshirildi. O'zbekiston tashqi

siyosati batamom yangi xarakterga va yangi mazmunga ega bo'ldi. Milliy manfaatlar to'qnashuvi, mavjud bo'lgan muammolar bo'yicha muloqotga tayyorlik, milliy manfaatlarini so'zsiz va qat'iy ta'minlab-quvvatlagan holda oqilona murosaga intilishga bo'lgan muvaffaqiyatni namoyish etish yotadi. Bu mamlakat yangi rahbariyatining mintaqadagi vaziyatni chuqur anglashi, muammolarni hal qilishga yangicha yondashishi va mamlakatning xalqaro obro'sini oshirishga qaratilgan harakatlarining muvaffaqiyatli natijalari o'zaro manfaatdoshlikni ta'minlash omilining ifodasi bo'ldi.

Uning negizida davlatlararo obyektiv qarama-qarshiliklar va muvaffaqiyatli manfaatlar to'qnashuvi, mavjud bo'lgan muammolar bo'yicha muloqotga tayyorlik, milliy manfaatlarini so'zsiz va qat'iy ta'minlab-quvvatlagan holda oqilona murosaga intilishga bo'lgan muvaffaqiyatni namoyish etish yotadi. Bu mamlakat yangi rahbariyatining mintaqadagi vaziyatni chuqur anglashi, muammolarni hal qilishga yangicha yondashishi va mamlakatning xalqaro obro'sini oshirishga qaratilgan harakatlarining muvaffaqiyatli natijalari o'zaro manfaatdoshlikni ta'minlash omilining ifodasi bo'ldi.

O'nlab yillar davomida eng yuqori darajadagi ko'p tomonlama muloqot deyarli yo'qligidan so'ng, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari o'rtasida rasmiy va norasmiy aloqalar amaliyoti tiklandi. Natijada muqarrar bo'lib ko'ringan mintaqa davlatlari o'rtasidagi muvaffaqiyatli ta'minlash omilining ifodasi bo'ldi.

Davlatimiz rahbari o'zining birinchi xorijiy tashriflarini aynan o'zaro manfaatdoshlikni davlatlardan boshlagani e'tiborga sazovor.

Esimda, 2017-yilning boshida Qozog'istonga bo'lgan tashrif natijasida qo'shni mamlakat lideri, katta xalqaro obro' va ta'sirga ega bo'lgan shaxs Nursulton Nazarboyev chuqur samimiyat bilan O'zbekiston Prezidentiga qarata "biz Siz boshlagan o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaymiz" degan edi.

Agar Prezidentimizning tashqi siyosiy dasturiga qisqa ta'rif berilsa, uni yangi yo'llar ochish strategiyasi deb ifodalash mumkin. Bu keng ma'noda tushunmoq lozim – hamkorlik, savdo, muloqot va tinchlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlar va bu o'z samarasini namoyish etmoqda.

Harakatlar strategiyasining tashqi siyosatga oid qismi – bu yangi zamon sharoitida Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash dasturidir. O'zbekiston orqali o'tadigan marshrutlarning jozibadorligini

oshirishga yo'naltirilgan strategiya muhim ahamiyatga ega, chunki tranzit salohiyati – eng daromadli tovar hisoblanadi.

Bu siyosatning maqsadi faqatgina tor ma'nodagi iqtisodiy samara emas. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: “Bir paytlar mamlakatlarimiz hududidan o'tgan va butun sayyoramizning asosiy transport arteriyasi bo'lgan Buyuk ipak yo'lining yangi sharoitida qayta tiklanishini... tinchlik va farovonlikni ta'minlashni anglatadi”.

Harakatlar strategiyasining amaliy natijalari haqida gap ketganda alohida ta'kidlash kerakki, xalqaro miqyosda yangi, batamom o'zga qiyofaga ega O'zbekiston paydo bo'ldi. Mamlakatning jahondagi obro'si va ta'siri misli ko'rilmagan darajada ko'tarildi.

Bunga misollar ko'p. Ulardan bittasi – BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida “Trast fondi”ning tuzilishidir. Prezidentimiz tomonidan 2017-yilda ilgari surilgan bu tashabbus qisqa davr mobaynida amalga oshirilishi o'zbek diplomatiyasining katta yutug'i bo'ldi.

Ma'lumki, xalqaro kreditlar hammaga ham berilmaydi. Yurtimizda esa bugun 3 milliard dollarlik imtiyozli kredit va grantlar jalb etish dasturi amalga oshirilmoqda. Ularning 700 millioni ishbilarmonlar va banklarni qo'llab-quvvatlashga, 300 millioni kommunal xo'jalik infratuzilmasi uzluksiz harakat qilishini ta'minlashga yo'naltiriladi. Yaqinda Osiyo taraqqiyot banki O'zbekistonga tibbiyot tizimi va epidemiologik xizmat modernizatsiyasiga 100 million dollar ajratishini e'lon qildi. Pandemiya tufayli, iqtisodiyot murakkab davrni boshidan kechirayotgan pallada bu pul qayerdan olinardi?

O'zbekistonning tamoman yangi mazmunga ega bo'lgan tashqi iqtisodiy faoliyati asoslari shakllandi.

Bugungi kunda investitsiyalar uchun global va mintaqaviy raqobat kuchli – agar ilgari investorlar bozorlarga kirish uchun kurash-

gan bo'lsa, endi davlatlar kapitalni jalb qilish uchun raqobatlashmoqda.

Strategiyani ishlab chiqish paytida Prezidentimiz bergan birinchi ko'rsatmalardan biri, bu investitsiyalarni jalb qilish sohasidagi ishlarning holatini tanqidiy tahlil qilishdan iborat bo'ldi. So'nggi yillarda Strategiyani amalga oshirish doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy va institutsional asoslarini yaratish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi.

Sarmoyalar siyosati natijasi o'laroq iqtisodiyot tizimida jiddiy ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbekistonga sarmoya yo'naltirayotgan davlatlar soni 50 dan oshdi. BMTning YUNKTAD tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, mamlakat Markaziy Osiyoda investitsiyalar oqimining o'sishi ko'rsatkichi bo'yicha yetakchi davlatga aylandi.

Bir necha yil avval paxta tolasining atigi to'rt dan biri o'zimizda qayta ishlangan bo'lsa, yaqin kelajakda barcha yetishtirilgan paxta hosili mamlakatimizning o'zida qayta ishlanadi. Bu esa milliy daromad ortishiga olib kelmoqda. Agar avvallari katta mashaqqat bilan yetishtirilgan paxta eksportidan ko'pi bilan 1 milliard dollar atrofida daromad olingan bo'lsa, o'tgan yil o'zbek tayyor tekstil mahsuloti mamlakatga 2 milliard dollar foyda keltirdi.

O'zbekiston o'z suveren reytingiga ega bo'ldi va jahon xalqaro moliyaviy bozorida to'laqonli a'zo sifatida faoliyat boshladi. Yevropa Banki milliy valyutamizda birinchi kreditlarni berdi – bu juda katta yutuq.

Harakatlar strategiyasi – amaliy harakat dasturidir. O'zbekistonning yangilangan ichki va tashqi siyosati jamiyatimizda katta amidlarni uyg'otdi. Mavjud muammolarga qaramasdan, bu siyosat jurtodoshlarimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda va xalqaro miqyosda nihoyatda yuqori baholanyapti.

Shu bilan birga, bir narsani anglamoq lozim: islohotlar, agar ular chinakam islohotlar bo'lsa, hech qachon oson o'tmaydi. Insoniyat tarixi shuni uqtiradiki, chuqur islohotlar, ayniqsa, boshlang'ich bosqichda, doimo muammolarni, ziddiyatlarni keskinlashtiradi. Islohotlar uchun vaqt doimo tansiq, ular har doim tahlika bilan bog'liq. O'zgarishlarni barqarorlikka putur yetkazmasdan amalga oshira bilish – eng katta muammo va katta san'atdir.

Ishonch bilan aytamiz: uzoqni ko'zlagan bugungi shiddatli sa'y-harakatlarning xayrli natijalari uzoq kuttirmaydi. Bir necha yillarda Harakatlar strategiyasining bugungidan ham yorqinroq samaralarini ko'ramiz.

**O'ZGARGANING ROST  
BO'LSIN**

Ulug' ayyom kunlarin  
                  sururi bor, zavqi bor,  
Bu dunyoda xalqki bor,  
                  yashamoqqa haqqi bor.  
Har el ham o'z oshini  
                  oshamoqqa haqqi bor,  
Haqqi borki uyg'oqdir  
                  har ko'ngil, har qalbki bor,  
Bismillo, deb o'rningdan  
                  qo'zg'alganing rost bo'lsin,  
Ulug' kunlar tongida  
                  o'zgarganing rost bo'lsin.

Dunyoda qavmlar ko'p,  
                  elatlar, millatlar ko'p,  
Ellardan ham ziyoda  
                  sarhadlar, davlatlar ko'p.  
Har elatning boshida  
                  mehnat-u zahmatlar ko'p,  
Qay elga – minnatlar-u,  
                  qay elga rahmatlar ko'p,  
Mehnat-u alamlardan  
                  o'tganlaring rost bo'lsin,  
Dunyo avzoyin o'ylab  
                  o'zgarganing rost bo'lsin.



Odamzodning osh-nondan  
bordir ko‘p o‘zga dardi,  
Uni bir zum tinch qo‘ymas  
o‘z dardi, o‘zga dardi.  
Vaqt o‘zgardi butkul,  
tun va kun o‘zgaradi,  
Mudroqlarni uyg‘otgil,  
uyg‘otgil o‘zgalarni,  
Uyqung qochib kechalar  
to‘lg‘anganing rost bo‘lsin,  
Rost bo‘lsin uyg‘onganing,  
o‘zgarganing rost bo‘lsin.

Bahor kelmish olamga –  
kentlar, shaharlargacha,  
Oltoy kengliklari-yu  
barslar, arxarlargacha,  
Binafsharang shomlardan,  
zangor saharlargacha,  
Hirotdan to Tojmahal,  
O‘tror, Qashqarlargacha –  
Tiriklikka, bahorim,  
so‘z berganing rost bo‘lsin,  
Jabrdiyda jahonim,  
o‘zgarganing rost bo‘lsin.

Olmonmisan yo arab,  
Ovropomi, Osiyo,  
Ko‘rgandir eski dunyo,  
ko‘rmoqda yangi dunyo.

Irfon o‘qiysanmi yo,  
doston to‘qiysanmi yo,  
Qur’onni xatm aylab,  
taratgaysan nur, ziyo.  
Porloq ilm-u irfonga  
amaling ham mos bo‘lsin,  
Muslimsan yo nasroniy –  
o‘zgarganing rost bo‘lsin.

Bir kunlarki, ko‘ngillar  
dunyoga lang ochilar,  
Bahor qaldirg‘ochlardan  
yuborgaydir sovchilar.  
Dunyo – yarmi musofir,  
yarmisi yo‘lovchilar,  
Makkayi Madinada  
duo aylar hojilar.  
Duolaring Termiziy  
bobolarga xos bo‘lsin,  
Hadislarin o‘rganib  
o‘zgarganing rost bo‘lsin.

Olamga qo‘sh uyg‘onish  
zamonini bergan xalq,  
Yulduzlarni kashf etib,  
osmonini bergan xalq.  
Ibrohimbek, Qodiriy,  
Cho‘lponini bergan xalq,  
Ikki yuz ming yetimga  
jon-jonini bergan xalq,

G'alaba bog'iga bor –  
o'ngarganing rost bo'lsin,  
Sobir Rahimga boqib  
o'zgarganing rost bo'lsin.

Marg'ilon bog'larida  
dilni o'rtaq, nolakor,  
Ma'murjon hofizlaring  
kuylar to hanuz zor-zor.  
Gulga g'arq Qo'qonlarda  
Usmon Nosir ruhi bor,  
Gulday ketgan bolangni  
yo'qlab kelmishdir bahor,  
Necha bor, nechanchi bor  
o'rtanganing rost bo'lsin,  
Shoiringni yod aylab  
o'zgarganing rost bo'lsin.

Bu millat necha bora  
yakkalandi, toqlandi,  
So'roqlandi necha bor,  
necha bor o'roqlandi.  
Tarixni yaratgan xalq  
tarixdan yiroqlandi,  
Nomingni qaro qilgan  
oq paxtang ham oqlandi,  
Dasht-u dalalaringda  
laylak, turna, g'oz bo'lsin,  
Ey dashtim, ey, qir-dalam,  
o'zgarganing rost bo'lsin.

Ustoz aytganday men ham  
                  egatlar aro o'sdim,  
Senda ham savod yarim,  
                  menda ham yarim, do'stim.  
Qolmish paxtazorlarda  
                  ne daholarim, do'stim.  
Men shu qutlug' kunlarda  
                  faxrga to'lib ko'ksim,  
Aytay ona xalqimga:  
                  kuylaring mumtoz bo'lsin,  
Armonlaring ushalib,  
                  o'zgarganing rost bo'lsin.

Mehribonlik uylari –  
                  mehrdir bu, qadriyat.  
Har o'g'il-qiz ko'zida  
                  ming orzu, ming xil niyat.  
Insoniylik maktabi –  
                  shundadir ma'naviyat,  
Bunda – Vatan ulg'ayar,  
                  Vatan topgay tarbiyat.  
Mehr-u saodatlarga  
                  chulg'anganing rost bo'lsin,  
Ey ko'ngil, bir lahzada  
                  o'zgarganing rost bo'lsin.

O'kuzdaryo mavjlarin  
                  satrlarga joylagan,  
Nukusda so'z o'ynatsang,  
                  Bo'zatovda – oy lagan.

Bu kunlarni orziqib  
oylar, yillar poylagan,  
Rishtayi jonlarini  
ispandiga<sup>1</sup> boylagan,  
Mo'ynoqday qo'rg'onlaring  
elga iqtibos bo'lsin,  
Qoraqalpoq elimsan,  
o'zgarganing rost bo'lsin.

Dunyoda tinchlik bo'lsin,  
xabar kelsin yellardan,  
O'g'lonlaring sog'-omon  
qaytsin olis ellardan,  
Sog'inchlaring tarqalib,  
g'ubor ketsin dillardan,  
Og'amdirsan, singlimsan –  
bol tomibon tillardan,  
To'ylarida so'yganing  
qo'chqor-u novvos bo'lsin,  
Bir elga oshlar berib,  
o'zgarganing rost bo'lsin.

Men – shoiri zamonman,  
zamon mendan so'z so'rar,  
“Afrosiyob” poyezdiday  
mendani oldin so'z yurar.  
Ko'zlarimdan ham avval,  
mendani ildam so'z ko'rar,  
So'zlar kerak zamonday  
shiddatkor ham tezyurar.

---

<sup>1</sup> Ispand, xazorispand – isiriq.

El dardiga to har she'r  
    hamdard-u hamroz bo'lsin,  
Ey sozim, ey ovozim,  
    o'zgarganing rost bo'lsin.

Ona yurtim, qalbimning  
    mangu ohanrabosi,  
Boshingga qo'nmish bukun  
    toj-u davlat Humosi.  
Xalq bilandir, el bilan  
    yurtning nash'u namosi,  
Shunday dedi el-yurtga  
    mamlakat Rahnamosi:  
Xalqim, ro'yi jahonga  
    yuz burganing rost bo'lsin,  
O'zgarganing rost bo'lsin!  
    O'zgarganing rost bo'lsin!

## JAMIYATIMIZNING YUKSALISH BAXTI

Har bir davrning o‘z ruhi bo‘ladi. Bugungi zamon ruhi inson qad-rini, o‘zaro hurmat va azaliy qadriyatlar falsafasini o‘zida mujassam etgan. E’tibor berib qarajak, Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar yuk-sak e’zoz topib, oilalar farovonligi har tomonlama ta’minlanayot-ganini ko‘ramiz.

Yaqinda tog‘li qishloqning birida bo‘ldik. Buloqlardan hosil bo‘lgan soyning ikki qirg‘og‘ida joylashgan oddiy uylar sivilizatsiya nafasini yashirib turgandek. Shunday uylardan biriga kirib, yashash sharoiti bilan tanishdik.

Kir mashina, muzlatkich, konditsioner, changyutkich, minipech, suyultirilgan gaz balloni, xullas, bir ro‘zg‘or uchun nima kerak bo‘lsa, bari muhayyo. Mana Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar siyosatiga, xususan, qishloq ayollariga qaratilayotgan e’tibor mahsuli.

Shunda Prezidentimizning 2017-yil aprel oyida Samarqand viloyatiga tashrifi chog‘ida aytgan bir gapini esladim. Davlatimiz rahbari zamonaviy changyutkichlar ishlab chiqaradigan “Coven Elektro” mas’uliyati cheklangan jamiyatida bo‘lganida, oilalar maishiy texnikalar bilan ta’minlangani ayollar turmush darajasi asosiy ko‘rsatkichlaridan biri ekanini ta’kidlagan edi.

Bu, bir qarashda oddiy eshitiladi, lekin teran mulohaza bilan yondashsak, zamirida nihoyatda katta ma’no, ko‘p yillik orzu-istaklar mujassam ekanini sezish mumkin.

Bir tasavvur qilaylik, o‘sha yillardagi qishloq ayollarining orzu-umidlari qanaqa edi? Biz ham, avvalo, ayolmiz, onamiz, uyda farzandlar tarbiyasi, ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanamiz. Shu bois

xotin-qizlarning o'y-fikrlari – o'zimizniki. Xullas, bundan olti yil avval qishloq ayoli farzandini bog'chaga yuborishni o'ylamas, hatto orzu qilmas edi.

Bugun esa olis qishloqlarda ham bog'chalar ish boshlaganini alohida mamnuniyat bilan aytishimiz kerak. Bu Yangi O'zbekiston tarixiga katta oltin harflar bilan bitib qo'yiladigan voqelik bo'ldi. Negaki, shu paytgacha millat bolasiga bu qadar keng qamrov bilan e'tibor qaratilmagan.

Agar tarixga nazar solsak, aytaylik, Nurotaning Oqtov yonbag'ridagi qishloqlarda hech qachon bog'cha bo'lmagan, bu haqda o'ylanmagan ham. Bugun shu tog'li qishloqlarda ham bog'chalar ochilayotgani kimni quvontirmaydi, deysiz.

Yaqinda Oqtov bag'ridagi qishloqlardan birida tug'ilib, bugun Toshkentda ijod qilayotgan shoir tanishimiz bilan suhbatlashib qoldik. "Ota-onamdan hol-ahvol so'ramoqchi bo'lib telefon qilsam, kelinimiz oldi. Nevaralar katta bo'lyaptimi, desam, "kattasi maktabgacha tayyorlovga boryapti, kichigi bog'chada", deydi. Hayron bo'ldim, so'ng hayratimni yashirolmadim: nima, bizning qishloqda ham bog'cha ochildimi?!" deydi u.

Endi bu yangilikning ijtimoiy ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo, qishloq ayolining ko'ngli to'q yashay boshlaganini tahlil qilsak yarashadi. Yangi islohotlar davrigacha qishloq ayollarining yuzida buyuk qayg'u zohir edi. Ertaga farzandi kim bo'ladi, qanday o'qiydi, oliy ma'lumot oladimi, yo'qmi yoki shu chang-u g'ubor ko'chalar bilan qorishib yashaydimi? Shu kabi og'riqli savollar ota-onalar yuragini ezib kelgan. Umidsiz kayfiyatda esa hafsalasiz tarbiya muhiti paydo bo'ladi. Bu – millatni inqirozga yetaklovchi, qashshoqlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri.

Bugun boshqacha. Qishloq ayoli yuzida zo'r umid uyg'onganini, kelajakka ishonchi ortganini ko'rasiz. Bu birgina maktabgacha ta'lim tizimining hayotbaxsh natijasi.



Aslida, o'tgan besh-olti yilda xotin-qizlarning hayotini tubdan yaxshilash, ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini ta'minlash borasida juda katta, misli ko'rilmagan tarixiy islohotlar amalga oshirildi. Ayolni e'zozlash, og'irini yengil qilish, hayot yo'llarida hamisha tirkak bo'lish umummilliy vazifaga, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Xotin-qizlarning huquq va manfaatini muhofazalash, onalik va bolalikni asrash, ehtiyojmand aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, bandlikni ta'minlash, xotin-qizlar ta'lim olishi va o'z iste'dodini namoyon etishi uchun zarur sharoit yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bunga misoldir.

Tabiiyki, yorug' kelajakni ko'zlab amalga oshirilayotgan bunday ezgu ishlar qisqa muddatda o'z samarasini bermoqda. Opa-singillarimizning jamiyatda faolligi tobora ortib borayotgani, gender tenglik borasida erishilayotgan natijalar buning isboti.

Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu boradagi ezgu ishlar davomiyligini ta'minlash va yangi bosqichga ko'tarishda muhim dasturulamal bo'lmoqda. Ayni paytda mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tizimli ishlar olib borilyapti.

Bu jarayonda, avvalo, sohadagi ishlarning huquqiy asoslari takomillashmoqda. Shu paytga qadar 10 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi va ijroga qaratildi. Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida vazirlik va idoralar bilan hamkorlik memorandumlari va qo'shma dasturlar imzolandi. Bu yo'nalishda amaliy ishlar boshlab yuborildi. Bugungi kunga qadar mahalla xotin-qizlar faollari tomonidan fuqarobay olib borilgan o'rganishlar natijasida 479 ming 496 muammo qayd qilinib, ularning 318 ming 492 tasi hal etildi.

Xotin-qizlarning ta'lim olishi, iqtidorini ro'yobga chiqarish maqsadida xotin-qizlar.uz platformasi yaratilib, ushbu tizim orqali ehtiyojmand oilalardagi ilmga intilgan xotin-qizlarning 35 ming 89 nafariga tavsiyanoma berildi. Mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlarni imtiyozli asosda davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish maqsadida belgilangan mezonlar asosida 28 ming 664 nafari oliy o'quv yurtida o'qishga tavsiya etildi.

## **Baxti bekam, iqboli gulgun ayollar**

Ilgari qishloq ayoli haqida gap ketganda, sahardan shomgacha talabada mehnat qilib kosasi oqarmagan, qo'li qadoq jafokash insonni tasavvur qilardik. Yoki ro'zg'or yumushi bilan band bo'lib, hatto o'z sog'lig'i haqida qayg'urishni ham unutgan ojiza qiyofasi o'z oldimizda gavdalanardi. Bugungi tasavvurlarimiz esa butunlay boshqacha. Avvalo, qishloq hududlarini obod qilish borasida amalga oshirilayotgan muhim chora-tadbirlar samarasida qishloq ayollari shahardan kam bo'lmagan sharoitda yashash va mehnat qilish imkoniga ega bo'lmoqda.

Qishloq joylarda ham zamonaviy andazalar darajasida namunaviy uylar barpo etildi. Toza ichimlik suvi tarmoqlari tortildi. Ilgari huda-behuda o'chib qoladigan elektr energiyasi ta'minoti yil sariqin yaxshilanyapti. Aholi zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatidan samarali foydalanmoqda. Internet tarmog'i orqali dunyoning istalgan joyida ro'y berayotgan yangiliklardan voqif bo'lmoqda. Shu bilan birga, ta'lim olish, kasbi bo'yicha malaka oshirish imkoniga ega. Qishloqlarda ham tadbirkorlikning turli

yoʻnalishlari rivojlanmoqda. Ayniqsa, tomorqadan unumli foydalanib, oila daromadini oshirish imkoniyati kengayayotir.

Chekka hududlarda yashayotgan xotin-qizlarni kasb-hunarga, tadbirkorlikka yoʻnaltirish qoʻmitamiz faoliyatining ham muhim yoʻnalishidir. Bu borada joriy yilning oʻtgan davrida “Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari”ning 159 ta filiali tashkil etildi. Bugungi kunga qadar ular tomonidan jami 75 ming xotin-qiz oʻqitildi. Markazlar faoliyatini tashkil etish uchun Oila va xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash maqsadli jamgʻarmasi tomonidan 5,8 milliard soʻm moliyalashtirildi.

Aholi orasida tadbirkorlikni rivojlantirish, kambagʻallikni bartaraf etish borasidagi ishlar opa-singillarimiz hayotiga ham maʼno-mazmun olib kirdi. Bugungi kun ayollari davlatimiz tomonidan yaratilayotgan har bir imkoniyatdan oqilona foydalanib, roʻzgʻoriga baraka olib kirishga intiladi. Bu jarayonda ularga mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollari koʻmak berib kelayotir.

Bandlik markazlariga murojaat qilgan va uyma-uy yurish davomida aniqlangan 380 ming 236 ishsiz xotin-qiz roʻyxatga olinib, aksariyatining bandligi taʼminlandi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida boʻlgan 89 ming 782 xotin-qiz tadbirkor sifatida davlat roʻyxatidan oʻtkazildi. Bugungi kunga qadar ular tomonidan 173 ming 165 yangi ish oʻrni yaratildi.

Qariyb 90 ming ayolga oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida jami 1 trillion 866 milliard soʻmdan koʻproq imtiyozli, 85 ming 32 nafariga esa tijorat banklari mablagʻlari hisobidan 2 trillion soʻmdan ortiq kredit ajratildi.

Xotin-qizlar bandligini taʼminlashda Samarqand shahri misolida “Bir hunarmand ayolga – oʻnta shogird” loyihasi amalga oshirildi va uning natijalari asosida ushbu loyiha boshqa hududlarda

ham joriy etildi. Loyiha doirasida hududlarda 30 ming 800 dan ziyod ishsiz xotin-qiz va 7941 hunarmand ayol aniqlanib, ularning 21 ming 601 nafari hunarmand ayollarga shogird sifatida biriktirildi hamda 5278 nafari o‘zini o‘zi band qilishga jalb etildi.

Oqila opa-singillarimizning hayoti farovonligini oshirishga oid bunday xayrli ishlarda davlat va nodavlat tashkilotlar qatori xalqaro tuzilmalar ham ko‘mak berayotgani quvonarli, albatta. BMT Aholishunoslik jamg‘armasining O‘zbekistondagi vakolatxonasi ana shunday yaqin hamkorlarimizdan biri. Ular bilan hamkorlikda Mo‘ynoq, Bo‘zatov, Qo‘ng‘irot tumanlarida “Ayollar daftari”ga kiritilgan qizlarni tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha seminar-trening o‘tkazildi. Unda qatnashgan 250 xotin-qizdan 10 nafarining biznes rejasi moliyalashtirildi. Ayni paytda, ushbu jamg‘armaning 383 ming AQSH dollari miqdoridagi mablag‘i hisobidan chegara oldi hududlardagi qishloq ayollarining biznes loyihalari bosqichma-bosqich moliyalashtirilmoqda.

## **Salomatlik – bebaho boylik**

Ayol qachon baxtli bo‘ladi, qachonki, o‘zi va farzandlari, yaqinlari sog‘-salomat bo‘lsa. Sog‘lom bo‘lishning esa omillari ko‘p. Ulardan eng muhimi malakali birlamchi tibbiy-profilaktika xizmatidan foydalanish imkoniyatidir. Prezidentimiz tomonidan belgilangan birlamchi tibbiy xizmatni aholiga yaqinlashtirish va ular tarmog‘ini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosi doirasida 2022-yilda 105 ta oilaviy shifokor punkti va 31 ta oilaviy poliklinika, shuningdek, 1002 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etilishi belgilangan edi. 2022-yilning 9 oyida bu yo‘nalishda 81 ta oilaviy shifokorlik punkti, 25 ta oilaviy poliklinika, 1002 ta mahalla tibbiyot punkti

tashkil etildi. Natijada 3,5 million aholiga birlamchi tibbiy xizmat yaqinlashtirildi.

2022-yil yakunigacha hududlarda yana 30 ta oilaviy poliklinika, 298 ta mahalla tibbiyot punkti faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Buning natijasida qo‘shimcha 700 ming aholiga birlamchi tibbiy xizmat yaqinlashtiriladi.

O‘z navbatida, qo‘mitamiz tizimida ham bu yo‘nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xonadonlarda sog‘lom turmush tarziga rioya etilishi bo‘yicha “Xonadon gigiyenasini baholash” elektron platformasi yaratildi. 2 million ayol onkoskrining tekshiruvidan o‘tkazildi va kasallik aniqlanganlar sog‘lomlashtirishga jalb qilindi. Oilalarimiz farishtasi bo‘lgan mehribon buvijonlarimiz salomatligi muhofazasi ham e‘tibordan chetda qolmayapti. Jumladan, hozirgacha qariyb 650 ming onaxon chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi, 12 ming 178 nafarining sanatoriylarda davolanishi tashkil etildi, 7989 nafariga reabilitatsiya vositalari taqdim etildi.

Aholining ehtiyojmand qismi ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida 208 ta tuman (shahar)da 17 ta vazirlik va idoralar mas‘ullaridan iborat tarkibda Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni joriy qilish shtablari tashkil etildi. Farg‘ona viloyati misolida mahallada ijtimoiy xizmatlarning yaxlit tizimini yaratish maqsadida “Oila balansi” namunasi yaratildi.

Xotin-qizlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasida mahallalarda 9200 ta sport to‘garagi tashkil qilindi. Bunda stol tennisi, badminton, basketbol, shaxmat, shashka to‘garaklarini yo‘lga qo‘yish uchun jami 7,3 million so‘mdan ziyod subsidiya mablag‘lari ajratildi. Shuningdek, xotin-qizlar o‘rtasida, mehnat jamoalarida sport festivallari o‘tkazildi.

## “Ayollar daftari”ning imkoniyatlari

Prezidentimizning har bir islohoti zamirida, avvalo, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib sharoit yaratish, muammolarini hal etish g‘oyasi mujassam. Davlatimiz rahbari odamlarning hayotdan rozi bo‘lib yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratish bosh maqsadimiz ekanini bot-bot ta’kidlaydi. Islohotlar butun xalqimizga, barcha ayollarimizga yetib borishi va yaratilgan imkoniyatlardan qishloq ayoli ham, shahar ayoli ham birdek bahramand bo‘lishi lozimligi ko‘p bor uqtiriladi.

Qishloq ayolining hayot tarzini yuksaltirish borasida BMT Global kun tartibining 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun belgilagan Barqaror rivojlanish maqsadlarida e’tibor qaratilgan va bu yo‘nalishda o‘zimizning milliy maqsad va vazifalarimiz aks etgan hujjatlar ham talaygina. Shuningdek, hozirda qishloq joylarida oilalarga sharoit yaratish, chekka joylarda infratuzilma va maishiy hayot tarzining yuqori saviyada bo‘lishini ta’minlash borasida alohida dasturlar, moliyalashtirilgan loyihalar yo‘naltirilmoqda.

Shahar va qishloqdagi maishiy hayot tarzi o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirish borasidagi islohotlarni jadallashtirishda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari, “Ayollar daftari” kabi ijtimoiy loyihalar ham o‘z samarasini beryapti. Buning natijasida qishloq ayolining maishiy hayot tarzi shahar ayolining hayotidan kam bo‘lmayligini ta’minlashga zamin yaratmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qolaversa, “Ayollar daftari” yuritilishi, avvalo, hech bir ayolning e’tibordan chetda emasligiga isbot. “Ayollar daftari”da, eng avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar manfaati birlamchi hisoblanadi. Shu bois, daftarga kiritilganlarning katta qis-

mi qishloq ayollari ulushiga to'g'ri keladi. Ular uchun bo'sh ish o'rinlari yaratishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, noan'anaviy ekinlar yetishtirish, tomorqa yerlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, issiqxonalar tashkil etish, chorvachilikni rivojlantirish yo'nalishlaridan foydalanish nazarda tutilgan.

“Ayollar daftari” vositasida ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo'lgan ishsiz ayollarga yordam ko'rsatiladi. Bu tizim har bir fuqaro uchun shaxsiy istaklarini davlat va hokimiyat tuzilmalariga o'z ovozi bilan aytish imkoniyati hisoblanadi.

“Ayollar daftari” boquvchisini yo'qotgan, zimmasiga oilani boqish va tirikchilik yuki tushgan, farzandlariga ham otalik, ham onalik mehrini berayotgan, xo'jalik yuritishning og'ir mas'uliyati ostida ezilgan, surunkali kasallik bilan og'rigan ayollarimiz, opa-singillarimizning og'ir yukini yengillashtirmoqda.

Daftarga ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar ehtiyojidan kelib chiqib kiritiladi. Hozirda respublikamiz bo'yicha “Ayollar daftari”dagi 644 ming 849 xotin-qizdan 598 ming 794 nafariga turli yordam ko'rsatildi. Xususan, 207 mingdan ziyod xotin-qiz ishga joylashtirildi, 38 ming nafariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun imtiyozli kredit ajratildi, 160 mingdan ko'prog'iga bir martalik moddiy yordam berildi. Shundan 3742 ayolning uy-joyi ta'mirlandi. 1- va 2-guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlardan 115 ming 937 nafariga moddiy va tibbiy yordam ko'rsatildi. Ehtiyojmand xotin-qizlarning 2 ming 170 nafari uy-joy bilan ta'minlandi, 6 ming 100 nafariga ijara kompensatsiyasi to'lab berildi. Tomorqadan unumli foydalanish uchun ham amaliy va moddiy yordam ko'rsatilyapti.

## **Gender tenglik – farovonlik asosi**

Gender tenglikni ta'minlash barqaror rivojlanishga erishishning muhim shartidir. Shu bois, so'nggi yillarda jamiyatda bu masalaga e'tibor kuchaydi. Sohada ishlarni tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asoslari takomillashtirilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish qo'mitamiz faoliyatining ham muhim yo'nalishi. Shu maqsadda izchil ish olib borilmoqda. Jumladan, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini keng targ'ib qilish uchun gender masalalari bo'yicha 140 trener hamda 28 ta targ'ibot guruhi shakllantirildi.

“Gender-madad” elektron huquqiy maslahat platformasi hamda uning mobil ilovasi ishga tushirildi. Ularga “Ayollar huquqiy himoyasi”, “Gender tenglik”, “Ayollarga imtiyozlar”, “Oilaviy munosabatlar” va “Oilaviy zo'ravonlik” kabi huquqiy mavzularga oid ma'lumotlar bazasi joylashtirildi hamda huquqiy maslahatlarni onlayn chat orqali berish tizimi yo'lga qo'yildi.

## **Maqsadimiz – illatning ildizini qirqish**

Bugungi kunda hayotimiz farishtasi bo'lmish opa-singillari-miz baxtli va to'kis hayot kechirishi uchun davlatimiz tomonidan barcha sharoitlarni yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shubhasiz, bu ishlarning samarasi hayotimizda doimo bo'y ko'rsatib turadi. Opa-singillarimizning baxtli hayoti, shon-shon chehrasi, ulkan manzillarni ko'zlagan gulgun nigohlari buning tishonasi. Biroq ahyon-ahyonda bo'lsa-da, bu shodumonlikka soya soladigan holatlar ham uchrab turadi. Oilada, jamiyatda ayolga nisbatan ro'y berayotgan zo'ravonlik, tahdid buning isboti.



Bunday holatlar qonunlarimizga ham, milliy qadriyatlarimizga ham, mentalitetimizga ham butunlay ziddir. Shu bois, shunday holatlar ro‘y bersa, jamoatchiligimiz orasida jiddiy aks sado beradi.

O‘z navbatida, bu illatga qarshi kurashish davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan. Milliy tajriba va xalqaro andazalar asosida qonuniy asoslar yaratilib, amaliy ishlar olib borilyapti. Jumladan, joriy yilda shu maqsadda hamkor vazirliklar bilan birgalikda umumta’lim maktablarida huquqiy madaniyatni yoshlikdan shakllantirish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv dasturi, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar bilan ishlashga oid o‘quv materiallari ishlab chiqildi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka murossasizlik munosabatini shakllantirish, huquqiy nigilizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik hissini kuchaytirish maqsadida mahallalar va tashkilotlarda qator tadbirlar o‘tkazildi. Chekka hududlardagi mahallalarda istiqomat qiluvchi ayollarga ijtimoiy reabilitatsiya qilish xizmatini kengaytirish maqsadida 28 ta hududiy va namunali tumanlararo markazlar qoshida 181 ta “Ijtimoiy maslahatxona”lar tashkil etildi. Ushbu markazlar orqali 5000 dan ziyod xotin-qizga maslahat va tavsiyalar berildi.

Jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan va ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan xotin-qizlar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida ish olib borilyapti. Mahallalarda xotin-qizlar va ularning yaqin qarindoshlari o‘rtasida olib borilgan tushuntirish ishlari natijasida 249 ming 993 migrant xotin-qiz o‘z uyiga qaytarildi. Maqsad – ayollar va oila taqdiriga soya solayotgan salbiy illatlar oldini olish, oilalarda tinchlik, totuvlik muhitini yaratish. Bu yo‘nalishdagi ishlar izchil davom etadi.

## Xulosa

Hech kimga sir emaski, qishloq ayolining mehnati shahar ayolining nisbatan biroz mashaqqatli. Hatto rivojlangan davlatlarda ham qishloq ayollari uy ishlaridan ortib dalada, tomorqasida, nisbatan og'irroq ishlarda mehnat qiladi, farzandlarini mehnatga o'rgatadi. Qishloq ayolining, ta'bir joiz bo'lsa, maosh to'lanmaydigan ishlari ko'p. Shuningdek, qishloqlarda ishsizlik, gender tengligiga amal qilmaslik, infratuzilma yetarlicha rivojlanmagani kabi muammolarga nisbatan ko'proq duch kelinadi. Shunday ekan, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to'la ro'yobga chiqarish uchun, avvalo, qishloqlarda yashayotgan ayollarning hayotini yanada yengillashtirish, muammolariga yechim topish, orzu-umidlari ro'yobga chiqishiga ko'maklashish jamiyat oldidagi muhim vazifa bo'lib qolaveradi.

Tabiiyki, bu masala mamlakatimiz uchun ham muhim. Chunki yurtimiz aholisining qariyb yarmi qishloqlarda istiqomat qiladi. Shu bois, qishloq aholisi turmush farovonligini oshirishga oid ishlar yildan yilga takomillashib boradi.

Bir so'z bilan aytganda, dunyoda xotin-qizlar siyosatini olib borish yo'lida "O'zbekiston tajribasi" bo'y ko'rsatdi. Qiyosi yo'q bu tizim davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Adolat va kuchli ijtimoiy siyosat xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

## **“YOSHLAR DAFTARI” – ORZU-NIYATLAR IJOBATI**

O‘tgan yili maktabni a’lo baholarga tamomlab, Namangan davlat universitetiga o‘qishga hujjatlarini topshirgan Xumora Inomovaga talaba bo‘lishi uchun bir necha ball yetmadi. Tengdoshlari kabi oliy o‘quv yurtiga kirib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lishni orzu qilganidanmi, biroz tushkunlikka tushdi. Bir tomondan, oilasidagi sharoitni o‘ylab, ish topish haqida bosh qotira boshladi. Ammo qo‘lida biror hunari yo‘qligidan xayoli yanada parishon bo‘ldi.

Shunday kunlarning birida u yashaydigan O‘zak qishlog‘ining aholi bilan tizimli ishlashga mas’ul kishilari kelib, Xumora ni “Yoshlar daftari” ro‘yxatiga kiritib ketdi. Oradan hech qancha o‘tmay, yana o‘sha insonlar eshik qoqdi. Unga Yangiqo‘rg‘on tumanidagi “Xadikent kelajak tongi” agrofirma hududidan 20 sotix yer ajratib, besh yil davomida bepul, hech qanday soliq to‘lovlarisiz foydalanish mumkinligini aytishganida, yangilikdan quvonib ketdi. U, ayniqsa, endi o‘zi mehnat qilib, ro‘zg‘or tebratishda ota-onasiga ko‘maklashishidan xursand edi.

Ekin ekish ishlari hali boshlanmagan bo‘lsa-da, Xumora bu yerda kartoshka yetishtirishni rejalashtirgan. Hovlisidagi 8 sotixli tomorqada kartoshka yetishtirib kelingani sababli, uning dehqonchilikdan xabari bor. Ota-onasi anchadan buyon ishsiz. Onasi “Ayollar daftari” ro‘yxatida turadi. Shu bois, oilaning asosiy tirikchiligi daromad manbayi shu tomorqadan.

– Mahalladan bizning oilaviy sharoitimizni tushunib, yer ajratishganidan juda quvondim, – deydi Xumora Inomova. – Bu yerda kartoshka ekishni o‘ylayapmiz. Bundan tashqari, uyimizda chorvachilikni yo‘lga qo‘ymoqchimiz. Kredit olish uchun murojaat qilganimda, avval bepul o‘quv kursini tamomlab, sertifikat olishimni aytishdi. Yangiqo‘rg‘on tumanidagi markazda to‘qqiz kun o‘qib, bu borada boshlang‘ich bilim va zarur tavsiyalarni oldim. Shundan keyin biznes-reja tayyorlab, 33 million so‘m pul krediti olish uchun bankka hujjatlarni topshirganman.

O‘tgan yilning 18-fevral kuni Prezidentimizning Yangiqo‘rg‘on tumani Iskovot qishlog‘iga tashrifi chog‘ida Xumora davlatimiz rahbari bilan uchrashgan paytda o‘z orzulari haqida gapirib berar ekan, oliy o‘quv yurtida o‘qish niyati qat’iy ekanini bildirdi. Shunda Prezidentimiz Xumoraning, albatta, oliy ta’lim muassasasida tahsil olishini aytib, “o‘zingizni o‘qishga kirdim, deb hisoblayvering” deganlarida qizning quvonchdan boshi osmonga yetdi. U bugun o‘ziga bildirilgan katta ishonchni oqlash maqsadida tinimsiz o‘qib-izlanmoqda.

Universitetga o‘qishga kirgunga qadar esa, daladagi ishlarni yo‘lga qo‘yib, oilaga qo‘shimcha daromad olib kirishni maqsad qilgan. Aslida uning niyati boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lish. Dehqonchilik borasida ko‘zlagan marralari ham bu orzusidan kam emas.

## **Yerlar tayyor, ekin ekilsa bo‘lgani**

Ana shunday tirishqoq yoshlar yurtimiz kelajagi ekani haqida avval ham ko‘p gapirardik. Turli sohalarda muvaffaqiyatga erishgan yigit-qizlarni e’tirof etardik. Ahyon-ahyonda yutuqlar ortidagi

mashaqqatlarni yodga olardik. Ammo shu vaqtga qadar yoshlarning muammolari “mahallabay” tarzda, uyma-uy, manzilli o‘rganilmagan. Nafaqat iqtidorli, balki imkoniyati cheklangan, nochor oilalar farzandlarini qo‘llab-quvvatlash, ish bilan band qilish, tadbirkorlikka yo‘naltirish, buning uchun kredit, subsidiyalar ajratish bo‘yicha bugungidek izchil tizim yo‘lga qo‘yilmagandi. Natijada yuzlab, minglab yigit-qizlarimiz ish izlab chet davlatlarga ketdi, o‘z arava-sini o‘zi tortishga majbur bo‘ldi.

Bugun xorijda og‘ir sharoitlarda ishlayotgan yoshlar ham yurtimizga qaytyapti. Kasb-hunarga o‘qitilib, sohalarga yo‘naltirilyapti. O‘z qishlog‘imda yashab, dehqonchilik qilaman, degan yigit-qizlarga hududlar imkoniyatidan kelib chiqqan holda, bir gektagacha yer maydonlari ajratilyapti. Avvallari birovning yerida ishlab, oylik maoshga kun ko‘rgan bu yoshlar bugun o‘z yerida yanada ko‘proq g‘ayrat, shijoat bilan mehnat qilishga tayyor. Oladigan daromadi hisobidan faoliyatini kengaytirish, boshqa tengdoshlari, mahalladagi kam ta‘minlangan insonlarni ham ish bilan ta‘minlashni maqsad qilyapti.

Dehqonchilik bilan shug‘ullanish, bir qaragandagina oson tuyuladi. Jarayonga kirib borgan inson uning mehnatidan tashqari, agrotadbirlarni to‘g‘ri olib borish, ekin ekish va parvarishlash yo‘l-yo‘rig‘ini bilish bilan bog‘liq murakkabliklarga bevosita guvoh bo‘ladi.

Bu borada yoshlarga tirgak bo‘lish maqsadida barcha tumanlarda alohida ishchi guruhlar shakllantirilib, dehqonchilikni qanday yo‘lga qo‘yish, daromadni oshirishda qanday omillarga e‘tibor qaratish lozimligi yuzasidan doimiy maslahatlar berib borilyapti. Bundan tashqari, barcha hududlarda ekinlarni ekishga yer tayyorlash, ekish va agrotexnik tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rgazmali seminarlar tashkil etilmoqda.

Yerlardan unumli foydalanish, yilda ikki marta hosil olish maqsadida ertagi sabzavot, kartoshka va dukkakli eksportbop ekinlarni ekish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgani ham yoshlarga dastlabki ishni boshlab olishlarida ko'mak bo'lyapti. Kichik kooperatsiyalarga birlashtiriladigan yoshlarni esa talab etiladigan urug'lik, yonilg'i, texnikalar bilan ta'minlash, ekin zararkunandalariga qarshi markazlashgan holda kurashishni tashkil etish, yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish ishlarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Ana shunday imkoniyatlar natijasida viloyatda yer olish istagidagi yoshlar orasida qizlar soni ham kun sayin ortib bormoqda. Ayni paytda viloyat tumanlaridan yer olgan 20 mingdan ortiq yoshlarning 6 810 nafarini xotin-qizlar tashkil etayotgani buning tasdig'idir.

### **Tadbirkorlar yoshlarga tirgak bo'lmoqda**

Yoshlarga yer berish ishlari Qashqadaryo viloyatida ham faollik bilan amalga oshirilmoqda. 2018-yildan buyon "Har bir yoshga – bir gektar" loyihasi doirasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar davlatimiz rahbarining joriy yildagi topshiriqlari asosida yanada jadalashdi. Yil boshidan buyon yoshlarning talabi va hudud joylashuvidan kelib chiqib, ishsiz yigit-qizlarga 30 sotixdan bir gektargacha lalmi va sug'oriladigan yerlar ajratilyapti. Bugungi kunga qadar viloyatda yer olgan yoshlar 7 459 nafarni tashkil etib, shundan 5 498 nafari "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolardir. Ularga jami 3 046 gektar yer maydonlari ajratildi.

– Sir emaski, mamlakatimizda so'nggi yillarda yoshlar muammolarini o'rganish, ularni tizimli hal etish borasida "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturi" joriy etilib, ular bilan ishlashning mutlaqo

yangicha tizimi yo‘lga qo‘yildi, – deydi Yoshlar ishlari agentligi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi Abdushukur Yangiyev. – Avval yosh yigit-qizlarga bu qadar keng imkoniyatlar berilmagan. Bugun esa barchamizning ko‘z o‘ngimizda ularga katta-katta yer maydonlari ishonib topshirilyapti. Yerlar yigit-qizlarning istagi asosida kooperatsiya va shartnoma usulida ajratilyapti. Bahor mavsumida bu yerlarga sabzavot va poliz ekinlari ekilsa, takroriy ekin sifatida, asosan, dukkakli ekinlarni yetishtirish tavsiya qilingan. Yoshlar astoydil mehnat qilib, berilgan tavsiyalarni to‘g‘ri olib borsa, albatta, yaxshigina daromadga ega bo‘ladi. Biz jarayonlarni tashkil etishda ularga ko‘maklashishga, zarur maslahatlar berishga doim tayyormiz.

Quvonarlisi, viloyat va tuman hokimliklari hamda sektor rahbarlari tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj va “Yoshlar daftari” ro‘yxatiga olingan yigit-qizlarga urug‘lar va agrotexnika xizmatlarini ko‘rsatishda beminnat amaliy yordamlar ko‘rsatilmoqda. Xususan, Shahrisabz tumanidagi “Paxtakor” MFY hududidan sektor rahbari Olim Tojiyev tomonidan yoshlar uchun 10 gektar yer maydoni ajratilib, “Durdonaxon” navli mosh ekib berildi. Yerning agrotexnik tadbirlari ham amalga oshirilib, yigit-qizlarga ekin ekishga tayyor holda topshirildi. Ana shu yer maydonida ish boshlaganlar orasida hududdagi 13-maktab bitiruvchisi Durdonaxon ham bor. Bolaligidan dehqonchilikka qiziqqan bu qiz istagi ro‘yobga chiqayotgani uchun mas‘ullardan juda minnatdor. Ishga qizg‘in kirishib ketgan Durdonaxon traktor haydashni ham o‘rganib oldi.

“Yoshlar daftari” ro‘yxatiga kirganlar orasida Mirishkor tumanida yashovchi 28 yoshli Mirabbos Ibrohimov ham bor. U chetda ishlash fikridan qaytib, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanishga qaror qildi. O‘ziga ajratib berilgan 25 sotix yer maydonida 500 tup qovoq ko‘chatini o‘tqazdi. Hosil yetilgach, 15 million so‘m daromad olishni ko‘zlagan Mirabbos takroriy ekin sifa-

tida pomidor yetishtirmoqchi. Ana shu tumandagi 23 yoshli Hasan Shodmonov esa 50 sotix yerda o'tkazayotgan pomidor ko'chatlaridan ikki oy ichida 30 million so'm sof daromad olishni niyat qilgan.

3 million 334 ming aholisi bo'lgan Qashqadaryo viloyatining 590 838 nafar 18-30 yoshgacha bo'lgan yoshlarining aksariyati ana shunday kuch-g'ayratga to'lgan. Taqdir taqozosi bilan ishsiz bo'lgan 59 593 nafar yigit-qiz "Yoshlar daftari"ga kiritilgan edi. Ularning bandligi ham bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda. Xususan, joriy yilning shu davriga qadar ish bilan band qilingan 26 289 nafar yoshning 12 755 nafari "Yoshlar daftari"dagi fuqarolardir.

Bugun yurtimizda joriy etilgan "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Temir daftar" kabi ro'yxatlar borligining o'ziyoq odamlarda ertangi kunga umid, yaxshi turmush tarziga ishonch uyg'otmoqda. Xitoy tajribasi asosida qo'llanilayotgan yangicha tizim mam-lakatimizda hech bir inson e'tibordan chetda emasligi, barcha fuqarolarning yaxshi yashashi, ish bilan ta'minlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilayotganidan dalolatdir. Zero, bugungi islohotlar tufayli eng chekka qishloqlarda ham rahbarlar har bir xonadonga kirib, odamlarning, ayniqsa, yoshlarning ahvolini so'ramoqda. ularning muammolariga yechim topishga harakat qilayotgani muvjonlardir.



## **BU SHUNCHAKI RAQAMLAR EMAS...**

O'z uyim – o'lan to'shagim. Xalqimizning purma'no bu naqlini so'zma-so'z sharhlaydigan bo'lsak, birovning uyida yumshoq o'rindiqlarda o'tirgandan ko'ra, bo'yrada o'tirsang ham o'z uying, oilang davrasi yaxshi, degan mazmun kelib chiqadi. Yana ham kengroq talqin qilinganda, har kimga tug'ilib o'sgan yurti, ona Vatani qadr-qimmatli ekani anglashiladi.

Mulohaza qilib ko'rsak, birinchi ma'no ikkinchisini inkor qilmaydi, aksincha, bir-birini to'ldirib, takomillashib, o'zaro uyg'unlikda yanada mukammal mazmun-mohiyat kasb etadi. Zotan, har bir o'zbek, o'zbekistonlik uchun Vatan muqaddas dargoh bo'lsa, o'z uyi, yashash maskani Vatan ichra mo'jaz Vatandir.

### **Inson manfaatlari – kun tartibidagi muhim masala**

Dunyoda davlatlar, xalqlar ko'p, ularning “inson – jamiyat – davlat” munosabatlarini hal etishga yondashuvi ham turlicha. Masalan, AQSHning Bruking's instituti o'tkazgan ijtimoiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, oddiy amerikaliklar odatda AQSH ning o'ziga to'q fuqarolariga nisbatan tovar va xizmatlar uchun ko'proq sarf-xarajat qilishga majbur. Aytaylik, uy-joy sotib olish uchun kreditning yillik to'lov foizlari agar kredit olgan amerikalik kambag'al bo'lsa o'rtacha 6,9 foizni, o'rta tabaqa vakili bo'lsa 6,5 foizni, boy bo'lsa 6 foizni tashkil etadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan aholini uy-joy bilan ta‘minlash borasida yuritilayotgan siyosat bugungi kunda nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda alohida e‘tirof etilmoqda.

Yaqinda Misrning nufuzli ommaviy axborot vositalaridan biri bo‘lgan “Sada El-Balad” gazetasida “O‘zbekiston har bir fuqaroning farovonligi haqida qayg‘uradi” (“Uzbekistan Cares about the Welfare of Every Citizen”) sarlavhali maqola e‘lon qilindi.

“O‘zbekistonda aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, ehtiyojmand oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni manzilli ijtimoiy himoya qilish muhim masalaga aylangani – davlat har bir fuqaro manfaatlari uchun qayg‘urayotganining amaliy tasdig‘idir. Zero, inson qadr-qimmati e‘zozlanadigan mamlakatda farovonlik va eng muhimi, tinchlik hukm suradi”, deyiladi maqolada.

Darhaqiqat, Prezidentimizning xalqchil siyosati tufayli, birinchi navbatda, kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini uy-joy bilan ta‘minlash, ularga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Ahamiyatli jihati shuki, uy-joy qurilishi va ipoteka bozorini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar doirasida quruvchi tashkilotlar ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, ularga pandemiya davrida berilgan imtiyozlar 2021-yil yakunigacha uzaytirildi. Shuningdek, bunday tashkilotlarga Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan uy-joy qurish uchun jalb qilingan kreditlar bo‘yicha 20 milliard so‘mgacha kafillik hamda Markaziy bankning asosiy stavkasidan oshgan qismiga kompensatsiya berilishi yo‘lga qo‘yildi. Davlatimiz rahbari uy-joylar narxi qimmat bo‘lib ketmasligiga alohida e‘tibor qaratmoqda. Uy-joy sotib olish tugul, uning o‘zlashtirish badalini to‘lashga qurbi yetmaydigan yurtdoshlarimiz soni az emas. Shu bois, viloyat va tuman hokimlariga uyning bir kvadrat

metri narxi 4 million soʻmdan oshmasligi uchun barcha zarur choralar koʻrish haqida topshiriq berildi.

Darhaqiqat, daromadi past, uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boʻlgan oilalar, ogʻir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlar, mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan yoshlar va shu toifadagi boshqa shaxslarga ipoteka kreditlari asosida uy-joy sotib olishi uchun boshlangʻich badal yoki kredit foiz toʻlovlarining bir qismini qoplab berish tizimi dunyo tajribasida kam uchraydigan noyob hodisadir.

Tan olib aytish kerak, oʻtgan 25 yil davomida mamlakatimizda aholini uy-joy bilan taʼminlash tizimi oʻzgarmadi. Shaharda bir uyda uch, beshtagacha oila istiqomat qilishi, yer uchastkasi ajratish, qurilishga ruxsat olishdagi qiyinchiliklar, quruvchi va ustalar topish, ularga ish haqi berish, osh-ovqati, qurilish materiallarini ming azob bilan topish va qurilish joyigacha keltirish bilan bogʻliq ovoragarchiliklar odamlarning tinkasini quritardi.

– Ikki xonali uyda uch oila siqilib qolgan edik, – deydi Toshkent shahrida yashovchi Feruza Husniddinova. – Oʻtgan yili uyimizga tuman hokimligidan masʼullar kelib, oilaviy ahvolimizni oʻrgandi. Sizga yangi qurilayotgan uylardan beramiz, deyishdi. Ishonmadim. Sababi, shuncha yildan buyon uyimga biror kimsa kelib, sizga uy beramiz, demagan. Oʻzimiz shuncha harakat qildik. lekin pulimiz yetmadi. Yaqinda Sergeli tumanida yangi qurilgan uylardan biriga koʻchib oʻtdik. Tuman hokimligi yordami bilan uyimizning boshlangʻich toʻlovi ham qoplab berildi. Hozir oilamiz farovon, baxtlimiz. Biz, onalar uchun bundan ortiq nima kerak?! Shunday uylarni qurib bergani uchun Prezidentimizga ming rahmat.

Aholi soni oʻsishi bilan uy-joyga ehtiyoj ham oshishi tabiiy. Shavkat Mirziyoyev Prezident vazifasiga kirishgan ilk kunlardan oq bu dolzarb masalani alohida eʼtiborga olib, odamlarni uy bilan taʼminlash choralari koʻrdi. Davlatimiz rahbarining 2016-yil

21-oktyabrdagi qaroriga ko‘ra, qishloqlarda, o‘sha yilgi 22-noyabrdagi qarori bilan esa shaharlarda arzon uy-joylar qurish bo‘yicha dasturlar qabul qilindi. Ular asosida o‘tgan to‘rt yilda 140 mingta uy-joy barpo etildi.

Agar 2009–2012-yillarda 23,6 ming zamonaviy uy-joy qurilib foydalanishga topshirilganini inobatga olsak, o‘sha paytda uch yilda qilingan ishlardan keyingi bir yilda 2,5 barobar ko‘p uy-joy qurilganini anglatadi.

– So‘nggi uch yilda uy-joy qurilishi dasturiga davlat byudjetidan 15 trillion so‘m ajratildi, – deydi moliya vaziri Temur Ishmetov. – Birgina 2021-yilda salkam 11 trillion so‘m ajratilmoqda. Bu mablag‘larning asosiy qismi tijorat banklariga resurs sifatida 20 yilga joylashtiriladi. O‘z navbatida, banklar bu mablag‘lardan ipoteka kreditlari uchun foydalanadi.

Yana bir ma‘lumot. 2013-yilda 10 mingta uy-joy barpo etilgan bo‘lsa, joriy yilda 54 ming oilani uy-joy bilan ta‘minlash mo‘ljallanmoqda. Shundan “Qishloq qurilish invest” va “O‘zshahar qurilish invest” injiniring kompaniyalari tomonidan 12 mingta uy, Moliya vazirligi tijorat banklariga joylashtiradigan resurslar hisobidan 26 ming 500 ta kvartira, xususiy tadbirkorlar tomonidan qurilayotgan 8 mingta xonadon foydalanishga topshiriladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda yakka tartibdagi uy-joy qurish uchun 500 tagacha, jami 6,5 mingta oilaga kredit beriladi. Bundan tashqari, og‘ir turmush sharoitiga tushib qolgan mingta oila, ayniqsa, ayollarga ijara asosida ijtimoiy uy-joylar ajratiladi.

Hududlar miqyosida aytganda, Qoraqalpog‘istonda 2290 ta, Andijonda 4665 ta, Buxoroda 3220 ta, Jizzaxda 1670 ta, Qashqadaryoda 3710 ta, Navoiyda 1836 ta, Namanganda 4025 ta, Samarqandda 4479 ta, Surxondaryoda 3989 ta, Sirdaryoda 3414 ta, Toshkent viloyatida 4046 ta, Farg‘onada 4530 ta, Xorazmda 3016 ta va Toshkent shahrida 7556 ta uy-joy qurib

bitkaziladi. Bu bilan, bir tomondan, nogironligi bo‘lgan qanchadan qancha shaxslar, yetim bolalar, ko‘p bolali, shuningdek, boquvchisini yo‘qotgan oilalarning samarali ijtimoiy himoya qilinishi ta‘minlanadi. Boshqa tomondan esa uy-joyga ehtiyoji bor, necha yillardan beri bir uyda siqilib yashayotgan yuz minglab oilalarning o‘z uy-joyiga ega bo‘lishiga imkon yaratiladi.

## **Uy-joy bozorini rivojlantirish yo‘lida**

Mustaqilligimizning o‘ttiz birinchi yilida yashayapmiz. Bugun islohotlar odimi sezilarli darajada jadallashib, barcha sohalarda dadil va zalvarli qadamlar tashlanmoqda. Lekin bu bilan cheklanib qolinmaydi. Uyga ehtiyoji bor oilalar hali ham ko‘p. Yana minglab uy-joylar barpo etish, loyiha va qurilish sifatini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlashni hayotning o‘zi talab qilmoqda.

Ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta‘minlash bo‘yicha ishlar ko‘lami yanada kengaytiriladi. Bunda 27 mingta yoki 2020-yildagiga nisbatan 2,5 barobar ko‘p oilaning ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badallarini to‘lash va kredit foizlarini subsidiyalash uchun 2,4 trillion so‘m yo‘naltiriladi.

Keyingi yillarda mazkur yo‘nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyati “ipoteka” degan so‘z, zamonaviy tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Ipoteka nima? U ko‘chmas mulkni garovga olish evaziga beriladigan qarz. Aholi soni o‘sgani sayin uning uy-joyga va bu muammoni hal etishga ko‘maklashuvchi ipoteka kreditiga ehtiyoji ham oshib boraveradi. Bu kreditlar aholining uy-joy muammosini hal etishdan tashqari, xizmat ko‘rsatish, jumladan, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi taraqqiyotiga, qurilish korxonalarining pudrat ishlari bilan ta‘minlanishiga hamda ikkilamchi uy-joy bozori rivojiga ham katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda ipoteka krediti berish tizimini rivojlantirishdan asosiy maqsad mehnatga qobiliyatli aholi tomonidan uy-joy sotib olish imkoniyatlarini yanada kengaytirishdan iborat.

So‘nggi yillarda uy-joyga bo‘lgan talabning oshishi hamda aholini uy-joy bilan ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ipoteka kreditlari hajmi keskin ortishiga sabab bo‘ldi.

Xususan, ipoteka kreditlari qoldig‘i 2018-yil 1-yanvar holatiga 2,7 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yil 1-yanvar holatiga 3 barobar ko‘payib, 28,3 trillion so‘mga yetdi. Shuningdek, ipoteka shartnomalari soni 121,7 ming donadan 238,4 ming donaga yetib, qariyb ikki barobar oshdi.

2017–2020-yillarda jami 220,2 ming fuqaroga umumiy qiymati 25,8 trillion so‘m ipoteka kreditlari ajratilgan. Jumladan, 2020-yilda 77,3 ming fuqaroga 9,1 trillion so‘m miqdorida ipoteka kreditlari ajratilib, ularning soni 2017-yilga nisbatan 2,1 barobar o‘sgan.

– Har yili yangi uylar qurilib, ipoteka krediti asosida uyga muhtaj oilalarga berilayotgani, mubolag‘asiz, xalqimiz orzusidagi ish bo‘lmoqda. Vatanli bo‘lish istagida yashagan insonlarning bunday g‘amxo‘rlikdan qalbi tog‘dek ko‘tarilib, yuragida minnatdorlik hisslari jo‘sh uryapti. Xalqimiz ham “Uyi borning o‘yi bo‘lmaydi”, degan naqlni bejiz aytmaydi, – deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari Aktam Haitov. – Joriy yilda uy-joy berilishi uchun davlat tomonidan ham aholiga, ham quruvchilarga hamma imtiyozlar berilishi, jumladan, ipoteka krediti bo‘yicha olti oylik imtiyozli davr kiritilishi, shaharlarda dastlabki badal miqdori 10 foizdan 15 foizga tushirilishi yangi O‘zbekistonda fuqarolar manfaatini hamma narsadan ustun ekanini, amalga oshirilayotgan ishlar faqat inson manfaatiga qaratilganini amalda to‘liq namoyan etadi.

## **Ipoteka krediti – farovonlik omili**

Shu o‘rinda eslatib o‘tish joiz, 2016-yil 21-oktyabrda O‘zbekiston Prezidentining “2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to‘g‘risida”gi, oradan bir oy o‘tib, 22-noyabrda “2017–2020-yillarda shaharlarda arzon ko‘p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari qabul qilindi. Ya’ni ham qishloq, ham shahar ulkan bunyodkorlik ishlari bilan qamrab olindi. Hamma joyda uylar qurilishi jadal tus oldi.

Mamlakatimizda aholining uy-joyga talabini qondirish maqsadida boshlangan keng qamrovli islohotlar natijasida ipoteka tizimi imtiyoz va qulayliklaridan bahramand bo‘layotgan yurtdoshlarimiz soni tobora ortib borayotir.

Yana bir jihatni alohida e‘tirof etish joiz. Uy-joylar qurilishi uchun davlat tomonidan ham aholiga, ham quruvchilarga katta imtiyozlar berilmoqda. Jumladan, 2022-yilda ipoteka krediti bo‘yicha olti oylik imtiyozli davr kiritildi. Shaharlarda dastlabki badal miqdori 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Past daromadli, uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilalarga 15 foizli dastlabki badalning 10 foizi subsidiya sifatida to‘lab berildi. Ya’ni aholi uy olish uchun dastlabki badalning 5 foizini to‘laydi, xolos.

Bu, bir tomondan, kredit oluvchining qarz yukini kamaytirsada (chunki birlamchi badal qancha katta bo‘lsa, qarz yuki shuncha yengillashadi), boshqa tomondan, yillar o‘tib uy-joylar narxi pasaygan taqdirda ham kredit mablag‘larini qaytarish, demakki, bankni inqirozdan saqlash va yangi mijozlarga ipoteka krediti berish imkoniyatlarini kafolatlaydi.

Kredit olgan aholi uchun foiz to‘lovlarining Toshkent shahrida 12 foizi, boshqa hududlarda 10 foizidan yuqori qismiga subsidiya beriladi.

Boshqacha aytganda, mamlakatimizda uy-joy uchun uzoq muddatli ipoteka krediti berish tizimining vujudga kelishi davrida bu sohada munosabatlarni har tomonlama samarali rivojlantirishni nazarda tutadigan zarur huquqiy va tashkiliy choralar amalga oshirilgani alohida e'tiborga loyiqdir.

Yangi ipoteka tizimi ana shunday ezgu maqsadlar ijobati yo'lidagi, xususan, yosh oilalarga munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarni yaratib berish, ro'zg'orni butlash uchun mablag' va kreditlar bilan ta'minlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlarni tug'dirishga xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda dunyoning turli mintaqalaridagi o'zaro nizo va qarama-qarshiliklar oqibatida keyingi yillarda 60 ta mamlakatda 33 million kishi o'z uy-joyini tark etishga majbur bo'lgani kishini chuqur o'ygatadi. Bu holat oila davrasida, vatan ichra kichik vatani – o'z uy-joyida xotirjamlikda tinch-osoyishta umr kechirish nechog'lik baxt-saodat ekanini anglatadi.



## **QADR TOPGAN QORAQALPOQ ELI BU!**

Bugun barcha ezgu rejalarimizning bemisl shijoat bilan amalga oshayotgani, hayotga tatbiq etilayotganiga guvoh bo'lib turibmiz. Ayniqsa, chekka tuman va qishloqlardagi bunyodkorlik ishlari, obod bo'layotgan go'shalar, aholi uchun yaratilayotgan qulayliklar, imkoniyatlar barchamizga quvonch, g'urur baxsh etadi.

Biz O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi yo'llanmasi bilan davlatimiz rahbari tashrifidan so'ng Qoraqalpog'istonga borib, uzoq yillar davomida ekologik sharoiti og'irroq bo'lgan hudud ahli bilan suhbatlashib qaytdik, bu elning Prezident tashrifidan naqadar shod, xursand bo'lganiga shohid bo'ldik. Shundoq Nukus shahri biqinida joylashgan Chimboy guzarida qisqa fursat ichida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishib, ochig'i, hayratda qoldik. Yaratilgan qulay shart-sharoitlar, amalga oshirilgan obodonchilik ishlaridan ko'ngli to'lgan chimboyliklar, bo'lar ekan-ku, deyishdi.

Maqolamiz ana shu mahalla xususida.

Atigi qirq kun ichida tashlandiq, xaroba ovul go'zal bir shaharchaga do'ndi! Atigi qirq kun ichida ikki mingdan ziyod xonadonga obihayot, zangori olov, nur kirib bordi! Qish osmonida quyosh charaqlagani kabi tund chehralarga shod-u xurramlik, mamnuniyat, adolatga, haqiqatga ishonch balqidi! Odatda, bunday hodisalarni mo'jiza, deb ataymiz. Mo'jizalar esa ertag-u cho'pchaklarda bo'ladi, deymiz. Ammo bizning hikoyat ayni haqiqatdir! Ishonmaganlar Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti Nukus shahri biqinidagi Chimboy guzariga kelib ko'rsin! Bu yerdagi el-ulusdan so'rab-surishtirsin! Qirq kun avval Chimboy guzari qanday ahvolda

edi? Qum uyumlariga ko‘milib yotgan, quyuq yulg‘unzorga, yantoq-tikanlarga burkangan, chala-yarim imoratlardan iborat bir mas-kan edi! Katta bir shaharning shundoqqina qanshari ostida bunday ayanchli, tashlandiq mahalla bo‘lishiga, albatta, birov ishonishi qi-yin. Ammo, afsuski, hammasi rost, achchiq haqiqat!

Ana, yaqindagina barpo etilgan ravon asfalt yo‘l bo‘ylab ke-tayotgan Aybika Jo‘ldas qizi ham hammasiga guvoh! U asli Ke-gayli tumanidan. Bir parcha tomorqasida amal-taqal tirikchilik qilib yurardi... Hamma ko‘rgilik o‘n besh yil avval, mahzun kunlarning birida boshlandi. Eri, usta Nurlan go‘yo xushxabar topib keldi. Nukusning yonginasida odamlarga yer-uchastkalari bo‘lib berila-yotgan ekan, tanish topib qo‘ydim, oz-moz xarajat evaziga bir hov-lilik joy olib beradi, dedi. Erining so‘zlaridan Aybikaning quvonchi ko‘kka o‘rladi. Bir yumalab shaharlik bo‘lib ketish orzusida o‘rtan-di. Kegaylidagi keng-mo‘lgina, biroq suvsizlikdan qavjirab yotgan tomorqa, uy-joy sotildi. Uning puliga o‘zlari reja qilgandek, Nukus biqinidagi Chimboy گزارidan to‘rt sotix yer “gaplashib” olishdi. Chala-yarim xonadon tiklandi. Ne tongki, ular kabi shaharga yaqin bo‘lish ilinjida yurgan odamlar ko‘p ekan. Yer-uchastkalar talash bo‘ldi. Aholi soni tobora orta bordi. Shuning barobarida, barcha or-zular asta-sekin sarobga aylana boshladi.

– Yashashga mutlaqo sharoit yo‘q edi, – deb eslaydi Aybika, – ovuldagidan battar ahvolga tushdik. Yo‘l, ko‘cha deganlari yozda chang-qum, qishda botqoq, shaharga yetib olish uchun avval besh chaqirim yayov yurib, katta trassa bo‘yiga chiqib olishimiz kerak edi. Yo‘l azobidan bezillab qolgandik. Suv, gaz, elektr masalala-rini-ku aytmasa ham bo‘ladi.

Kunlar ketidan kunlar, yillar ortidan yillar o‘tardi. Chimboy گزارi aholisi obodonchilik so‘rab idorama-idora yugurishdi, rah-barlarning eshigini qoqishdi. Lekin hech qanday naf bo‘lmadi. Sal-mosofi bor rahbar va’dani quyuq qildi, ko‘pchiligi esa noumid qay-

tardi. Mahallangiz davlat planida yo‘q, o‘zboshimcha o‘rnashib o‘gansizlar, guzarni yaqinda tekislab tashlaymiz, biznesmenlarga shtamiz, esingiz borida u yerdan tezroq ko‘chib keting, deganlar harbo‘ldi.

Nachora, osmon uzoq, yer qattiq: chimboyliklar og‘ir ahvoldaqoldi, kimdir ko‘chib ketish payiga tushdi, kimdir xo‘rliklarga chadab amal-taqal kun ko‘rishda davom etdi.

– Erim Nukusdan ish topolmadi, Ural tomonlarga ketdi. Biroxastalikka chalinib uch yil avval vafot etdi, – deya ko‘z yoshlar bilan hikoya qiladi Aybika, – uch bolam bilan beva qoldim. Shaharda kosa-tovoq yuvib kun kechirdim. O‘tgan kuzda kasal bo‘lib qoldim.

“Kasalingiz og‘ir, uni dori-darmon bilan tuzatib bo‘lmaydi”, dedi qoldi bir kuni taniqli shifokor. Uning keyingi gaplari Aybikaning qulog‘iga kirmadi. Bo‘g‘imi bo‘shashib, iztirobga tushdi. U do‘xtir huzuridan tezroq chiqib ketishni istardi. Shu bois, mayli, rahmat men bora qolay esa, dedi-yu, otilgudek bo‘lib, xonadan chiqdi. Uyiga kelib ko‘rpa-to‘shak qilib yotib oldi. Kegaylidan kelgan singlis ro‘zg‘origa qarashib turgan bo‘ldi.

– Bir oycha burun, ertalab g‘ala-g‘ovurdan, gurillagan, tarillagan tovushlardan uyg‘onib ketdim, – deb hikoyasini davom ettiradi Aybika, – mahallani chini bilan buzishga kelishdi-yov, degan xayolda tashqariga chiqdim. Qarasam... ko‘cha to‘la amaldor siyoqlar odamlar, turli texnikalar...

Ha, o‘sha tongda Chimboy guzarini obodonlashtirish ishlariga oq fотиha berildi! Yanada to‘g‘riroq ta‘riflaydigan bo‘lsak, Chimboy guzari ham mamlakatimizdagi necha-necha chekka hududlar kabi ulkan bunyodkorlik maydoniga aylanib ketdi.

Albatta, qurilish, ta‘mirlash, obodonchilik ishlarining salmoqli qismi energetika sohasi xodimlari zimmasiga tushishi sir emas. Bu yerda ham “Qoraqalpog‘iston hududiy elektr tarmoqlari” aksionerlik

jamiyatiga qarashli ishchi-xizmatchilar, texnikalar tun-u kun mehnat qildi. 100 donadan ziyod sim ustunlari tiklanib, salkam 50 kilometr masofaga elektr tarmoqlari tortildi, 11 ta transformator qurilmalari oʻrnatildi. Yoʻlsozlarning, suv, gaz taʼminoti korxonalarining xizmatlari ham beqiyos boʻldi. Guzardagi uch mingga yaqin xonadon ichimlik suvi, zangori olov bilan taʼminlandi. Koʻcha-koʻylar, yoʻllar tekislanib, beton, asfalt qoplamalar yotqizildi. Qirq kun avval safarga ketib, nihoyat, uyiga qaytgan chimboylilik kishi oʻz mahallasini, xonadonini taniyolmay qolgan boʻlsa, ajabmas.

– Albatta, bu yerda faqat obodonchilik ishlari bilan cheklanib qolinmaydi, – deydi mahalla faoli Azira Boltabekova, – aholini ish bilan taʼminlash, bandligini yoʻlga qoʻyish borasida ham qator rejalar amalga oshirilmoqda.

Ha, darhaqiqat shunday. Qishin-yozin daromad beradigan qator issiqxonalar qurilib egalariga topshirildi. Koʻpgina xonadonlarga chorva mollari, parrandalar ulashildi. Oʻz tadbirkorlik ishlarini yuritish uchun zarur mablagʻlar bilan taʼminlandi. Ayniqsa, guzar yonida 300 nafar xotin-qizlarni ish bilan taʼminlaydigan tikuv-bichuv korxonasi qad rostlagani barchani quvontirdi. Qahramonimiz Aybika Joʻldas qizi ham mazkur korxonaning qoʻli gul xodimasiga aylandi. Ayni kunda ishchi-xizmatchilarga maxsus liboslar tikish bilan band.

Kuni kecha hudud bilan tanishish, oddiy odamlar bilan dildan suhbat qurish, ulardan hol-ahvol soʻrash maqsadida tashrif buyurgan mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Chimboy guzari aholisi xush kayfiyat, koʻtarinki ruh bilan kutib oldi. Har bir soʻzida elga, yurtga mehr-muhabbat, fidoyilik, ehtirom roʻyrost sekinlab turgan davlatimiz rahbarini qizgʻin olqishladilar. Chunki muhtaram Prezidentimiz Chimboy guzariga tashrif buyurishdan avvalroq Qoraqalpogʻiston Respublikasining qator tumanlarida boʻlgan, u yerlarda qoraqalpoq elining farovon kelajagini taʼminlaydigan,

turmush darajasini yanada oshiradigan qator loyihalar borasida soʻz yuritilgan edi. Jumladan, Beruniy tumanida Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi bilan hamkorlikda shamoʻl elektr stansiyasi qurilishiga tamal toshi qoʻyildi. Mazkur loyiha ishga tushgach, 110 ming xonadonni qoʻshimcha elektr energiyasi bilan taʼminlash mumkin boʻladi. Yiliga 106 million kub metr tabiiy gazimiz tejaladi. Yana bir muhim tomoni, stansiya qurilishida ming nafar qoraqalpoq yoshlari ham qatnashadi. U ishga tushgach esa, yuz nafar malakali muhandis va texnik xodimlar yuqori daromadli doimiy ish bilan taʼminlanadi.

Albatta, bu hali hammasi emas. Davlatimiz rahbari Beruniyda gi nufuzli anjumanda qayta tiklanuvchi energiya manbalari sharo-fatidan kelgusi besh yil ichida uch mingga yaqin yangi korxonalar tashkil etilib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki barobar oshirilishini alohida taʼkidladi. Buning barchasi farzandlarimiz, kelajak avlod manfaati uchun, dedi. Qoraqalpoq eli, jumladan, Chimboy guzari aholisi ushbu olamshumul mujda-lardan behad sevindi. Davlatimiz rahbari bilan oʻz mahallalarida uchrashishgach, dil soʻzlarini, quvonchlarini izhor qilishga sho-shildilar.

– Mahalladagi oʻzgarishlarni, sizlarning ishli boʻlganingizni koʻrib, xursand boʻldim, – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yengil jihozlardan jadal tarzda bunyod etilgan korxonona faoliyati bilan tanisha turib. – Qoʻlida hunari bor ayolning kayfiyati yaxshi, oilasi ham barqaror boʻladi. Bunday ishlarni hali koʻp qilishimiz kerak. Albatta, qiyin boʻladi. Lekin biz bir oilamiz. Birlashib, ham-ma rejalarni amalga oshira olamiz.

Biz bir oilamiz! Yurakdan chiqqan bu samimiy soʻzlar, chim-boyliklarning yuragiga nurdek singdi! Bu ulugʻvor, sermaʼno ibo-raning haroratini, iforini, lazzatini ular oʻz hayotlarida teran his qilib turardilar.

O'sha unutilmas uchrashuvdan shod-u xurram kayfiyatda bo'lgan, shinam, fayzli xonadoni tomon qaytarkan, Aybika Jo'ldasning nogoh o'sha, kasalingiz juda og'ir, uni dori-darmon bilan davolab bo'lmaydi, degan shifokorni uchratib qoldi. Aholini tibbiy yordamdan o'tkazib yurgan ekan. Ayol mag'rur yurib uning yoniga tashlandi.

– Kasaling og'ir, tuzalmaysan, deb aytgandingiz, – dedi Aybika. – Boshim-alikdan so'ng, – mana, butkul sog'ayib ketdim!

Shifokor jilmaydi.

– Siz o'shanda so'zimni oxirigacha tinglamay chiqib ketdingiz. Sizning ham sizga jismingiz emas, ruhingiz kasal, umidsizlik, tushkunlik bilan charchatgan, buni dori-darmon emas, faqatgina mehr-muhabbat bilan g'amxo'rlik, e'tibor tuzatadi, demoqchi edim. Mana, yuzlab, minglab chimboyliklar qatori siz ham davlatimiz rahbarining, hukumatimizning g'amxo'rligiga, e'zoziga erishdingiz. Bu sizni oyoqqa tashlab qo'ldi. Qaddingizni tik qildi.

Aybika shifokorning so'zlari naqadar haqiqat ekanini ich-ichidan his etdi. Shukrona, mamnuniyat balqqan nigohlari bilan atrofiga qaradi. Angladiki, bugun faqatgina qadrdon mahallasigina emas, balki necha-necha shikasta dil, qo'li kalta, armoni uzun insonlar qatoriga ko'ngli ham obod bo'ldi. Angladiki, uylar, ko'cha-ko'y qator-qator chiroqlar yog'dusidan yorishgani kabi ming-ming qalblar, shakllar qadr-qimmat tuyg'usidan, shukuhidan charog'on bo'ldi.

**ARMONLAR CHEKINDI,  
ORZULAR RO‘YOBGA OSHDI**

**yoxud Vatanga daxldorlik hissi bilan  
yashash baxti**

Mamlakatimizda inson manfaatlari, qadr-qimmatini yuksak darajada ulug‘lanayotgani, inson huquqlari ta‘minlanayotgani: odamlarning hayotdan rozi bo‘lib yashashi yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar misolida O‘zbekiston dunyoga o‘z maqomini ko‘rsatmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan keyingi yillarda fuqarolik masalalariga oid qonunchilik takomillashtirilib, amaliyotga tatbiq etildi, buning natijasi o‘laroq ko‘pchilik uchun yechimi yo‘qdek tuyulgan muammo va to‘siqlar bartaraf etildi. Ayniqsa, minglab yurtdoshlarimiz O‘zbekiston fuqarosi, degan sharafga erishdilarki, buning bahosini ularning quvonch yoshi qalqan ko‘zlarida, baxt aks etgan yuzlarida ko‘rib turibmiz.

Mamlakatimizda fuqarolik masalasi hamda pasport tizimi islohotlariga doir “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun 2020-yil 13-mart kuni yangi tahrirda qabul qilinib, 15-sentyabrdan to‘liq kuchga kirdi. Bu tarixiy hujjat necha yillardan buyon qalbida kemptiklik bilan yashagan yurtdoshlarimizning orzusi ushalishiga sabab bo‘ldi, eng muhimi, xalqchil islohotlar samarasi ularning hayotiga jo‘shqinlik olib kirib, yangi sahifa ochdi.

## **Sohada tub burilish: muammolar yechim topmoqda**

Bugungi kunga qadar yurtimizda yashab kelayotgan 23 mingdan ortiq fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning arizalariga asosan, ularga O‘zbekiston fuqaroligi berilib, O‘zbekiston fuqarosi pasporti (yoki D-karta) bilan hujjatlashtirildi.

2016-yilga qadar fuqaroligi bo‘lmagan 482 nafar shaxsga fuqarolik berilgan bo‘lsa, 2016-yil dekabr oyidan buyon Prezidentimiz farmoni bilan 20 mingdan ortiq fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston fuqaroligiga qabul qilindi.

### **“E’tiborga tushdik, e’tirof etildik”**

Xayrulla Saydullayev Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani markaziy poliklinikasi oliy toifali shifokori. Turmush o‘rtog‘i Hikmatoy Rahmonova ham unga kamarbasta – terapevt. Xayrulla aka Hikmatoy opa bilan bir o‘g‘il, ikki qizni voyaga yetkazdi, elga qo‘shdi. O‘g‘li farmatsevt, qizlari o‘qituvchilikni tanladi.

X.Saydullayev 1960-yili Tojikiston Respublikasining Qo‘rg‘on-tepa viloyatida tug‘ilgan. 1992-yili O‘zbekistonga ko‘chib kelgan. O‘qidi, ishga joylashdi. Do‘stlar orttirdi. Bir qaraganda ularning hayoti yaxshi, o‘tayotgan kunlaridan rozi. Boisi qorni to‘q, usti but. Yaxshi ko‘rgan kasbining ortidan ro‘zg‘or tebratyapti. Eng muhim. farzandlari ta’lim-tarbiyasiga e’tiborli bo‘ldi. O‘g‘li ham, qizlari ham oliy ma’lumot olib, davlat idoralaridan munosib o‘rinlarini topdi. Uy-joydan muammolari bo‘lmadi. Biroq...

– Biz yigirma sakkiz yil davomida Vatanimizda yuragimizda ermon bilan yashadik, – deydi Xayrulla Saydullayev. – Mehnat qildik, biroq hordiq chiqaraylik, yurt kezaylik desak, imkon yo‘q



edi. Odamlarga o‘xshab emin-erkin saylovlarda qatnasholmadi. Fikrimiz, ovozimizning bor-yo‘qligi bilan hech kimning ishti- bo‘lmadi. Ko‘p yillar davomida necha bor harakat qildik – besama- ketdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan esa armoni- miz ushaldi: biz O‘zbekiston fuqarosi degan sharaflı maqomga erishdik. Qalbimizdagi kemtik to‘ldi. O‘g‘lim viloyat dori-darmo- aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul xodimi bo‘lib ishlaydi. Fuqaroli- berilgach uning bir quvonchiga yana quvonch qo‘shildi. “Mehr-sa- xovat” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Biz ham e’tiborga tushdik el ichida qaddimiz tiklandi. Mehnatlarimiz e’tirofi – mukofotlarga loyiq ko‘rilyapmiz. Bundan ortiq yana baxt bormi?

### **“Qo‘lga kiritishim mumkin bo‘lgan ko‘plab g‘alabalarni boy berdim”**

Muhammadjon Qirg‘iz Respublikasi Jalolobod viloyatining Olabuqa tumanida tug‘ilgan. Ularning oilasi O‘zbekistonga ko‘chib o‘tdi. Dadasi Qirg‘iziston fuqarosi, onasi O‘zbekistonda tug‘ilib o‘sgan bo‘lsa-da, unda ham, Muhammadjonda ham na u, na bu davlatga tegishlilik maqomi bo‘ldi. Maktabda, do‘stlar davrasida unga begonaga qaraganday muomalada bo‘lishdi. Ta- biiyki, bu munosabat uni o‘ksitardi. Onasi Muhammadjonni “Xafa bo‘lma, yosh bola har narsani gapiraveradi-da, e’tibor qilma”, deb yupatar, biroq u ham hali yosh bola edi. Bolalarning gapidan qalbi ozorlanardi.

*Muhammadjon Turg‘unov, Namangan shahridagi bolalar va o‘smirlar sport maktabi murabbiyi, O‘zbekiston chempioni:*

– Men xalqaro musobaqalarda ishtirok etishni, jahon may- donlarida O‘zbekiston sharafini himoya qilishni istardim. Biroq

menda fuqarolik yo‘q edi. Bu esa orzu-maqсадlarimning amalga oshishiga to‘sqinlik qilardi. Bundan tushkunlikka tushgan paytlarim ko‘p bo‘lgan, ba‘zan esa o‘zimga o‘zim “sen sportda g‘olib bo‘lish uchun emas, sog‘lom bo‘lish, millat bolalariga o‘z tajribangni o‘rgatish uchun yuribsan”, deb taskin berardim. Ich-ichimda esa g‘alabaga bo‘lgan intilish kuchli edi. Fuqaroligim yo‘qligi tufayli men musobaqalardan qolib ketardim. Oqibatda qo‘lga kiritishim mumkin bo‘lgan ko‘plab g‘alabalarni boy berdim...

Sportchi yigitning samimiy so‘zlarini tinglar ekanmiz, ochig‘i, unga nima deyishni bilmay bir zum jim qolamiz. Bunday vaziyatlarda suhbatdoshingizga nima ham deyishingiz mumkin, hammasini ko‘ngil armonlarini so‘ylayotgan insonning o‘ziga qo‘yib berganimiz ma‘qul-da. Mayli, u gapirsin, to‘lib-to‘lib so‘zlasin. Eng muhimi, o‘sha iztirobli kunlar ortda qolgani...

Muhammadjon onasi bilan o‘tgan yili o‘z orzulariga erishdi. Endi ular ham O‘zbekiston fuqarosi. Orzulari ushalishi uchun barcha imkoniyatlari bor. Avvallari hammasi o‘ziga bog‘liq emas edi, endi bunday emas. U o‘z Vatani sharafiga uchun bemaolol xalqaro musobaqalarda qatnasha oladi. Zora, uning ham armonlari ushalsa...

Fuqarolik olish Xayrulla Saydullayev va Muhammadjon Turg‘unov kabi yurtidoshlarimizga teng huquqlilik imtiyozini berdi. Ular o‘z huquqlaridan to‘la-to‘kis foydalanish – saylash va saylanish, el qatori bank bilan bog‘liq operatsiyalarni bajarish, istagan payti xorijga chiqish kabi imkoniyatlarni berdi. Bu esa yurtimizda inson manfaatlari, qadr-qimmatini yuksak darajada ulug‘lanayotganidan darakdir.

## MO‘YNOQ: BUNYODKORLIK VA TARAQQIYOT ODIMLARI

### “Mo‘ynoq tayms” vaqt mezonini anglatib turadi

Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Biz bunga Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoq tumani misolida ham nazar tashlab, guvoh bo‘ldik. Prezidentimizning Mo‘ynoqni rivojlantirish borasida ilgari surgan g‘oya va tashabbusi asosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, o‘zgarishlar hamda yangilanishlar aholining ertangi kurgaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, yangi marralar sari boshlanmoqda.

Mo‘ynoqdagi bugungi o‘zgarishlar, mo‘jizalar afsona emas, ayni haqiqat. Buni ushbu maskanga kelgan har bir inson o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, islohotlar qog‘ozda emas, amalda ekanini his etmoqda.

Tumanning qoq markazidagi “Mo‘ynoq tayms” minorasiga Italiyaning “CANONICO” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan soat o‘rnatilgan. Bu mo‘ynoqliklarga vaqt mezonini anglatib turadi. Ta’kidlash joizki, tez sur’atlarda o‘tayotgan vaqt bilan hamohang mo‘ynoqliklar hayotida yangi sahifalar ochilib, yangi marralar zabt etilmoqda.

2019-yilning 16-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, 2021-yilgacha 1 trillion 485 milliard so‘mlik qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. 2019-yilda “Mo‘ynoq porloq teks” tikuvchilik korxonasi tashkil etilib, 350 kishi ish bilardi.

ta'minlandi. Yoshlar uchun zamonaviy stadion, sport zali, suzish havzasi, madaniyat saroyi foydalanishga topshirildi. 800 o'rinli amfiteatr, musiqa va san'at maktabi, davlat xizmatlari markazi qurildi. Shu paytgacha buncha katta mablag' biror-bir hudud taraqqiyoti uchun ajratilmagan, jalb qilinmagan. Mana shu mablag'lar samarasi o'laroq, bugun Mo'ynoqni yangi bir qiyofada ko'ryapmiz.

Keling, shu o'rinda tuman tarixiga bugungi ko'z bilan nazar tashlaylik. Mo'ynoq tumani 1931-yili tashkil topgan. Ma'muriy-hududiy maydoni 37,88 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Bir vaqtlar katta qismini dengiz egallagan hudud cho'l va yarim dashtliklardan iborat. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, tumanda 32 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Keyingi yillarda xorijiy davlatlarga ish izlab ketgan mo'ynoqliklar uyiga qaytib kelmoqda. Bu bejiz emas, albatta.

– O'tgan kunlarning hammasi kechagidek esimda. To'lqinlari mavj urgan dengizda suzish mendek 17 yoshli yigit uchun juda zavqli edi. Kemalarda baliq oviga chiqib ketardik. Kuchli shamolda ko'tarilgan to'lqinlar baliq ovlashga to'sqinlik qilardi. Ammo tajribali baliqchilar yonida yurib, ko'p narsani o'rgandim. Hayotimning katta qismini ushbu dengizga bag'ishladim, – deydi "Talli o'zak" ovul fuqarolar yig'inida yashovchi nuroniy otaxon Almas Tobashev. – To'lqinlarning shovqini haligacha qulog'ından ketmaydi. O'tgan asr oxirida dengiz orqaga chekinishi bilan suvlarimiz tuzli qumga aylandi. Turli baliqlarga serob dengiz quriy boshladi. Tirikchiligi o'tmay qolgan xalq boshqa joylarga ko'chib ketishga tushdi.

Yaratganga shukr, Prezidentimiz tashabbusi va sa'y-harakati bilan so'nggi to'rt-besh yil ichida Mo'ynoqqa yangi hayot kirib keldi. Cho'kib qolgan qalbimiz qayta uyg'ondi. Yuz berayotgan katta o'zgarishlarni ko'rib, ertangi kunga bo'lgan ishonchimiz ortmoqda.

## Artemiya sanoati rivojlanmoqda

Orol dengizining 60-yillarda shoʻrlanish darajasi litriga 10–15 grammni tashkil qilgan boʻlsa, keyinchalik bu koʻrsatkich 50–60 grammga yetdi. Bugungi paytda esa 160 grammdan iborat. Yaʼni 1 litr suvda 160 gramm tuz bor. Bu Orol dengizida bironta jonzo yashay olmaydi degani. Lekin birgina mavjudot – artemiya yashay olar ekan...

Orol dengizi bugungi kunda artemiyalarning yashashi va koʻpayishi uchun yaxshigina makonga aylandi. Dengiz suvining kuchli shoʻrlanishi tufayli artemiyalarning koʻpayishiga sharoit yaratildi. Bu esa oʻz-oʻzidan Qoraqalpogʻistonda artemiya sanoati rivojiga asos boʻldi.

Orol artemiya ovlaydigan korxonalar soni 2018-yilga kelib 23 taga yetdi va jami 580 tonnaga yaqin mahsulot yigʻildi. Bugun bunday korxonalar soni yanada koʻpaygan. Eʼtiborlisi, sohaga chet el investorlarini jalb qilish orqali bu sanoatni rivojlantirishga erishilmoqda. “Jasmin gold” masʼuliyati cheklangan jamiyati negizida “Orol artemiyasi” Oʻzbekiston – Xitoy qoʻshma korxonasi 2017-yilda oʻz faoliyatini boshlagan edi.

– Korxonamizda moʻynoqlik 90 nafar fuqaro doimiy ish bilan taʼminlangan, – deydi ishchi Amanjol Mendaliyev. – Ilgari tumanda tayinli ish topmagach, chet ellarga borib ishlashga majbur boʻlgandim. Hozir esa shu korxonada doimiy ish bilan bandman. Bundan juda xursandman. Chunki oilam yonimda, daromadim yaxshi. Bundan ortiq baxt boʻlmasa kerak inson uchun.

Korxonada jamoasi yaqin istiqbolda artemiyalarni qadoqlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirgan. Buning uchun xorij tajribasini oʻzlashtirishga jiddiy kirishgan. Shuningdek, artemiya sanoati bilan bogʻliq yangi loyihalar ustida ishlanmoqda. Shu orqali sohaga innovatsiya kiritish rejalashtirilgan.

## 17 yildan so‘ng yana ishga qaytdim

Avvallari Mo‘ynoq desa, barcha Orol dengizini eslardi. Shu-  
ngdek, tumandagi baliq kombinati ko‘z oldimizga kelardi. Chun-  
baliq kombinati Mo‘ynoqning faxri hisoblangan. Bugungi kun-  
da “Mo‘ynoq akva sanoat” davlat unitar korxonasi tasarrufida  
“Mo‘ynoq baliqni qayta ishlash va konservalash zavodi” tashkil  
topilgan. Zavod 9 million dona baliq konservasi, 200 tonna dud-  
langan baliq, 780 tonna baliq qiymasi, 400 tonna baliq filesi, jami  
turdagi mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega.

– 27 yil Mo‘ynoq konserva zavodining quti ishlab chiqarish  
rejasida mehnat qildim. 2002-yili zavod o‘z ishini to‘xtatganda, men  
ham ishsiz qolganman, – deydi Obidjon Esonov. – Zavod qayta  
ishga tushgach, oradan 17 yil o‘tib, o‘zimning sevimli kasbimga  
qaytdim.

Mo‘ynoqning yana bir tabiiy boyligi – qamish. Undan ko‘p nar-  
xda ishlab chiqarsa bo‘ladi. “MUYNAK LDSP” MCHJ tomonidan  
qurilishdan umumiy qiymati 82 milliard 470 million so‘mlik quri-  
lish materiallari – DSP, panellar ishlab chiqarish loyihasi amal-  
ga oshirilib, 1200 yangi ish o‘rni yaratilmoqda. Bugungi kunda  
shu loyihani amalga oshirish maqsadida 50 gektar yer va “O‘z-  
lashtirish banki” tomonidan 5 million 400 ming AQSH dollari  
hajmdorida sirtqi kredit ajratildi. Zarur asbob-uskunalar Xitoydan  
kelindi. Ayni paytda xitoylik muhandis-texnologlar yordamida  
obyektida qurilish ishlari amalga oshirilyapti.

– Mo‘ynoq tumanining nafaqat qiyofasi o‘zgardi, balki shu yer-  
da yashayotgan fuqarolarning ham yangilanishlarga bo‘lgan ishti-  
qochi kun sayin ortib bormoqda. Qurilish va obodonlashtirish bi-  
rlik birga, tumanda istiqomat qilayotgan fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy  
hayotini yaxshilash borasida ham ko‘plab ijobiy ishlar  
amalga oshirilmoqda, – deydi Mo‘ynoq tumani mahalla va oilani

qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i o'rinbosari Janabay Jusipov. - Shu bilan bir qatorda, Orol dengizi qurishi oqibatlarini yumshatish dengizning sho'rlangan yerlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ekotizimni yaxshilash, dengizning qurigan qismida o'rmonlar barpo qilish, chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha ham katta loyihalar amalga oshirilyapti. Dengizning qurigan tubida cho'l o'simliklarini ekib ko'paytirish va yangi yaylovlar yaratish juda ham muhim masala. Albatta, o'rmon paydo bo'lsa, tuzli changlarning ko'tarilishi to'xtaydi. Yerning namligi ko'payadi va jonivorlar soni ortishiga olib keladi.

### **Tibbiy xizmat va ta'limdagi keng ko'lamli yangilanishlar**

Xalqning salomatligi eng muhim va katta boylik. Mo'ynoq tumandagi salkam 32 ming nafar aholiga ikkita qishloq vrachlik punkti, uchta qishloq oilaviy poliklinikasi, bitta ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, jami oltita ambulatoriya-poliklinika muassasalar xizmat ko'rsatmoqda. Bu tibbiyot maskanlarida 54 nafar shifokor va 262 nafar o'rta tibbiyot xodimi xalqning salomatligi yo'lida fidokorona xizmat ko'rsatib, ter to'kmoqda. Shuningdek, tumanda barchaning havasini keltiradigan innovatsion telemeditsina klinika barpo etildi. Bemorlar tashxisi bemalol shu joyning o'zida to'g'ridan to'g'ri aniqlanadi. Endilikda fuqarolar uzoq yo'lga qatnab, katta xarajat qilmasdan, bemalol klinikada davolanishi mumkin.

Mo'ynoqni rivojlantirish borasidagi g'oya va tashabbuslar asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarish va yangilanishlar ertangi kunga ishonchni mustahkamlamoqda. Tumanda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari va bunga jamoatchilikning, xalqning fikrlari bilan qiziqdik.

– Tumanimizda 17 ta umumta’lim maktabi bo’lib, barchasi rekonstruksiya qilingan va kapital ta’mirdan chiqarilgan. Maktablardagi jami 5245 o’quvchiga 739 o’qituvchi ta’lim-tarbiya berib kelmoqda, – deydi Mo’ynoq tumani xalq ta’limi bo’limi boshlig’i Maqsetbay Ametov. – Davlatimiz rahbarining shaxsan qo’llab-quvvatlashi va berilgan imtiyozlar tufayli mo’ynoqlik 516 nafar o’g’il-qiz bugun mamlakatimizning turli oliy o’quv yurtlarida ta’lim olmoqda. Ularning 120 nafari pedagogik mutaxassislik bo’yicha o’qiyapti va ertaga maktablarimizga tayyor mutaxassis bo’lib qaytadi. Shuningdek, tumanimizda 220 o’ringa mo’ljallangan innovatsion maktab qad rostlamoqda va joriy yilning sentyabr oyida foydalanishga topshiriladi. Yana bir quvonchli voqea, oldin xalq ta’limi tuman bo’limi eski binoda xizmat ko’rsatib kelgan bo’lsa, endi bizga zamonaviy uslubdagi yangi bino qurib berishdi. Ta’lim sohasini rivojlantirishga barcha imkoniyat mavjud ekan, o’z navbatida, bolalarimizni bilimli, aql-zakovatli qilib tarbiyalashda bor kuch-g’ayratimizni ayamaymiz.

## **Madaniyat Mo’ynoqdan boshlanadi**

Muhtaram Prezidentimiz “Madaniyat Mo’ynoqdan boshlanadi”, degan edi. Darhaqiqat, Mo’ynoqda qad ko’targan zamonaviy inshootlar – bog’lar, adiblar xiyoboni, hunarmandlar alleyasi, muzeylar, musiqa va san’at maktabi bu gap naqadar to’g’ri ekanligini isbotlab turibdi.

Mo’ynoq tumanida moddiy-madaniy merosning ko’chmas mulk obyektlari milliy ro’yxatiga jami 12 ta madaniy meros va ziyorat obyektlari kiritilgan. Bular: Ekologiya muzeyi, Orol tarixi muzeyi, Hunarmandlar alleyasi, “Baliqchi uyi” uy-muzeyi, Hakim ota, Toqmaq ota va Ajiniyoz bobo maqbaralari. Shuningdek, Orol dengizi, Sudoche ko’li, Ustyurt tekisligi (konon, chink), Ochiq osmon



ostidagi kemalar muzeyi, Urga qishlog‘i va “Oroldagi bog‘im” loyihasi asosidagi innovatsion bog‘.

– 2020-yil davomida hududdagi mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalariga jami 4650 nafar (4500 nafar mahalliy va 150 nafar xorijiy) sayyohlar tashrif buyurdi, – deydi O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasining Mo‘ynoq tumani vakili Hurmat Jalimbetov. – Mo‘ynoq tumanidan 2021-yilning ikki oy ichida 71 fuqaroning respublika bo‘ylab sayohatga chiqishi ta‘minlangan bo‘lsa, tumanga 300 ta mahalliy va 12 ta xorijiy sayyof keldi. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekistonning Isroildagi elchixonasi tomonidan jahon ahlini respublika boy tarixiy va madaniy merosi bilan tanishtirish, xorijiy sayyohlar oqimini yanada ko‘paytirish borasida ushbu mamlakatda faol targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Mo‘ynoqning dovrug‘ini eshitganlar bu joyni ko‘rishga intilmoqda. Boshqacha aytganda, Mo‘ynoqqa tashrif buyuruvchilar soni kun sayin ortib boryapti. Albatta, ko‘rishga arziydigan joylar juda ko‘p. Rassom Anvar Saimbetov esa yangilanayotgan Mo‘ynoq qiyofasini tasvirlashdan charchamaydi. U bugungi o‘zgarishlardan ilhomlanib chizgan rasmlarini sayyohlar jon-jon deb sotib olmoqda.

– Ajoyib zamonda yashayapmiz, o‘tayotgan har kunimizdar faxrlanamiz, – deydi musavvir. – Ayniqsa, so‘nggi yillarda tumanimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini ko‘rib, ilhomim keladi. Biz, ijodkorlar Mo‘ynog‘imizning yangi tarixini birga yaratayotganimizdan baxtiyormiz.

## **Tadbirkor yigitning orzulari**

Tadbirkor yigit Dauran Baynekyev asli Nukus shahrida yashaydi. U Mo‘ynoq tumani aholisini ish bilan band qilish maqsadida

dastlab “Jayhun” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida 50 kishi ishlaydigan “Mo‘ynoq oziq-ovqat” ishlab chiqarish kooperativini tashkil qildi. – Kooperativimiz, asosan, parranda boqishga mo‘ljallangan bo‘lib, ayni paytda tuman aholisini arzon go‘sh t mahsulotlari bilan ta‘minlab kelmoqdamiz, – deydi yosh tadbirkor Dauran Baynekyev. – Kooperativni rivojlantirish maqsadida “Madeli” ovul fuqarolar yig‘inida 200 kishini ish bilan band qiladigan “Bereket broyler” kooperativini tashkil qildik. Umumiy hisobda bugungi kunga kelib, 300 kishi ish bilan ta‘minlanib, ro‘zg‘orini tebratishi uchun imkoniyat yaratildi.

Tadbirkor yigit parranda go‘sh tidan kolbasa ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqchi. Shu asnoda tabiiy mahsulotlar brendini ham yaratmoqchi. Shuningdek, chet davlatlardan tuxum beradigan nasli parranda olib kelib, ko‘paytirish, tuyaqush boqishni yo‘lga qo‘yish va birdaniga 20 ming dona jo‘ja chiqaradigan inkubator o‘rnatish loyihalari ustida ish olib bormoqda. Aytganday, eksport masalasida ham quvonchli xabarlar bor. Go‘sh t mahsulotlarini sotishda Afg‘oniston va qo‘shni Turkmaniston davlatlari bilan shartnomalar tuzmoqda.

– Bundan 4–5 yil oldin Mo‘ynoqda bo‘lgan kishi bugun bu maskanda olib borilgan bunyodkorlik va yaratuvchanlikni ko‘rib hayratlanishi, shubhasiz. Haqiqatan, tumanda o‘zgarishlar, yangilanishlar juda ko‘p ekan. O‘tgan davr mobaynida tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida ulkan o‘zgarishlar yuz bergan, – deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Dilbar Mamadjanova. – Qoraqalpog‘istonga, jumladan, Mo‘ynoq tumaniga Prezidentimiz tomonidan juda katta e‘tibor qaratilmoqda. 2020–2023-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida ham davlatimiz rahbari

Orol, Orolbo‘yi aholisiga yordam ko‘rsatish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Ma‘lumki, Prezidentimizning tashabbusi bilan 2018-yil Orol dengizining suvi qurigan joylarida “yashil qoplamalar” yaratish uchun saksovul ekish ishlari boshlangan edi. Ayni paytda ham ushbu tadbirlar uyushqoqlik bilan davom ettirilmoqda, bu yumushlarga yurtimizning barcha hududidan ishchi va mexanizmlar jalb etilgan.

## **Mo‘ynoqqa samolyot keldi**

2020-yil 26-avgust kuni Mo‘ynoq tumani tarixida yangi bir sahifa ochildi. Sababi, Mo‘ynoqqa uzoq yillik tanaffusdan so‘ng birinchi samolyot kelib qo‘ndi va mo‘ynoqliklarning quvonchiga yana quvonch qo‘shdi. Mo‘ynoq havo darvozasining ta‘mirlanishi tumani iqtisodiyoti uchun, turizm uchun juda katta imkoniyat. O‘tgan asrning qirqinchi yillari oxirida barpo etilgan 3-darajali “Mo‘ynoq” aeroporti ta‘mirlanishiga qadar faqat An-2, An-24 va Yak-40 kabi kichik samolyotlar hamda barcha turdagi vertolyotlarni qabul qilgan. 1960-yillardan 1990-yillarning boshlarigacha Qo‘ng‘irot, Nukus, Urganch, Taxtako‘pir, Qozoqdaryo, Aspantay, Tulei aholi punktlari bilan kuniga 19 tagacha yo‘lovchi reyslari amalga oshirilgan. Toshkentdan ham haftasiga uch marta samolyot qatnagan. Bugungi Mo‘ynoq o‘zining zamonaviy aeroporti bilan maqtansa arziydi.

Albatta, o‘zini shu yurtning farzandiman, degan har bir inson amalga oshirilayotgan ishlardan faxrlanadi, g‘ururlanadi va e‘tirof etadi. “Mo‘ynoq tayms” minorasidagi soat ham bong urib, vaqtni eslatib turadi. Vaqt esa shiddat bilan o‘tmoqda. Biz sizga ham fursat topib, Mo‘ynoqqa kelishingizni maslahat beramiz. Siz bundan hech ham afsuslanmaysiz. Aksincha, yurtimizning bu go‘shasida amalga oshirilgan va davom etayotgan o‘zgarishlar, yangilanishlardan katta taassurot olishingiz shubhasiz.

## **O'ZBEKISTONDAGI DINIY-MA'RIFIY SOHADAGI ISLOHOTLAR MUSULMON DUNYOSINING DIQQAT MARKAZIDA**

2016–2020-yillarni o'z ichiga olgan davr ilmiy va ekspert doiralar tomonidan O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi deb bahalanoqda. Ushbu qisqa vaqt ichida O'zbekistonda turli sohalarda amalga oshirilgan islohotlar davlat va jamiyatning jadal rivojlanishiga erishish, xalq farovonligi va osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Islohotlarning huquqiy asosini yaratish, ularning izchilligiga erishish maqsadida 2017–2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasining beshinchi yo'nalishida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada respublikada amalga oshirib kelingan ishlar jamiyatimizdagi hamjihatlik, mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlamoqda.

Bugun O'zbekiston aholisini 130 dan oshiq turli millat, 16 ta diniy konfessiya vakillari tashkil qiladi. Ularning milliy o'zligini saqlash va rivojlantirish, e'tiqod erkinligini ta'minlashga oid huquqlari Konstitutsiya va qonunlar asosida qat'iy kafolatlangan.

O'tgan qisqa vaqt davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surildi.

**Birinchidan,** 2016-yilning 18-oktyabrida Toshkentda Islor hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyas yig‘ilishida O‘zbekiston Prezidenti tomonidan Samarqandda Imor Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish tashabbus ilgari surildi.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi qisqa vaqt ichida Misr, Turkiya, Malayziya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniyadagi xalqaro islom markazlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatib, birgalikda yirik ilmiy loyihalarni amalga oshirmoqda.

Uch yillik faoliyati davomida Markaz tomonidan buyuk allomalarimizning 30 ga yaqin asari tarjima qilindi. Xorijning yetakchi ekspertlari, islomshunos olimlari Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining o‘rta asrlarga oid ilmiy merosni o‘rganishdagi faoliyatini jahonning nufuzli markazlari darajasida ekanini e‘tirof etdilar.

Yaqinda Markaz olimlari tomonidan Imom Moturidiyning dunyoga mashhur “Ta’vilot al-Qur’on” kitobi ilk marta o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Hech mubolag‘asiz, ushbu noyob asar davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 1100 yildan so‘ng xalqimizga o‘z ona tilida qaytarib berildi.

O‘zining bebaho asarlari bilan islom dini rivojiga buyuk hissa qo‘shgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi allomalarimiz asarlarini o‘rganish, tadqiq etish, o‘zbek tilida ularning tarjima va sharhlarini, tanqidiy matnlarini tayyorlash – bu oson emas va hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Buning uchun chuqur bilim va katta tajriba, sabr va toqat kerak. Eng muhimi, Alloh bergan iste’dod, nozik did va farosat bo‘lishi zarur.

Igna bilan quduq qazishdek bunday og‘ir mehnatning barcha zahmat va mashaqqatini boshidan o‘tkazgan odamgina biladi. tushunadi. Bundan necha asrlar ilgari yozilgan, dunyoning turli

mamlakatlarida saqlab kelinayotgan qadimiy kitoblarni bugungi kun talabi darajasida tayyorlash – juda murakkab jarayon. O‘zbekiston Prezidenti ana shunday savobli amalga ko‘z nuri, aql-zakovati, butun umrini sarf etayotgan olim va tadqiqotchilarimiz, diniy soha xodimlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat sharoiti yaratib berishga katta e‘tibor qaratmoqdalar.

**Ikkinchidan,** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ishtirok etib, xalqaro maydonda islom diniga nisbatan kuzatilayotgan bir yoqlama salbiy munosabatga nisbatan o‘zining qat’iy pozitsiyasini muxtasar ifoda qilib, jumladan shunday dedi: **“Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da‘vat etadi”**.

Birlashgan Millatlar Tashkilotida O‘zbekiston rahbari jahon jamiyatiga O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish loyihasi haqida so‘zladi. Islom sivilizatsiyasi markazi o‘z g‘oyasi va ahamiyatiga ko‘ra betakror loyiha bo‘lib, islom dinining ilmiy-ma‘naviy boyligi, bunyodkorlik salohiyatini namoyish etishga qaratilgan.

O‘tgan yillar davomida O‘zbekiston Prezidenti Islom sivilizatsiyasi markazi binosining qurilish maydoniga bir necha bor tashrif buyurib, uning ahamiyati, xalqimiz, xususan, yoshlarimizni insoniyatning ezgu g‘oyalari ruhida tarbiyalashdagi o‘rni haqida muhim taklif va tashabbuslarni bildirdilar. Shuningdek, O‘zbekiston rahbari tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi yalpi majlisida “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik to‘g‘ri-da”gi maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. Rezolyutsiya Birlash-

Nukusda “Imom eshon Muhammad” masjidi va yana ko‘plab tabarruk manzillarda keng ko‘lamli qurilish-ta’mirlesh ishlar amalga oshirildi. Qisqa muddatda bu maskanlar g‘oyat go‘zal va ulug‘vor qiyofa kasb etdi.

Ayniqsa, bundan ming yil oldin diniy e’tiqod masalasida yozgan asarlari bilan adashganlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgan Abu Muin Nasafiy bobomizning ziyoratgohi tubdan ta’mir lanib, har tomonlama obod qilindi. Buyuk allomaning “Tabsiratul adilla” nomli kitob o‘zbek tilida nashr etildi. Bu asar bilan tanishgan odam turli soxta va zararli oqimlarning mohiyatini anglab yetadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda imom-xatiblarning bilim va kasbiy malakasini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Shu maqsadda, Xalqaro islom akademiyasining Malaka oshirish markazi va uning to‘rtta hududiy filiali faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Unda har yili yuzlab imom-xatiblar bugungi voqelik talablaridan kelib chiqib, bilim va ko‘nikmalarini oshirmoqdalar.

**Beshinchidan,** Movarounnahr – hozirgi O‘zbekiston ilm-fan va madaniyatining tarixiy markazi hisoblanadi. Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi allomalar, buyuk mutafakkirlar o‘z davrida Movarounnahrda Birinchi va Ikkinchi Renessans davrini boshlab bergan bo‘lsa, Yangi O‘zbekistonda ushbu buyuk siymolar nomi bilan tashkil etilgan markazlar, ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari Uchinchi Renessansga ilmiy poydevor bo‘lishi niyat qilindi.

Ushbu sohadagi islohotlarning yana bir muhim maqsadi – O‘zbekistonning insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan buyuk hissasini targ‘ib qilish orqali yoshlarni ma’rifatga rag‘batlantirish, innovatsion rivojlanishning boy milliy merosga asoslangan yangi taraqqiyotiga yo‘l ochish hisoblanadi.



















**Oltinchidan**, turli yot oqimlar ta'siriga berilib, qilgan ishidan shaymon bo'lgan 20 mingdan ziyod fuqarolar reabilitatsiya qilindi. Ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, hayotda o'z o'rnini topishiga yordam berilmoqda.

Qilgan xatosini anglab yetgan va tuzalish yo'liga kirgan fuqarolarning oilasi bag'riga, tinch hayotga qaytishiga imkoniyat yaratildi.

O'zbekiston rahbariyatining kechirimlilik va yuksak insonparvarlik siyosatining amaldagi in'ikosini Suriya va Iroqdan yurtimizga qaytarilgan fuqarolarimiz misolida ham anglab yetish mumkin. "Mehr", "Mehr – 2", "Mehr – 3" operatsiyalari natijasida 317 nafar fuqarolar hamda bolalar urush o'choqlaridan tinchlik va farovonlik sharoitida kasi bo'lmish O'zbekistonga qaytarildi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda musulmon dunyosining tinchlik sharoitida hamkorligini kuchaytirish, oldimizda turgan muammolarga yechim topish va islom ummatining birdamligini mustahkamlash uchun musulmon mamlakatlarining imkoniyat va salohiyatini safarbar qilish g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda, biz O'zbekistondagi islom ilmiy tadqiqot markazlarining tomonidan dunyoning yetakchi islomshunoslik markazlari bilan hamkorlikda buyuk allomalarimizning ilmiy merosiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar o'tkazilmoqda.

Xususan, 2020-yilning 3–4-mart kunlari Samarqand shahrida "Imom Moturidiy va moturidiya ta'limoti: o'tmish va bugun" mavzusidagi xalqaro konferensiya yuqori saviyada tashkil etildi.

Konferensiyada dunyoning 15 mamlakatidan 55 nafar taniqli olimlar, muftiylar, moturidiyshunos ekspertlar, 100 nafar mahalliy olim va tadqiqotchilar qatnashdi. Jumladan, Misr Bosh imomi, Al-Azhar majmuasi shayxi Ahmad Tayyib boshchiligidagi 19 nafar diniy nufuzli diniy arboblarning ishtiroki konferensiyaning xalqaro maqomini yanada oshirdi.

Ahmad Tayyib konferensiyaning yuqori saviyada tashkil qilindi, yuksak darajada e'tibor ko'rsatilgani hamda "Samarqand shahrining faxriy fuqarosi" maqomiga munosib ko'rilgani uchun O'zbekiston Prezidentiga chuqur minnatdorligini bildirdi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, keyingi yillarda mamlakatimizda keng ko'lam va yuksak ahamiyat kasb etgan diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi islohotlar O'zbekistonning musulmon dunyosida islom sivilizatsiyasi markazi sifatida e'tirof etilishining muhim omili bo'lmoqda.

## HAR BIR MAHALLA VA HAR BIR XONADONGA

Mamlakatimiz, xalqimiz hayotida har kuni yangidan yangi o'zgarishlar, yangilanishlar ro'y bermoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan, yurtimizni har tomonlama rivojlantirish, xalq bilan ochiq-oshkora muloqot qilishning yangicha namuni – Xalq qabulxonalari ham ana shunday ijobiy yangilanishlardan biridir.

Prezidentning joylardagi Xalq qabulxonalari, Virtual qabulxonasi xalqning haqiqiy hayotidan xabardor bo'lish, odamlarning muammolarini, talab va ehtiyojlarini yaqindan o'rganish, muammoni joyida hal etish, zarur chora-tadbirlarni belgilab, ijtimoiy muammoni ta'minlash imkoniyatini yaratdi. Qisqacha aytganda, xalqning dardiga kirib borildi. Odamlarning yuraklarida yig'ilib qolgan dardlar allaqachon hal qilinishi mumkin bo'lgan-u, lekin to'rachilik, to'bo'larchilik, sansalorlik oqibatida yillar davomida yechilmay qolgan muammolar yuzaga chiqa boshladi. Eng muhimi, odamlar muammoni aytishi, katta-yu kichik idoralar rahbarlari bilan yuzma-yuz muvohirashishi, o'zini qiynayotgan masalalariga qisqa fursatda yechim topishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keldi. Nafaqat muammolar, talab va takliflari ham yig'ilib, tegishli amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi yo'lga qo'yildi. Xalq qabulxonalarida fuqarolarning ariza va shikoyatlari belgilangan tartibda, xolislik tamoyillari asosida ko'rib chiqilib, ijobiy hal etilayotgani mamlakatimizda insonshunoflik va manfaatlariga oliy qadriyat sifatida qaralayotganining birinchi ifodasidir.



Prezidentimizning 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori asosida aholi uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish, shuningdek, joylarda ishlarning haqiqiy ahvolini har tomonlama va chuqur o’rganish, xalq bilan bevosita muloqotning sifat jihatidan yangi va samarali shakllarini joriy etish, aholi dardini tinglash, muammolarini joyida hal etish bo’yicha yangicha tizimda ishlash tartibi joriy etildi.

Hokimliklar, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati organlari rahbarlari boshchilik qilayotgan sektorlar o’z hududlarida barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi muammolarni hal etish bilan bir qatorda, huquq-tartibot targ’iboti, qonunchilikni mustahkamlash bo’yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu borada doimiy harakatdagi, yaxlit tizim yaratildi.

To’g’risini aytish kerak, har bir yangilikning yaxshi va yetilgan jihatlari bo’ladi, albatta. Bu boradagi ayrim obyektiv va subyektiv omillar mazkur tizimni yanada takomillashtirishni taqozo qiladi. Sektor rahbarlari o’z hududida aniqlangan muammolarni hal etish, sektor shtabi faoliyatini tizimli asosda yo’lga qo’yish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va moliyaviy vakolatlarga ega emas, ularning hal etilishini nazorat qilish bo’yicha shaffof tizim yo’q edi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 8-yanvarda qabul qilingan “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qaror shu kabi kamchiliklarni bartaraf etish bo’yicha sektorlarning chinakamiga faoliyat yuritishiga yo’l ochib berdi. Sektorlar faoliyatiga “tuman (shahar) – viloyat – respublika” tamoyili joriy etildi. Unga ko’ra, hokimliklar, prokuratura, ichki ishlar va soliq idoralarida sektorlar bo’yicha vertikal boshqaruv tizimi yo’lga qo’yildi.

Ayni paytda sektorlar faoliyati davlat organlarini aholi bilan yanada yaqinlashtirish, xalq bilan tizimli muloqotni yoʻlga qoʻyishda muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Sektorlar hududida har bir mahalla va har bir xonadon boʻyicha ishlash jarayonida aniqlangan masalalar yuzasidan Prezidentning Xalq qabulxonasi bilan axborot almashuvi tizimi oʻrnatilgan. Bu esa aholi muammolarining tezda bartaraf etilishiga hamda amalga oshirilgan ishlarni tizimli tahlil qilishga, yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar va ularning sabablarini oʻrganish hamda “yoʻl xaritalari”ni shakllantirish, muammolar va ularni hal etish natijalari yuzasidan chora-tadbirlar tayyorlashga zamin boʻlmoqda.

Bularning barchasi Xalq qabulxonalari va sektor rahbarlari hamda aʼzolarining oʻz vazifalariga vijdonan va masʼuliyat bilan yondashishlari uchun muhim ragʻbatlantiruvchi omil boʻlmoqda. Bu tizim xalq ichiga kirib borish, ularning hayotiy muammo va ehtiyojlarini hal etish, ishonchini qozonishda muhim ahamiyat kasb etyapti. Iqtisodiy, investitsiyaviy, qurilish komplekslaridagi loyihalar doirasida hamda rasmiy oʻzini oʻzi band qilish va boshqa faoliyat turlari boʻyicha ehtiyojmand oilalarning ishsiz aʼzolari bandligi taʼminlanmoqda.

Xalq qabulxonalari va sektorlarga qoʻyilayotgan vazifalar koʻlamidan kundan kunga oʻsishi esa ularning xalq manfaati yoʻlidagi faoliyatini yangi bosqichga koʻtarishni taqozo etmoqda.

Manzilli va aniq tizimli faoliyat borasidagi ishlar Toshkent shahrida ham oʻz samarasini bermoqda. Jumladan, Xalq qabulxonasiga kelib tushgan murojaatlar tahlili asosidagi oʻrganishlar Chilonzor tumanidagi “Dilobod” mahalla fuqarolar yigʻini muammolar eng koʻp uchraydigan hudud ekanini koʻrsatdi. Ichki ishlar vazirligi, tuman hokimligi va Xalq qabulxonasi hamkorligida koʻrilgan chora-tadbirlar natijasida endilikda bu yerda keng koʻlamli kunyodkorlik, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirishga kirishil-

di. Aniqlangan muammolar bartaraf etilmoqda. Ko'p qavatli yetti-uyning fasadi ta'mirdan chiqarildi. Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida kuzatuv kameralari o'rnatildi. Ushbu uylar oralig'ida bolalar uchun sport maydonchalari, aholi uchun kutubxona va avtoturargoh hamda dam olish joylari qurilishlari yakuniga yetkazilmoqda.

– Mahallalar va xonadonlar bo'yicha ishlash tizimi tez fursatlarda o'z samarasini beryapti, – deydi “Dilobod” MFY raisi Muborak Bozorova. – Muammolarimiz joyida hal qilinyapti. Masalan, 34- va 35-uyularimizda yashovchi fuqarolar murojaati asosida amalga oshirilgan ishlar mahallamiz chiroyiga chiroy qo'shdi. Bu uylar oldida bolalar o'yingohi, avtoturargohlar yo'q edi. Hozir aholi va bolajonlar ana shunday qulaylikka ega bo'lmoqda. Bu ishlarning ijobiy natijalari “mahallabay” tizimining naqadar to'g'ri va muhim ekanini ko'rsatmoqda.

Zubayda Madutova o'tgan yili tibbiyot kollejini tamomlagach, oliy o'quv yurtiga o'qishga kirolmadi. Besh kishilik oilada faqat otasi ishlayotganini ko'rib, ozgina yordam bo'lsin, deya Xalq qabulxonasiga murojaat qilgan Zubaydaning tumandagi oilaviy poliklinikaga ishga joylashishiga mas'ullar yaqindan ko'maklashdi.

Tumanning “Novza” mahallasidagi xonadonlarning birida yolg'iz yashovchi Saodat aya Niyozova ko'p yillardan buyon qandir kasalligi bilan kurashadi. Bu ham yetmagandek, yurak yetishmovchiligi ham bor. Xalq qabulxonasiga murojaatidan so'ng shifokorlar Saodat ayani tekshiruvdan o'tkazdi va zarur dori-darmonlar berildi. “Eng muhimi, ko'ngil so'rab kelganlari menga shifo bo'ldi”, – deydi Saodat aya.

– Davlatimiz rahbarining 2019-yil 19-yanvardagi “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga asosan, sektorlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlarga murojaatlar bilan ishlash, uyma-uy yurish, ijtimoiy va boshqa obyektlarni o'rganish orqali ijtimoiy-iqtisodiy

– ammolarni aniqlash va hal qilish faoliyatini doimiy mu-  
– qilashtirib borish vazifasi Xalq qabulxonalariga yuklatilgan, –  
– di O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahridagi  
– q qabulxonasi mudiri Tohir Mullajonov. – Ta’kidlash joizki,  
– murojaatlarda ko‘tarilgan masalalarni tahlil qilish asosida qonun  
– qatlari va huquqni qo‘llash amaliyoti takomillashtirilib borila-  
– tganini bois, yuridik va jismoniy shaxslar murojaatlari bilan ishlash  
– tmining natijadorligi va samaradorligi o‘zib bormoqda.

Tahlillarga ko‘ra, o‘tgan yili Toshkent shahridagi Xalq qabul-  
– xonalariga jami 15 mingdan ortiq murojaat kelib tushgan. Bu esa  
– 1999-yildagiga nisbatan 1717 ta kamdir. Yil yakuni bo‘yicha muro-  
– jaatlarning 12 mingdan ortig‘i qanoatlantirildi, shundan 8219 tasi  
– i ijobiy hal qilindi.

Shuningdek, ayrim tashkilot va idoralar tomonidan fuqarolar-  
– ning murojaatlari to‘liq va sifatli o‘rganib chiqilmasligi, muammo-  
– ning kelib chiqish sabablari aniqlanmasligi, kutilgan ijobiy natija  
– mayotgani oqibatida Xalq qabulxonalariga takroran murojaat  
– sh holatlari uchrab turibdi. Eng achinarlisi, tuman miqyosida  
– davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan hech qanday  
– xarajatsiz yechish mumkin bo‘lgan oddiygina masalalar hal  
– mayotgani fuqarolarning yuqori idoralarga murojaat qilishiga sa-  
– t bo‘lmoqda. Ushbu masalalar Xalq qabulxonasining aralashuvi  
– an ijobiy yechim topmoqda. Jumladan, Toshkent shahrining Mir-  
– ulug‘bek tumanidagi “Asaka” mahallasida yashovchi Sh.Tohiriy  
– 1999-yilning 16-noyabr kuni Xalq qabulxonasiga murojaat qilib,  
– tgan tuman elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan uch million  
– dan ortiq asossiz qarzdorlik hisoblangani, bir necha bor elektr  
– moqlari korxonasiga murojaat qilib, tegishli to‘lov xabarnoma-  
– ni taqdim etishiga qaramay, qarzdorlik qayta hisob-kitob qilin-  
– tganini bildirdi. Xalq qabulxonasi aralashuvi bilan fuqaroga hi-  
– tlangan asossiz qarzdorlik bartaraf etildi.

Yana bir misol. Yashnobod tumani “Tuzel” mahalla fuqarolaryig‘inida yashovchi aholi tomonidan Tuzel-1 mavzesida joylashtirilgan 557-maktabgacha ta’lim tashkiloti orqa tomonidan o‘tgan ichki yo‘lning 130 metr qismi ko‘p yillardan beri ta’miratlanmagani sababiyayanchli ahvolga kelib qolgani bo‘yicha yo‘llangan murojaat Yashnobod tumani hokimligi va tuman obodonlashtirish bo‘limi tomonidan ko‘rib chiqilib, fuqarolarga tushuntirish mazmunidagi javob xatlari yuborilgan.

– Ushbu hududda yashovchi fuqarolarimiz mas’ul tashkilotlardan olingan javoblardan qoniqmagani tufayli Toshkent shahridagi Xalq qabulxonasiga murojaat qilishga majbur bo‘ldi, – deydi mahalla raisi Sodiq Rayimov. – Xalq qabulxonasi mas’ullarining masalaga jiddiy yondashuvi va ijrosini nazoratga olganidan so‘ngra muammo barham topdi. 130 metr ichki yo‘l to‘liq ta’mirlandi.

Shuningdek, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlartog‘risida”gi qonunda belgilangan muddatda mas’ul ijrochilar tomonidan murojaatlarning ko‘rib chiqilishi ta’minlanmasligi fuqarolarning haqli e‘tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Birgina o‘tgan yilning o‘zida Toshkent shahridagi Xalq qabulxonasi tomonidan ijroga yuborilgan 47 ta murojaatning 30 kuni, ijro muddatlari buzilgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va aholi murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha mas’ul xodimlarni qayta tayyorlash maqsadida kelishilgan tartibda o‘quv seminarlar tashkil etilib, tushuntirishlar berildi hamda bunday tadbirlarni kelgusida muntazam o‘tkazish borish bo‘yicha kelishib olindi.

Toshkent shahridagi Xalq qabulxonalari tomonidan tumanlardagi tibbiyot birlashmalari va oilaviy poliklinikalarning aholi salomatligini mustahkamlash, tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlar muvofiqlashtirib borilmoqda. Xalq qabulxonasi tashabbusi bilan t-

tanlardagi ijtimoiy sharoiti og‘ir, tibbiy yordamga ehtiyoji yuqori mahallalarda aholi salomatligini mustahkamlash, ayniqsa, tibbiy yordamga muhtoj keksalarga amaliy yordamlar ko‘rsatish maqsadida tizimli ravishda tibbiy ko‘riklar va patronaj ishlari o‘tkazib borilmoqda.

Qayd etish lozimki, mamlakatimizda barcha sohadagi islohotlar mazmun-mohiyati, avvalo, insonni ulug‘lashga, uning sha‘ni, qadr-qimmatini oshirishga, huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilayotgani bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun Toshkent shahridagi Xalq qabulxonasi, barcha sektor rahbarlari, mahalla raislari va tegishli idora hamda tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor, yakka-yolg‘iz shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ushbu toifadagi fuqarolarni “xonadonbay” tarzda doimiy nazorat ostiga olgan.

Sektorlar va homiylar ko‘magida bunday fuqarolarga, jumladan, nogironligi bor bolalarga raqamli eshitish vositalari, zamonaviy protezlar, ortopedik vositalarning yangi turlari, ortopedik poyabzal va moslashuvchan kiyimlar hamda aravachalar berib kelinmoqda.

Shuningdek, Xalq qabulxonalari huzurida “ko‘chma kutubxonalar” tashkil etilgan. Mas’ul xodimlar tomonidan yotoqdagi bemorlarga ularning istagi bo‘yicha kitoblar olib borib berilayotir. Psixolog mutaxassislar bilan suhbatlar tashkil etilmoqda. O‘sha sharoitda yashovchi san’atkor, shoir va yozuvchilar ularning xonadonlariga borib ko‘ngillarini ko‘tarmoqda.

Shahar va tumanlar sektor rahbarlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan o‘tkazilayotgan ommaviy sayyor qabullarda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, tashabbuskorlik, shijoatlik ruhida tarbiyalanish, jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish va bandligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Masalan, Olmazor tumanidagi Beshqo‘rg‘on-4 dahasida yashovchi, 2001-yilda tug‘ilgan Xurshida Qudratova tikuvchilik sohasi va Beshqo‘rg‘on-2 dahasida yashovchi, 2002-yilda tug‘ilgan Umar Rasulov kompyuter texnologiyasi bo‘yicha doimiy ishga joylashishda amaliy yordam so‘ragan edi. Bu murojaatlar tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan ijobiy hal etilib, ular kasb-hunarga qayta tayyorlash kurslariga joylashtirildi.

Yangihayot tumanida joylashgan “Al-Farg‘oniy” mahallasida 1945 xonadon mavjud. Ulardagi 2137 ta oilada 6505 nafar aholi istiqomat qiladi. Ishchi guruh tomonidan o‘rganishlar jarayonida mahallada kam ta‘minlangan 10 ta, ijtimoiy himoyaga muhtoj 28 ta, nogiron a‘zosi bor 75 ta oila mavjudligi aniqlandi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida “Temir daftar”ga kiritilgan, 535 nafar a‘zosi bo‘lgan oilalarning daromadlari tiklanib, iqtisodiy ahvoli yaxshilangani sabab daftardan chiqarildi. Bugungi kunda 38 nafar yosh “Yoshlar daftari”ga, 72 nafar ayol “Ayollar daftari”ga kiritilib, ular bilan tizimli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Joriy yilda aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni tizimli o‘rganish maqsadida bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Jumladan, mahallalarda aholini qiynab kelayotgan mavjud muammolarni aniqlash bo‘yicha sayyor qabullar qamrovini kengaytirish, sektor rahbarlari bilan cheklanib qolmasdan, barcha sohalar rahbarlarining qabullarini tizimli o‘tkazib borishda hududiy okruglardan saylangan deputatlarning hamkorligini ta‘minlash rejalashtirilgan. Shu bilan birga, yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o‘rgatish, ularda tadbirkorlik ko‘nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta‘minlashga ustuvor ahamiyat qaratish ishlari “mahallabay” va “fuqarobay” tizim asosida tashkil etilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda Prezidentning Xalq qabulxonalarini bilan Xalq deputatlari

Toshkent shahar va tumanlar kengashlarining hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan. Davlatimiz rahbari tomonidan o‘z vaqtida qo‘llanilgan chora-tadbirlar, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining tashkil qilinishi, kambag‘al aholi ro‘yxati va kambag‘allikdan chiqarish uchun “temir daftar”lar yuritilishi, ijtimoiy yordamga muhtoj aholi murojaatlari uchun Yagona ijtimoiy reyestr tizimi joriy etilishi ijtimoiy himoya sohasida yangi islohotlar uzviy-ligini ta’minlamoqda.

Qayd etish joizki, joylardagi Xalq qabulxonalari fuqarolarning ishonchli manzili, jamiyatning haqiqiy ko‘zgasiga aylanib ulgur-di. Bu esa xalq va davlat birligining oliy namunasi ekanini amalda isbotlamoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, ochiq muloqot va murojaatlar bilan ish-lashning yangicha tizimi – Xalq qabulxonalari instituti odamlarning ko‘p yillik muammolarini, talab va ehtiyojlarini yaqindan o‘rganish, ularni joyida hal etish uchun zarur chora-tadbirlarni belgilab, ijti-moiy adolatni ta’minlash imkoniyatini yaratmoqda.



## **ARMONLARIMIZ YUKSAK MAQSADLARGA AYLANMOQDA**

Yoshlik inson umrining eng go'zal davri. Jo'shqinlik, hayotni benuqson ko'rishga intilish, katta talab-u da'volar bilan yashash. o'zini baland orzularga chorlash bu faslga xos xususiyatdir.

Yana yoshlik o'zida ko'p narsalarga qodirlik his qiladi. Ko'nglida: "Men bu ishning albatta uddasidan chiqaman", degan ishonch tirik bo'ladi. Bejiz ustoz shoirimiz Rauf Parfi "Yoshlik zangor fasl...", deya ta'riflamaydi. Chunki unda tiniqlik ham, joziba ham bor. Biroq tarix sahnasini kuzatsak, hamma zamonlarda ham yoshlikning betakror xususiyatlari ezgulikka xizmat qildirilgan emas.

Sanasi uzoqlashib borayotgan bo'lsa-da, hali yuraklardan og'rig'i, alami olislamagan Ikkinchi jahon urushida yoshlarning qanchasi bu qattol qirg'inning qurboniga aylandi. Turli yillarda jahonning goh u yer, goh bu yeridagi og'ir qurilishlar ham ba'zan yoshlik nomi bilan bog'landi. Izg'irinlar, ayozlar o'nlab-yuzlab navqiron avlodning o'pkasi, oyog'i, yana qaysi a'zolarini mayib qilganini ham kitoblardan o'qib bilganmiz. Ha, qaysi tuzum, qaysi siyosat bu faslni noto'g'ri yo'lga boshlasa, yo unga nopisand bo'lsa, o'sha joyda, albatta, fojialar, hech bo'lmaganda, noxushliklar, ko'ngilsizliklar sodir bo'ladi. Ustidan og'ir yuk kechaverib, ostidagi suvga qapishib qolgan ko'prikni ko'rganmisiz? Uning oldiga oqar suvga yo'l-yo'lakay tashlangan turli chiqindilar kelib yig'iladi, yig'ilaveradi, natijada ko'prikning u tarafiga suv oqmaydi, balki sizadi. Nopisand qaralgan, mehrlil nazardan mosuvo yashagan yoshlik ham xuddi shu: jo'shib oqmaydi, sizib, sezilmay yashaydi.

Ne baxtki, bizning yoshlarimiz chekiga bugun bor kuchi bilan toshib, to‘lqinlanib oqish baxti tushdi. Chunki Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz rahbarligini ado etishga kirishgan ilk avjdanlarnanoq yoshlar hayotiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tibor bera boshladi. Ularning muammolarini yashirin tutmadi, minbarlardan oqning oq, qoraning qora rangini oshkor aytili.

Ayniqsa, noto‘g‘ri yo‘llarga kirib, kimlargadir aldanib, xorijga ketgan va endi boshini qaysi devorga urishini bilmay yurgan yigit-qizlarimiz haqidagi: “Birovlar bu fojiadan, yo‘q, bunday bolalar bizniki emas, bizdan emas, deb qutulmoqchi bo‘ladi. Ular xato qiladilar. Bu bolalar – bizniki, ularni biz bu yo‘llardan qaytarmasak, biz ularni noto‘g‘ri yo‘lga boshlamasak, ularga hech kimning joni achimay-taymay, degan mazmundagi gaplari ko‘nglida aldangan bolasi uchun javobid shamlari o‘chgan onalarga qayta yorug‘lik berganining guvohi bo‘lganmiz.

Bu yoshlar siyosatidagi birgina yo‘nalish, xolos. O‘qish, o‘qitish sifatini yaxshilash, bitirganlarni kasb-kor o‘rganishga yo‘llash, yoshlar tadbirkorligiga keng imkoniyatlar yaratish kabi qator choralar-tadbirlar, mana, bir necha yildirki, yigit-qizlarimizning jamiyatda o‘ziga katta kuchga aylanishi uchun zamin hozirlamoqda. Yoshlarimiz bu imkoniyatlar samarasini hozirdan namoyon etmoqdalar.

Kunlarimiz xushxabarlar bilan boshlanadi:

... Boks bo‘yicha o‘z vaznida jahon chempioni bo‘ldi...

... Xalqaro tanlovda ishtirok etib, Gran-pri bilan taqdirlandi...

...Birdaniga xorijning o‘n beshta oliy o‘quv yurtiga grant asosida o‘qishga qabul qilindi...

...Kinodagi ilk debyuti dunyoning talabchan san‘atshunoslari tomonidan e‘tirof etildi...

Sohalar – turlicha, ammo hammasi jamiyatimizning jon tomirlari. Ismlar ham boshqa-boshqa: Murod, Nafisa, Firdavs, Muxlisa,

ammo ularni bir ulug‘lik – millat nomi, Vatan nomi birlashtirib turibdi.

– Uch farzandim, oilam bilan keng, yorug‘ uylarda maza qilib yashayapmiz. Boshingda vataning bo‘lsa, ish imkoniyating har keng bo‘lar ekan, – deydi Sergelidagi ko‘p qavatli uylardan biriga O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining faol a‘zolariga berilgan imtiyoz tufayli boshlang‘ich to‘lovlarsiz ega bo‘lgan hunarmand Dilnoza Narzullayeva.

– Bizga berilgan imkoniyatlar o‘n iste‘dodi ochilgan yoshlarning o‘n birinchi iste‘dodini ham kashf qildi. Men texnika yo‘nalishida ta‘lim olaman. Ayni paytda “Qizlar ovozi” klubining Andijon viloyati yetakchisiman. Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga loyiq ko‘rilganim, Beruniy nomidagi stipendiya sohibasi bo‘lganim menga jamiyatda yana ham faolroq bo‘lish mas‘uliyatini berdi, – deydi Andijon mashinasozlik instituti talabasi Nigora Abdu-mo‘minova.

Ularni tinglagan sayin ko‘ngil o‘sadi, qadim ajdodlarimiz shuhrati qaytayotgan kelajak yaqinroq kelganday bo‘ladi.

Ayniqsa, yaqinda Prezidentimiz ishtirokida yoshlar bandligi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektorda ko‘rilgan masalalar hozirgacha qilingan ishlarning yangi bir bosqichiga, yuksak bosqichiga yangi yo‘l ochdi, desak haq gapni aytgan bo‘lamiz. Yosh tadbirkorlar uchun soliqdagi imtiyozlar, kredit olish imkonlarining kengaygani, hatto yoshlarni kasb-korga o‘rgatuvchilar, yigit-qizlarimizga ish beruvchilar uchun yaratilayotgan yengilliklar... Oliy o‘quv yurti talabalarining kontrakt to‘lovidagi yangiliklar... Bugun so‘z, ertaga qaror, indinga amaliyot bo‘ladigan bunday yaxshiliklar qachon bo‘lgan, yana qayda bor?

Ijarada turadigan talabalarning ham e‘tibordan chetda qolmagani uyda bolasini o‘ylab, ro‘zg‘ordan siqib bo‘lsa-da, unga besho‘n so‘m tugunib o‘tirgan onaizorlarni qancha sevintirdi ekan, ular

farzandining yotoq joyigacha o‘ylagan Prezidentimizni qanchalar duo qilishdi ekan...

Bu imtiyozlar, bu yengillik, bu imkoniyatlar bir-ikki odamning ko‘nglini ko‘tarib qo‘yadigan shaxsiy emas, yoshlar hayotida o‘tish, yuksalish pallasini boshlaydigan ijtimoiy hodisadir. Bu bugun bo‘lmasa ertaga ozginadan bo‘lsa-da, yerga ega bo‘lgan yigitda hosil barakasini ko‘rgach, mulkdorlikka havas uyg‘onadi, degani. Tengdoshlarining topish-tutishi orqasidan kelayotgan izzat-obro‘ni eshitgach, xorijda yurgan o‘g‘il-qizlarimizda ham yurtga qaytish istagi uyg‘onadi, degani.

O‘qish sifati ko‘tariladi degani, ilm bilan amaliyotda ham sifat o‘zgarishi bo‘ladi, degani. “Kasb-korsiz, ishsiz” degan ko‘ngillarni qabartiradigan so‘zlar bizga begonalashadi, degani.

Izimizdan kelayotganlar uchun shu tarzda quvonar ekanmiz, yana va yana o‘z yoshligimiz xotirga kelaveradi. Omon ismli maktabdoshimiz bo‘lardi. Tuzuk-quruq o‘qimagan, birov uning yaxshi o‘qishi uchun ham bosh qotirmagan. “Hamma o‘qiyversa, podani kim boqadi...” ruhida tarbiyalangan. O‘sha yigit uylanib, kasbi bo‘lmagani uchun oilasini boqa olmay, chet ellarga ketib, u yoqda ham sarson bo‘lib qaytgach: “Hech bo‘lmasa, urib-so‘kib chet elini o‘rgatishsa bo‘lar ekan, shunday bo‘lganda ham uyimga o‘sha tarafdardan ikkita non ko‘tarib kelardim”, deya armon qilgan edi.

Bugun bunday armonlar o‘rnini maqsadlar egallagan. Shunday onlarda tilimizga “Eh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi...” degan misralar keladi. Ha, aytmoqchi, yana bir asosiy gap bor: bu kunlarning har lahasini suv, havoday qadrlash kerak. O‘ylaymanki, zoq, yaqin o‘tmishimizni kitoblardan o‘qib, kinolardan ko‘rayotgan o‘g‘il-qizlarimiz bu ta’kidning mohiyatini yaxshi anglaydilar.

## **XALQNI ROZI QILAYOTGAN AMALLAR**

Bugun har bir hududda ro'y berayotgan keng ko'lamli yangilanishlar qizg'in tus olgan.

Islahotlar samarasi barcha maskanda bo'lganidek, Urgut tumanida ham yaqqol ko'zga tashlanib bormoqda. Samarqand viloyati hokimligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashabbusi bilan bir guruh ijodkorlar – olim-u murabbiylar, shoir-u yozuvchilar san'atkorlar hamda jurnalistlar ikki kun mobaynida Urgut tumaniga bo'ldik. Odamlarning kayfiyatini bilish, obodonlik ishlari bilan yaqindan tanishish, erishilayotgan yutuqlar, istiqboldagi rejalar xususida suhbatlashish maqsad qilingan safar davomida dillarni chirog'on etayotgan ko'pdan ko'p ezguliklarni ko'rdik.

Urgut – Samarqand viloyatining janubi-sharqiy tomonidagi tog'lar etagida, dengiz sathidan taxminan ming metr balandlikda joylashgan. Bir tomondan Qashqadaryo viloyati, boshqa tarafda qo'shni Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh.

Ayni paytda 512 mingdan ziyod aholi istiqomat qilayotgan tuman uzoq tarixga ega go'sha ekaniga bu yerda joylashgan qadimgi manzilgohlar va muqaddas qadamjolar yaqqol dalildir. O'zbekiston hududidagi eng qadimiy cholg'u asbobi – nayning Urgutdagi Mo'minobod qishlog'idan topilgani, olimlar uning naq uch ming yilga borib taqalishini chamalashgani ham bu manzilning qadimiylikidan darak beradi.

Bugun Prezidentimiz boshchiligida ko'z o'ngimizda ro'y berayotgan ulug'vor ishlar tufayli ming-minglab dillar shod bo'lmog'unda, nuroniylar duo qilmoqda, yillar davomida tushkunlikka tushib

amma narsadan umidini uzganlar qalbida ishonch uygʻonmoqda. Bularning bari inson manfaati, Vatanimizda umrguzaronlik qilayotgan barcha fuqarolarning haq-huquqlarini kafolatli himoya qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylanganiga ayni dalildir. Zotan, davlatimiz rahbari aytganidek: “Biz oʻz faoliyatimiz bilan, eng avvalo, xalqimizni rozi qilishimiz kerak. Agar bizning faoliyatimizdan xalqimiz rozi boʻlsa, Yaratgan ham bizdan rozi boʻladi”.

Urgutni qoʻli gul hunarmandlar, elakda ham suv tashishga qodir tadbirkorlar yurti, deyishadi. Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi farmoniga asosan “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilishi tumanning tadbirkor-u ishbilarmonlariga yanada keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Respublikamizda birinchilardan boʻlib tashkil etilgan ushbu iqtisodiy zonaning jami yer maydoni 1262 gektardan iborat. Iqtisodiy zona mavjud xomashyo va infratuzilmadan samarali foydalanib, qishloq joylarda sanoatni rivojlantirish, ish oʻrinlari ochishda muhim oʻrin tutmoqda.

Yaqin-yaqingacha oʻnqir-choʻnqir boʻlib, qarovsiz yotgan hududda “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi ish boshlashini, “Urgut shahri” barpo etilib, koʻp qavatli xonadonlar qad rostlashini hech kim xayoliga ham keltirmagan edi. Atigi oʻn besh-yigirma yil oldin qishloqdan tuman markaziga borish qanchalik mashaqqat boʻlgani esimizdan chiqqani yoʻq. Bugun esa deyarli har bir xonadonda yengil avtomobil bor. Tuman yoki viloyat markaziga borish, sayr-u sayohat qilishda ulov muammosi yoʻq. Tor va abgor koʻchar kengaytirilmoqda, asfalt yotqizilib, ravon yoʻllar qurilmoqda. Yoʻllarda mashina shunchalik koʻpki, bu manzarani kechagi kun bilan aslo solishtirib ham, taqqoslab ham boʻlmaydi.

Birgina iqtisodiy zonani oladigan boʻlsak, ish boshlaganiga hali koʻp oʻtmasdan, bu yerda qiymati 402 million AQSH dollari miqdoridagi 84 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda.

313 million dollarlik 55 ta loyiha bo'yicha ishlab chiqarish boshlangan, ularda 4328 kishi mehnat qilmoqda. Ushbu korxonalarda gilamlari, yengil sanoat va charm-poyabzal tovarlari, gilamlar, gigiyena vositalari, elektr texnikasi kabi 220 turdagi mahsulot ishlab chiqarilayotir. 2020-yilda 1,2 trillion so'mlik mahsulot tayyorlanib, 30 million dollarlik eksport qilingan.

Bugun tilimizda “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Renessans” so‘zlari ko‘p takrorlanmoqda. “Renessans” so‘zi “uyg‘onish, taraqqiyot, rivojlanish” kabi ma’nalarni ifodalaydi. Ayni paytda yurtimizda barcha sohalarda – u iqtisod bo‘ladimi, siyosat yoki ma’naviyatmi, qishloq xo‘jaligi yoki ta’lim, tibbiyot, turizm va yana boshqa yo‘nalishlardagi islohotlar, olamshumul tarixiy o‘zgarish va yangilanishlar Uchinchi Renessans davr poydevori sifatida baholanmoqda. Bu ishni Prezidentimiz boshchiligida siz-u biz, shu muqaddas va aziz Vatanimizning jonkuyari, mehnatkash, bunyodkor xalqi amalga oshiradi. Ayniqsa, zukko va yuksak intellektual salohiyatli yoshlardan umid katta. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari yigit-qizlarimizning yaxshi ta’lim-tarbiya olishi, zamonaviy fanlarni, chet tillarni puxta o‘rganishi, tadbirkor, ishbilarmon bo‘lishini istayapti, bunga imkoniyat yaratib bermoqda. Yoshlar bu imkoniyatni anglab, vaqtning qadriga yetib, har bir kundan, har bir lahzadan unumli foydalanishi kerak.

Yangi O‘zbekistonda har bir sohaga qaratilayotgan yangi ehti- munosabat o‘z mevasini ko‘rsatmoqda. Masalan, “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi hududidagi “Kamalak tekstil” korxonasida gilam va tafting mahsulotlari, sintetik ip va sun‘iy chim ishlab chiqarilmoqda. Korxonaga Belgiya, Shveysariya, Avstriya, Fransiya va Germaniyaning zamonaviy, energiya tejoychi uskuna va jihozlar o‘rnatilgan. 328 ta ish o‘rni yaratilgan. O‘tgan yili bu yerda tayyorlangan 170 milliard so‘mlik mahsulotning 59 foizi ichki bozorga

- foizi xorijga sotilgan. Joriy yilda 7,5 million dollarlik mahsulot eksport qilinishi rejalashtirilgan.

“Samelektroservis” mas’uliyati cheklangan jamiyati “Ideal” zavodi ostida yiliga 260 ming dona elektr duxovka, 150 ming dona gaz plitasi va ular uchun qo‘shimcha buyumlar ishlab chiqarish davratiga ega. Unga Germaniya, Turkiya va Xitoydan zamonaviy, energiya tejovchi uskuna va jihozlar keltirib o‘rnatilgan.

2020-yilda umumiy qiymati 58 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, uning 32 foizi xorijga eksport qilingan. Joriy yilda 2 million dollarlik eksport ko‘zda tutilgan.

“Urgut” erkin iqtisodiy zonasida ayni paytda qiymati 90 million dollarlik 29 ta loyiha bo‘yicha qurilish-montaj ishlari bajarilmoqda. Mazkur loyihalar ishga tushirilishi natijasida yana ikki mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratiladi.

*Bundan tashqari, qiymati 144 million dollarlik 21 ta qo‘shimcha loyiha shakllantirilgan, qiymati 206 million dollarlik 33 ta istiqbolli loyiha amalda amalga oshirish rejalashtirilmoqda.*

- Prezidentimizning “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi faoliyati haqida tanishib, tadbirkorlar va faollar bilan suhbatlashgani, Urgutni rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni belgilab bergani oldimizdagi yangi marralar qo‘yib, mehnat qilishga undadi, – deydi ijodkorlar bilan suhbatda tuman hokimi B.Jabborov. – Avvalo, butun tumanimizdan iqtisodiy zona sifatida foydalanish imkoniyati yaratilayotgani va holding kompaniya tashkil etilayotgani, Urgut innoatsion hududga aylanayotgani, tumanning yangi markazini bunyod qilish harakati boshlangani, Samarqand davlat universiteti filiali ishlayotgani va boshqa yangilik, o‘zgarishlar, albatta, aholi kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, barchamizga jo‘shqinlik bag‘ishlaydi. Nafaqat mahalla va qishloqlarimiz miqyosida, balki xonadonlar, oilalarda ham yangicha yashashga, yangicha mehnat qilishga ishtiyoq uyg‘ondi. Qisqa vaqt ichida yuzdan ziyod tadbirkorlik subyekti



ish boshladi, bir nechta yangi korxonalar ishga tushdi, O‘roqboyjar, Vatkan-Qo‘zibek qishloqlarida “Obod qishloq” dasturlari asosida Mang‘itobod, Soy, G‘o‘s mahallalari va tuman markazida o‘z ichki imkoniyatimiz, homiylar yordami bilan obodonlashtirish-bunyodkorlik ishlari boshlandi. Bu kabi ishlarga joylardagi uchrashuvlar davomida o‘zingiz ham guvoh bo‘lasiz.

Safarimiz Urgutning janubiy sarhadiga yaqin hudud – Kenagasdan boshlandi. Bu qishloqda xalqimizning taniqli ziyolilaridan biri Barot Boyqobilov tavallud topgan. Barot aka o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos iz qoldirdi. Uning she‘rlari, sonetlari, “Yangi Xamsa”, “O‘zbeknoma” singari asarlari adabiyotimizda muhim o‘rin egallagan. B.Boyqobilov Toshkentda umrining so‘nggi yillariga qadar ishlagan bo‘lsa-da, har doim Urgutga, Kenagasga intilib yashadi.

Yaxshidan bog‘ qoladi, deb bejiz aytishmagan. Barot aka so‘zning asl ma‘nosida ham, ko‘chma ma‘noda ham o‘zidan bog‘ qoldirib ketdi. Ona qishlog‘ida o‘z qo‘li bilan yaratgan bog‘i – “Xamsa bog‘i” deb ataladi. Bog‘ hududidagi mo‘jazzgina uy-muzeyda shoirning kitoblari, qo‘lyozmalari, shaxsiy buyumlari turibdi.

Urgut G‘o‘s qishlog‘ida joylashgan G‘avsul A‘zam ziyoratgohi bilan ham dong taratgan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, qishloq nomi ham aslida “g‘avs” so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lishi mumkin. Qishloqning eng yuqori qismida joylashgan bu ziyoratgoh XI–XII asrlarda yashab o‘tgan buyuk alloma, qodiriya tariqati asoschisi G‘avsul A‘zam Abu Muhammad Muhyiddin Sayyid Abdulqodir G‘iloniyning muborak nomlari bilan bog‘liq.

G‘avsul A‘zam hazratlari 1166-yilda Bag‘dodda vafot etgan. Ul kishining haqiqiy maqbaralari ham ayni paytda ushbu shaharda joylashgan. G‘o‘sdagi qadamjo ul zotning ramziy maqbarasi, xolos.

Shunday qutlug‘ qadamjo ilgari nomigagina bor edi. Unga eladigan yo‘l o‘ta xarob va tor bo‘lgani bois, ziyoratchilar uchun katta qiyinchiliklar tug‘dirganini qishloq keksalari ham aytib berdi. Mazkur manzilga fayz-u ko‘rk baxshida etib, el-u yurtning duosini qilish baxti Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga nasib etgan. U kishini Samarqand viloyatida hokim bo‘lgan paytlarida nafaqat ushbu qadamjoni, shuningdek, Chor chinor mavzesini va tumandagi mana shu kabi yana juda ko‘p ziyoratgohlarni obod go‘shaga aylantirishga bosh-qosh bo‘lganini tuman ahli alohida mehr va mamnuniyat bilan tilga oladi.

Ziyoratgohdan ruhiyatimiz tetiklashib, qishlog‘-u mahallalarni aylandik. O‘zimiz yozda changitib, qishda loy kechib katta bo‘lgan qishloqlarimizga *bu gal ustozlar-u shogirdlar, do‘stlar hamrohligida* borar ekanmiz, xuddi birinchi marta kelayotgandek hayajonlandik. Bolalik yillaridan qadrdon, tamasiz, manfaatsiz hurmat qiladigan qishloqdoshlarning samimiyatga to‘la, mehr balqqan nigohlariga taqib, ular uchun, Vatan uchun juda ko‘p ishlarni amalga oshirishning, xizmat qilishning kerakligini anglab yetasan.

Xuddi shunday mehr taftini “Qoratepa” mahallasida ham yaqqol taft etdik.

Qoratepa! Bu qishloq tabiatning betakror yodgorligi Teshiklash bilan ham mashhur. Uzoqdan qaraganda boshmaldoq va qirsatkich barmoqning birikuvidan “yasalgan” halqani eslatuvchi tabiiy tabiiy obidani siz butun dunyoga mashhur aktyor Goyko G‘itich ishtirokida 1974-yilda suratga olingan “Apachi” filmida ham ko‘rgansiz. Urgutning “dengizi” – Qoratepa suv ombori ham, Samarqand-u Keshni bog‘lab turgan Taxtaqoracha dovoni ham shu yerda. Ayniqsa, bu joydan quyosh chiqishini kuzatishning gashti boshqacha.

“Qoratepa” mahallasidagi 41-maktab hovlisidan boshlangan diyordashuv mavzusi o‘z-o‘zidan adabiyotga borib taqaldi. Bu ham

bejiz emas. Chunki mazkur maktabda taniqli yozuvchi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Asad Dilmurod tahsil olgan. O‘zining “Sherdor”, “Afrosiyob sukunati”, “Mahmud Torobiy”, “Pahlavon Muhammad”, “Fano dashtidagi qush” singari qator qissa va romanlari bilan nom qozongan ijodkor bugun hayot bo‘lganida 74 yoshni qarshi olardi. Uning xotirasiga atab maktabda muzey tashkil etilgani esa chinakam ehtirom ramzi bo‘libdi. Mo‘jazgina muzey Asad Dilmurodning o‘quvchilik, talabalik yillaridan, ko‘p yillar fidoyilarcha mehnat qilgan ish joylaridan so‘zlaydi.

Maktab faollar zalida bo‘lib o‘tgan tadbirda yozuvchining hayoti va ijodi tilga olinib, uning adabiyotga mehri, ayniqsa, so‘zga, so‘z tanlashga bo‘lgan mas‘uliyati bugun yetishib chiqayotgan yosh qalam ahli uchun ibrat vazifasini o‘tashi ta’kidlandi.

“Dehqonobod” mahallasida aholi va yoshlar vakillari bilan uchrashuvda ham 37-umumta’lim maktabi o‘quvchilari faol bo‘ldi. Shu mahallada yaqinda ochilgan “Shirin’s day care” maktabgacha ta’lim tashkilotida bolajonlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bizni lol qoldirdi, desak mubolag‘a bo‘lmas. Rost, bunaqa qulaylik, shart-sharoitlar uncha-muncha shaharlardagi bog‘chalarda ham yo‘q. Devordagi suratlardan tortib, turfa o‘yinchoqlargacha, bejirim karavotchalar, stol-stullardan to‘yerdagi to‘shamalar, tashqaridagi sport maydonchalarigacha – hamma-hammasiga bolalar ruhiyat ularning beg‘ubor dunyosidan kelib chiqib yondashilgan.

Bugun tumanda ta’lim-tarbiya ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. 143 ta maktab mavjud bo‘lsa, 2021-yilda 15, 28 va 84-maktablarda investitsiya dasturi asosida rekonstruksiya va mukammal ta’mirlash ishlari olib borildi.

6-maktabning 784 o‘rinli binosi 4 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ hisobiga mukammal ta’mirlanayotir. Davlat ishtiroki va homiylar ko‘magida xususiy bog‘chalar qurilib, jajji farzandlarimizning munosib ulg‘ayishi uchun ulkan zamin hozirlanmoqda.

Obodonlik yumushlari “Mang‘itobod” mahallasida ham uyushqoqlik bilan o‘tkazildi. Bu ishlar shunchalik tez va sifatli bajarildiki, haliyam duv-duv gapning tafti va hayajoni bosilgani yo‘q.

– Bu xayrli va keng ko‘lamli ishlar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q, – deydi “Mang‘itobod” mahallasida yashovchi nuroniy Xudoynazar ota Salimov. – Prezidentimizning qishloq hayotini yaxshi bilishi, muammolarni dildan his etishi, asosiysi, shu xalqni jon-u dildan yaxshi ko‘rib, uni rozi qilishga intilishi tufayli mana shunday natijalarga erishyapmiz. Qisqa fursatda mahallamizda ikkita bolalar bog‘chasi foydalanishga topshirildi. Ikkita maktab ishlab turibdi. Ko‘chalarimizga asfalt yotqizilmoqda.

Tumanda turli inshootlar, ishlab chiqarish korxonalari, turar joy binolari tobora ko‘payib bormoqda. Jumladan, yaqinda tuman markazida yangi Urgut jome‘ masjidida foydalanishga topshirildi.

Milliy va zamonaviy me‘morlik an‘analariga muvofiq tarzda bunyod etilgan ushbu maskan 10 mingdan ortiqroq kishini o‘z bag‘riga sig‘dira oladi va shu ko‘rsatkichga ko‘ra, hozircha Samarqand viloyatidagi eng katta masjid hisoblanadi. Homiylar ko‘magi va xalq hashari yo‘li bilan tiklangan bu masjid chindan ham Urgutning ko‘rkiga baayni uzukka ko‘z qo‘ygandek mos tushibdi. Masjid ichidagi naqshi nigorlar temuriylar davriga xos me‘moriy bezaklarni yodga soladi. Masjid ravoq-u devorlarida Qur‘oni karim oyatlari, ilm va ezgulikka da‘vat etuvchi hadisi shariflar, Alloh taoloning 99 ismi darj etilgan.

Masjid imom-xatibi Shodi hoji Haqberdiyev bilan ushbu poklik maskanining qurilish tarixi, Urgutda yashab o‘tgan aziz-avliyolar, yurtimizda din-u diyonatni saqlash bobida amalga oshirilayotgan buyuk ishlar haqida suhbatlashdik.

Shodi hojini Urgut ahli yaxshi biladi, ixlos-u ehtiromla tilga oladi. Chunki u kishi diniy qadriyatlar oyoqosti qilingan paytlarda ham, turli aqidaparast oqimlar jamoat orasiga qutqu solishga urin-

gan damlarda ham xalqning yonida bo‘lgan, oqni qoradan, haqni botildan ajratishga ko‘maklashgan.

– Qutlug‘ dargohdan, Allohning uyidan quruq ketmanglar! – deya Shodi hoji har birimizga bittadan Mus‘hafi sharif hadya qildi.

Mamlakatimizdagi ulkan bunyodkorliklar, kundan kun chiroy ochib borayotgan shahar-u qishloqlarimiz, eng muhimi, odamlar ong-u tafakkuridagi o‘zgarishlar orzularimiz ushalayotganidan darakdir. Shu ma’noda Alisher Navoiyning mana bu misralari ham ayni dilimizdagini ifodalagani bilan alohida qadrlidir:

*Kim qilsa imoratki, qadr topgay,  
Chun ismi tarixlarda boqiy qolgay,  
Ne choqqacha ul binoki ma‘mur bo‘lib,  
Ani ismi el tiliga mashhur bo‘lgay.*

## **AFV INSTITUTI**

### **adashganni to'g'ri yo'lga solish, oilalarga to'kislik, kentik ko'ngillarga shodlik ulashish imkoniyati**

Hayit kunlarida xalqimizning o'zaro mehr-oqibat, xayr-saxovat, bag'rikenglik va kechirimlilik kabi ezgu fazilatlari yanada ko'proq namoyon bo'ladi.

Prezidentimizning "Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmoni buning yorqin tasdig'idir. Unga muvofiq, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan yuzlab fuqarolar afv etildi. Bu xushxabar qancha-qancha oilalarga quvonch olib kirdi, ota-ona mehridan mosuvo yashayotgan ko'plab bolalarning bag'ri but bo'ldi.

– Shu o'rinda, kimlarga nisbatan afv qo'llaniladi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunga javoban shuni aytish lozimki, o'z qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lgan, butkul tuzalish yo'lga o'tgan, oilamga, xalqimga xizmat qilaman, deya o'z oldiga qat'iy maqsad qo'ygan shaxslarga nisbatan bu imkoniyat berilmoqda, – deydi Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi o'rinbosari Shuhrat Cho'lliyev. – Buning uchun bu borada qilingan barcha murojaatlar joylarga chiqqan holda sinchiklab o'rganiladi, har bir murojaatchi bilan alohida suhbat o'tkaziladi. Ular bilan davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorlikda ish olib boradi. Maqsad bitta – afv etilgan shaxslar oilada, hayotda o'z o'rnini topsin, mahallada, jamiyatda tinchlik-totuvlik muhiti barqaror bo'lsin.

Ma'lumki, jinoyat sodir etgan shaxs nafaqat o'zi, balki farzandlari, ota-onasi, qavm-qarindoshlarining ham kelajagi va taqdiriga ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Ozodlikdan mahrum bo'lgan kishi farzandlarini o'z mehridan mosuvo qiladi, ota-onasini ham ayriliq va iztirobga muhtalo etadi. Shu sababli, xato qilgan va bugungi kunda qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lgan shaxslarni kechirish yuksak insonparvarlik namunasi bo'lib, bu qancha-qancha oilalarni yangidan hayotga qaytarish bilan barobardir. Bu imkoniyatni yuksak qadrlamoq, bildirilgan ishonchni oqlamoq ulkan mas'uliyatdir. Afv etilganlarning barchasi buni chuqur anglab, hayotning qadriga yetishga intilayotgani quvonarli.

– Panjara ortida o'tgan yillarda ozodlik qanchalar ulug' ne'mat ekanini, oilaning o'rmini chuqur angladim, – deydi afv etilganlardan biri. – Mening ortimdan farzandlarim, nabiralarim ham aziyat chekdi. Qilgan ishimdan chin dildan pushaymonman. Boshqa bunday nomaqbul yo'llarga aslo qadam bosmayman. Menga berilgan bu imkoniyatning albatta qadriga yetaman, oilamga suyanchiq, bolalarimga bosh-qosh bo'laman. Xalqimga halol xizmat qilaman.

– Gulday umrim panjara ortida o'tib ketdi, so'nggi damlarda onamning yonida bo'lolmadim, duolarini ololmadim, – deya afsus bilan so'zlaydi boshqa bir afv etilgan shaxs. – Qilmishimga mingdan-ming pushaymonman. Bu xatoni aslo takrorlamayman. Meni kechirgani uchun Prezidentimiz va xalqimizdan minnatdorman. Bu ishonchni oqlash uchun oilamga, yurtimga sidqidildan xizmat qilaman.

– Jazoga hukm etilganimda katta farzandim besh yoshda, kichigi bor-yo'g'i ikki oylik chaqaloq edi, – deya suhbatga qo'shiladi afv etilganlardan yana biri. – Afsuski, ularning yonida bo'lolmadim. ota mehrini berolmadim. To'g'risi, yaqin o'rtada ozodlikka chiqaman, bu yilgi Ramazon hayitini uyimda nishonlayman, deb tasavvur ham qilmagan edim. Prezidentimizga katta rahmat, menga yuksak

ishonch bildirib, muddatidan oldin afv etdi. Buni oqlash uchun halol mehnat qilaman, oilamga, bolalarimga tirgak bo'laman.

Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish bosh boshqarmasi boshqarma boshlig'i Jamshid Sultonovning aytishicha, jazoni ijro etish muassasalarida faoliyat yuritayotgan kasb-hunar markazlarida besh yuz nafardan ortiq mahkumga turli kasblar o'rgatilyapti. Hunarmand uyushmasi bilan hamkorlikda 1720 nafar mahkumga xalq amaliy san'ati sirlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etilgan. Bu imkoniyat jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarning muayyan kasb egasi bo'lishi, ozodlikka chiqqach, jamiyatga tezroq moslashib, hayotda o'z o'rnini topishiga katta imkoniyat yaratmoqda.

Farmonga muvofiq, afv etilgan shaxslarni oila va hayotga moslashtirish, salomatligini tiklashga ko'maklashish, bandligini ta'minlash bo'yicha tegishli davlat va nodavlat tashkilotlarga bir qator vazifalar belgilab berilgan. Xususan, mahallalar tomonidan ham bu yo'nalishda tizimli ish olib boriladi.

Alohida qayd etish joizki, avvalo, afv etilgan har bir shaxs bilan suhbatlashib, muammolari o'rganiladi. Bir martalik moddiy yordam bilan ta'minlash chorasi ko'riladi. Bundan tashqari, tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, agar kasallik aniqlansa, tegishli shifo muassasasiga joylashtiriladi. Tadbirkorlik qilish istagida bo'lganlarga o'z faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'maklashiladi. Afv etilgan shaxsga mahalla faollaridan murabbiy biriktiriladi, har bir muammoni hal etishda uning doimiy yonida ko'makchi bo'ladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan so'nggi yillarda tobora takomillashib borayotgan afv instituti adashganlarga imkoniyat, oilalarga quvonch, kemtik ko'ngillarga to'kislik baxtini ato etadigan muhim umuminsoniy qadriyatga aylanmoqda. Bu esa, yurtimizda tinchlik-farovonlikni ta'minlash, bag'rikenglik va ma'naviy-ma'rifiy barqarorlik muhitini mustahkamlashda muhim omil bo'layotir.



**TINCHLIK TILAB  
DUNYOGA...**

Sevganga, sevilganga  
Jon aziz, jonon aziz,  
Yaratgan, yashnatganga  
Har lahza, imkon aziz.

Bu Yangi O'zbekiston,  
Dovrug'i tilda doston!  
Yangi O'zbekistonda  
El aziz, inson aziz.

Ey qo'li qadoq xalqim,  
Niyati chiroq xalqim,  
Tinchlikdan porlab tursa,  
Yer aziz, osmon aziz.

Do'stlikni tumor tutgan,  
Diydorni xumor kutgan,  
Shu muqaddas Vatanda  
Doimo mehmon aziz.

Bobolari xudojo'y,  
Momolari duogo'y.  
Yoshlari shiddatiga  
Yarashtirgan shon aziz.

Tinchlik tilab dunyoga  
Yo'g'rilmishdir ziyoga.  
Bu zamin osmonida  
Har bir qushga don aziz.

Tandirga chiroy sochgan  
Nasibamiz – non aziz.  
Yangi O'zbekistonda  
El aziz, inson aziz.

Omon-omon omonda,  
Dorulomon zamonda,  
Karvoni katta yo'lda,  
Jonfido sarbon aziz!

Yangi O'zbekistonda  
El aziz, inson aziz.

**YUKSAK E'TIBORDAN QUVONIB,  
SOG'AYGANDEK BO'LDIM**

Soya-salqin yo'lak bizni ikki qavatli zamonaviy va shinam binoga eltdi. Binoning ikkinchi qavatida hayot qaynamoqda.

Bu yerda – Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy markazining bolalar onkologiyasi bo'limida muolaja olayotgan bolalar va yoshlar o'z orzu-umidlari, intilishlari haqida bir-birlariga so'zlab beradi. Yorug' kelajak haqida shirin xayollar suradi. Shu kunlarda esa ularning dili-yu tilida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuv taassurotlari. Dardlar yengillagan. Ota-onalar ko'zida farzandlariga ulashilgan quvonchdan minnatdorlik hissi seziladi.

Davlatimiz rahbarining nafaqat shaharlar, balki chekka-chekka qishlog'-u mahallalarda yashaydigan yurtdoshlarimiz xonadoniga borib, odamlar holidan xabar olayotganiga ko'zimiz ancha o'rganibdi.

Prezident bilan uchrashganlarning barchasidan “Prezidentimiz samimiy inson ekanligi haqida juda ko'p eshitgandik. Chindan ham shunday ekanlar” yoki “Davlatimiz rahbari bilan uchrashuv hayotimni butunlay o'zgartirib yubordi”, degan e'tiroflarni eshit-yapmiz.

Shavkat Mirziyoyev Ramazon hayiti arafasida mazkur markazga tashrif buyurib, bolalar onkologiyasi bo'limida muolaja olayotgan bolajonlar holidan xabar oldi. Ular bilan suhbatlashib, ota-onalariga dalda bo'ldi. Ularni qiynayotgan muammolarga quloq tutdi.

– Onkologik kasalliklar katta mablag‘ va yuqori tibbiy imkoniyatlar talab qiladi, – deydi bolalar onkologiyasi bo‘limi mudiri Tojiddin Mustafoyev. – Kasallikning yildan yilga “yosharib” borayotgani yanada xavotirli. Prezidentimizning muborak kunlarda aynan onkologiyaga ixtisoslashtirilgan markazga tashrif buyurgani ham bejiz emas. Men ham shifokor, ham ota sifatida aynan sharif ayyomda bolalarni yo‘qlagan davlatimiz rahbaridan juda minnatdor bo‘ldim. Bolalarning quvonchini, ota-onalar ko‘zidagi minnatdorlikni so‘z bilan ta’riflab berolmayman. Yaxshisi, o‘zlari bilan suhbatlasha qoling.

### **“Hali O‘zbekiston bayrog‘ini jahon uzra hilpiratib yuraman”**

9-palataning ochiq eshigidan ichkariladik. Salom bergan qizni tabassumidan tanidik. Televizorda ko‘rganimiz – Sochi shahrida mamlakatimiz bayrog‘ini hilpiratgan namanganlik qiz – Nodirabegim Qosimova.

– Ramazon hayitini shifoxonada o‘tkazishni aslida kim ham istaydi?! Nachora, taqdir ekan. Biroq aynan mana shu kun bolalar qalbiga haqiqiy bayram bo‘lib kirdi, – deydi Nodirabegimning onasi Komila Otaxonova. – Markazga Prezidentimizning o‘zlari kelib, ota-onalar, bolalar bilan suhbatlashdi. Men qizimning yaqinda operatsiyadan chiqqanini, bu dardga to‘satdan yo‘liqqanini, avval Sochidagi tanlovda qatnashganini aytdim. Shu orada suratga tushdik. Men qizimning davlatimiz rahbari bilan uchrasa olmasligidan, to‘g‘risi, biroz o‘kindim. Chunki boshqa bolalarning o‘sha paytdagi quvonchini bir ko‘rsangiz edi... Birma-bir xonalarga kirib chiqar ekan, qizim yotgan palataga ham kirib, u bilan salomlashib, meni chaqirtirdilar. Qizim baribir bola-da,

suratga tushish uchun telefon izlashga tushib qoldi. U kishi biz bilan suratga tushib, chiqartirib olib kelib berishlarini aytdi. Nodirabegimning orzularini so‘radi. Men Prezidentimizning avval ham oddiy va samimiy inson ekani haqida eshitgan edim, yuzma-yuz ko‘rishib suhbatlashgach, bir bemor qizning ko‘nglini ko‘tarish uchun vaqt ajratganlariga guvoh bo‘lgach, bunga yana bir bor amin bo‘ldim.

Nodirabegim ota-onasining tilab olgan farzandi. Singlisi ham shunday. Ularning orasidagi farq o‘n yosh. Onaizor – Komila opa uch yashar go‘dagini bobo-buvisiga qoldirib, o‘zi katta qizining ortidan yuribdi. Ona-bolaning kayfiyati uchrashuvdan so‘ng a‘lo. “Men albatta tuzalaman, deb Prezidentimga so‘z berdim. Va‘damning ustidan chiqishim kerak. Hali O‘zbekiston bayrog‘ini jahon uzra hilpiratib yuraman”, deydi Nodirabegim.

### **“Men ishonchni, albatta, oqlayman”**

Orzu va niyatlar, intilishlar inson umriga mazmun kiritadi. 17 yoshli Sabrina Insofaliyeva Chust tumanining Olmos qishlog‘idan. Bir yil avval to‘satdan uning o‘ng oyog‘ida og‘riq boshlandi. Shifokorlar o‘ng son orqa yuzasi neyrogen sarkomasi tashxisini qo‘yishdi. Uch marta jarrohlik amaliyotini boshidan o‘tkazdi. Tushkunlikka tushib qolgan kunlarida Sabrining hayotida Prezident bilan uchrashuv unutilmas voqeaga aylandi. Uning orzusi o‘zi ta‘kidlaganidek, “GAI” xodimi bo‘lish edi.

– Biz o‘sha kuni unutilmas “hayitlik” oldik. Sovg‘a sifatida badiiy kitoblar, planshet va shirinliklar ulashildi. Meni eng quvontirgani, Prezidentimiz menga Germaniyadanmi, Amerikandami xuddi o‘z oyog‘imdek tayanch bo‘ladigan protez keltirib berishlarini, buni shaxsan o‘zlari nazorat qilishlarini aytdilar.

Ichki ishlar vazirligi mas'ullari yo'l harakati xavfsizligi xodimining maxsus libosi, IIV YHXBB faxriy a'zolik guvohnomasi hamda esdalik sovg'alari bilan tashrif buyurib, ularni Sabrinaga topshirdi.

“Men kasal ekanimni tamoman unutdim. Qaniydi, imkon bo'lsa-yu, shu zahoti ishonchni oqlash uchun ishga kirishsam, deb ich-ichimdan niyat qildim. Tuzalishni, bildirilgan ishonchni oqlashni qat'iy maqsad qildim. Bilasizmi, Prezidentimiz bilan tushgan surat ham menga kuch beryapti”, deydi Sabrina ko'zlari quvonchdan yashnab.

### **Bosh vazir o'rinbosari Saidjon bilan shaxmat o'ynadi**

Shavkat Mirziyoyev bilan suhbatlarda bolalar o'z orzulari qatorida qiziqishlarini ham sanab berishgandi. Ularning aksari sportga, xususan, shaxmatga qiziqishini bildirgan. Prezidentimiz topshirig'iga muvofiq, bolalarga shaxmat doskalari sovg'a qilindi, soha mutaxassislari bolalar bilan shaxmat o'ynashdi, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdi. Bemor bolalar va ularning ota-onalariga bu katta quvonch bag'ishladi. Ayniqsa, Farg'ona shahridagi 28-maktabning 3-sinf o'quvchisi Saidjon Salimjonovning quvonchi bir olam. Boisi, maktabdagi darslar bilan shaxmat mashg'ulotlarini birgalikda olib borayotgan Saidjonning salomatligida muammo paydo bo'lgach, mashg'ulotlar yarim yo'lda qolib ketgan edi. Uning aytishicha, bosh vazir o'rinbosari – turizm va sport vaziri Aziz Abduhakimov bolakay bilan shaxmat o'ynagan. Bu Saidjonning kayfiyatini ko'tardi.

– O'g'lim besh yoshga to'lganda uni Farg'ona shahrida shaxmat to'garagiga olib bordik. Murabbiy Adhamjon Eminov mashg'ulot-

lari unga katta maktab bo‘ldi. Musobaqalarga qatnashdi. Ayni paytda Saidjon Xalqaro shaxmat akademiyasining viloyat filiali o‘quvchisi hisoblanadi. Prezidentimiz o‘g‘limning shaxmatga qiziqishini eshitgach, bunga alohida e‘tibor qaratilishini ta’kidladi. Unga professional doska sovg‘a qilishdi. Bu yerda ham vaqti mazmunli o‘tishi uchun murabbiy tayinlashdi. Hozir mashg‘ulotlarni boshladi, – deydi Saidjonning onasi Muhayyo Ziyoyeva.

Prezident bilan suhbatlashishni istagan, biroq hayajonlanib gapira olmagan sakkiz yoshli Oynurning onasi Dilfuza Sultonova ham davlat rahbarining tashrifi unga katta dalda bo‘lganini ta’kidladi. Oynur Dilfuza opaning “supra qoqdisi”. Uch-to‘rt oy avval oyog‘idagi kuchli og‘riqdan shikoyat qilgan qizini hali u tibbiyot muassasasiga, hali bunisiga olib borib, oxiri shu markazda aniq tashxis qo‘yilganini ko‘zida yosh bilan hikoya qildi.

– Prezidentimiz bu kunlar bir sinov ekanligini aytib, “Ilohim, mana shu bolalarning ham kasalligi esdan chiqib, xalqimizga xizmat qiladigan farzandlar bo‘lib yetishsin. Ulug‘ ayyom kunlarida Xudodan shuni so‘raymiz”, – dedilar. Shu kuni davlatimiz rahbarining ezgu niyatiga qancha odam “omin” dedi. Biz ota-onalar bundan juda xursand bo‘ldik.

## **Sohada tub burilishlar davri boshlandi**

– So‘nggi yillarda mamlakatimizda onkologiya sohasiga yuksak e‘tibor qaratilmoqda, – deydi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy markazi bo‘lim mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi Olim Imomov. – Jumladan, 2017-yil 4-aprel sanasida soha uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qaror qabul qilindiki, shu kunga qadar onkologiya bo‘yicha hukumat darajasida biror qaror yo‘q edi. Prezidentimizning “2017–2021-yillarda

O‘zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko‘rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan onkologiya yo‘nalishi tubdan o‘zgardi.

Ayni paytda markazda 10 ta davolash korpusi mavjud bo‘lib, 370 o‘ringa mo‘ljallangan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda, Toshkent va Qo‘qon shaharlarida markazning hududiy filiallari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning har birida palliativ yordam bo‘limlari tashkil etilgan. Hududiy onkologik muassasalar 22 ta zamonaviy nur terapiyasi uskunalari bilan jihozlangan. Tibbiyot markazi bilan filiallar o‘rtasida telemeditsina amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. So‘nggi uch yilda 150 dan ortiq mutaxassis jahonning nufuzli tibbiy klinikalarida davlat hisobidan bilim va malakasini oshirib qaytdi. Markazga Prezidentimiz tashrifidan so‘ng yangi bino quriladigan bo‘ldi.

Yurtimiz kundan kun buyuk evrilishlarga yuz tutmoqda. Bu o‘zgarishlarni ko‘zimiz bilan ko‘rib, suhbatlarda eshitib guvoh bo‘lib turibmiz. Markazdan chiqar ekanmiz, beixtiyor hazrat Navoiyning mashhur bayti tilimizga ko‘chdi:

*Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,  
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.*



## **ORZULAR USHALMOQDA**

– Yangilikni eshitdinglarmi?

– Yo'q, nima yangilik ekan?

– Unda bexabar qolmang, har bir xonadonga bir qopdan un tarqatishayotgan ekan.

– Iye, shunaqami? Borib olaylik bo'lmasa ulushimizni.

– Qo'ysang-chi, Xudoga shukur, ustimiz but, qornimiz to'g' bo'lsa. Topganimiz oila tebratishga yetib turibdi. Bu mahsulotlar hoynahoy kam ta'minlangan nochor oilalarga tarqatilayotgan bo'lsa kerak.

– E, ha, shunday bo'lsa kerak. Biz hovliqib, eldan qolmaylik deb un olishga bormoqchi bo'lib turgandik...

Bular pandemiya balosi xalq boshiga tushib turgan, odamlar nima qilishni bilmay qolgan dastlabki paytlarda bo'lib o'tgan gap-so'zlar edi.

Biz bir-birimizga nonday aziz, qadrdon, mehribon xalqmiz. Ota-bobolarimizdan qolgan, qon-qonimizga singib ketgan kattaga hurmat, kichikka izzat, nochorlarga mehr-muruvvat ko'rsatishga. ularning og'irini yengil qilishga oshiqamiz.

Pandemiya davrida bag'rikeng, qo'li ochiq tadbirkor yigitlar qiynalganlarga saxovat qo'lini uzatib, elning duosini oldi. Xalqimiz ularning olgani oltin, topgani dur bo'lishini chin ko'ngildan tilaganini, saxovatlaridan ko'ngli to'lganini, minnatdor bo'lganini esdan chiqarganimiz yo'q.

Non – inson rizqi. Shuning uchun nondek aziz, ulug‘roq ne‘mat yo‘q.

Kimni ko‘rsang, gap aylanib kelib nonga taqaladi. Oilasini ta‘minlash, qora qozonni qaynatish uchun tirikchilik g‘amida yurganini aytadi.

Hech kimga sir emas, mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimiz iqtisodiyoti og‘ir ahvolda edi. Xalqimiz qiynalib qoldi. Birda bor, birda yo‘q, deganday qozon qaynamadi, gohida bizni yo‘qlab kelgan mehmon oldiga qo‘yishga non topolmay, qisingan paytlarimiz ham bo‘lgan. Xudoga shukurki, asta-sekin tirikchiligimiz o‘nglana boshladi, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz tiklandi, ko‘plab masjidlar ochildi, o‘z tilimizda gapirishdan uyalmaydigan, millat sifatida tilimiz bilan faxrlanadigan bo‘ldik.

Ota-bobolarimiz “Birov tonib kekiradi, birov to‘yib kekiradi”, deganiday, g‘animat kunlarning qadriga yetmay, “to‘yib kekirish” kasaliga yo‘liqib qolish bor ekanini aytmasak bo‘lmas. Masalan, pandemiya sal yengillashgan vaqtda to‘y-ma‘rakalarni ozchilik odam bilan o‘tkazishga ruxsat etilganiga qanoat qilmay, 30-50 kishi o‘rniga to‘yxonalarni 500-600 odam bilan to‘ldirib, hatto undan-da ko‘proq mehmonlarni taklif etib, to‘qlikka sho‘xlik qilayotganlar borligi ham rost. Nahotki, sog‘lig‘imiz o‘zimiz uchun, oilamiz uchun kerak bo‘lmasa?! Tansihatlik, xotirjamlik bo‘lmasa, yig‘gan mol-dunyomiz, to‘plagan boyligimizdan ne umid, ne xayr bo‘lardi, deysiz?

Bu fikrlar topgan pulini to‘y-ma‘rakaga sovurib, isrof etib, o‘zining kimligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘lgan, o‘zidan boshqalarni unutgan zamondoshlarimizni oz-moz o‘ylantirsa, mulohaza qilishga undasa, juda ma‘qul bo‘lar edi.

Mamlakatimizda qo‘lida hunari bor, oilasiga, jamiyatga foydasi tegadigan fuqarolarga tadbirkorlik qilishga keng yo‘l ochildi. O‘z kasbidan kamol topib, oilasini obod qilayotganlarni, no-

chorlarga yordam qo‘lini cho‘zayotganlarni har birimiz yaxshilay bilamiz. Mamlakat farovonligi uchun jon kuydirayotgan insonlarning halol non-nasiba topayotganini ko‘rib turibmiz. Kam bag‘allikka barham berilsin, har bir fuqaro birovga muhtoj bo‘lmay, farovon yashasin. Eng oliy maqsad – ana shu. El yaxshi yashasa, mamlakat obod, mamlakat obod ekan, rivojlanish bo‘ladi.

O‘tgan besh yil Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun juda quvonarli va esda qolarli tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. Prezidentimiz qariyb bir asr mobaynida suvi qurib borayotgan, oqibatda yer yuzi ekologiyasiga juda katta salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan Orol fojiasiga BMT bosh minbaridan turib dunyo hamjamiyatining e‘tiborini qaratdi. Yillar davomida e‘tibordan chetda qolib kelayotgan, o‘z yog‘iga o‘zi qovurilib yotgan Mo‘ynoq aholisining qaddini tiklashga butun mamlakat ahlini jalb etdi. Bu yerda juda katta maydonga suvsizlikka chidamli saksovul va boshqa daraxtlar ekilib, yashil voha barpo etildi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan, madaniyat Mo‘ynoqdan boshlanadi, degan g‘oya asosida Mo‘ynoq ahlini ichimlik suvi bilan ta‘minlash ishlari boshlandi, aholini ishli qilish maqsadida korxonalar bunyod etildi. Ana shundan keyin Mo‘ynoqda hayot jonlanganini, odamlarning bukilgan qaddi tiklanganini hammamiz yaxshi bilamiz.

Keyingi e‘tibor o‘tgan yillar mobaynida uch bor tugatilib. Prezidentimiz qarori bilan qaytadan tashkil etilgan Bo‘zatovga qaratilgan barchamizni quvontirdi.

Shu yerda bir voqeani eslab o‘tmoqchiman. Bo‘zatov tumani so‘nggi marta tugatilganida respublika rahbarlaridan biri bo‘lgan Ajiniyoz Tojiboyev achinib: “Bo‘zatov endi qayta tashkil etilmaydigan bo‘lib tugatildi”, deb yozgan edi. Shunday bo‘lsa-da, xalq umidini uzmadi, bir kun kelib, chorvachilikka ixtisoslashgan tuman qaytadan ochilishini sabr-qanoat bilan kutdi. Mana, xalqning

orzu-umidi ro'yobga chiqib, Bo'zatov qaytadan chiroy ochdi, obod hududga aylandi.

O'tgan asrning 80-yillarida bu tumanda atigi 12 ming aholi yashaganini yaxshi bilaman. Mamlakat fidoyilaridan biri Sovet Matjonov boshchiligida Bo'zatov chorvachilik tumani sifatida tashkil topganida aholini yangiliklar, amalga oshirilgan ishlar bilan tanishtirib borish maqsadida tuman gazetasini ochganmiz. O'sha paytda tumanning eng chekka hududlarida tashkil etilgan chorvachilik xo'jaliklariga tez-tez borishga to'g'ri kelardi. Bugun gapirsak, ertakdek tuyuladi, o'sha paytda tuman gazetasi haftada uch marta chiqardi. Uning har bir sonida obunachilar uchun o'qishli yangiliklar, qiziqarli xabarlar bo'lishi talab etilardi. Uzoq yaylovlariga har doim xizmat safariga borganimizda, bolalarning qiy-chuviga to'lgan chorvadorlar xonadoni bilan tanishardik, ikki uyning birida "Qahramon ona" unvoniga sazovor bo'lgan onalarni ko'rganmiz.

Cho'ponlar bolalarimiz ko'p, ularni qanday boqamiz, deb no-limasdi. Xudo bergan farzand, rizqini ham beradi, deb sabr-qanoat bilan qaragan...

Ular tandirga non yopamiz, deb halak ham bo'lmasdi. Qora uyning o'rtasiga uyum qilib yoqilgan yulg'in cho'g'iga xamir joylangan tovoqni ko'mib, bir muddatdan keyin bug'i chiqib turgan bo'rsildoq nonlarni dasturxonga to'kib tashlardi. Mana o'sha chorvadorlarning umrguzaronlik qilib kelgan makoni Prezidentimiz qari bilan qayta nomdor bo'ldi, bundan aholi juda quvondi.

Buning ustiga, davlatimiz rahbari saylovoldi uchrashuvini qaytadan yashargan Bo'zatovda o'tkazib, aholining turmush tarzi bilan tanishgani, ularning murojaatlarini tinglab, og'irini yengil qilishga va'da bergani xalqimizni juda ruhlantirdi, kuchiga kuch qo'shdi. Albatta, turmush tarzimiz yuksalayotgani, farovonligimiz oshgani elimizning Bosh qomusi, huquq va erkinliklarimizning asosi – Konstitutsiyamiz bilan bog'liq.

Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag‘ishlangan bayram tabrigida qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan birga, hali amalga oshirish lozir bo‘lgan, navbat kutib turgan vazifalar haqidagi gaplarini qiziqit tingladik.

Bundan olti yil muqaddam Prezidentimiz tashabbusi bilan Harakatlar strategiyasi qabul qilingani ham yangi O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar boshlanganini ko‘rsatadi. O‘tgan qisqa davr mobaynida jamiyatimizda siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar tubdan o‘zgardi. Erkinlik va bag‘rikenglik, qonun ustuvorligi, dunyo hamjamiyati bilan tenglik va hamkorlik asosida faoliyat ko‘rsatish mamlakat siyosatining bosh yo‘nalishiga aylanganini hammamiz yaxshi bilamiz.

Mamlakatimizda ijtimoiy tenglikni muvofiqlashtirish, kambag‘al, nochor oilalarning turmush tarzini yaxshilash maqsadida “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “mahallabay”. “xonadonbay” tizimlari joriy etilgani va bu borada amaliy ishlar olib borilayotgani qanday yaxshi natijalar berayotganini ko‘rib turibmiz.

Endi har bir fuqaro o‘z turmush tarzini yaxshilash bilan kifoyalanib qolmasdan, xalqimizni rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarish, Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirish uchun o‘z hissasini qo‘shishga kirishdi.

Hech kim og‘zimizga tayyor oshni tutqazib qo‘ymaydi. Mamlakat strategiyasini amalga oshirish uchun har tomonlama o‘ylangan, chuqur mulohaza, kuchli siyosiy-huquqiy bilim va ishbilarmonlik talab etiladi.

Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Ulug‘bek singari ulug‘ allomalarimizni o‘z zamonida butun dunyo tan olgan va bugungi kunda ham ular qoldirgan boy merosdan bahramand bo‘layotgani biz

uchun faxr-iftixordir. Lekin biz bu bilan kifoyalanmasdan, yosh avlodga ularning tomirida ulug‘ ota-bobolarimiz qoni jo‘sh urayotganini eslatishimiz, ulug‘vor ishlarga rag‘batlantirishimiz kerak. Ularni yetuk farzandlar etib tarbiyalash Yangi O‘zbekistonning bosh yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Oilaga, xalqqa eng yaqin bo‘lgan tizim – o‘zini o‘zi boshqarish organlari hisoblanadi. Yaqinda ana shunday mahalla fuqarolar yig‘inlaridan biriga borganimda, mahalla raisi menga bir yangilikni aytishga oshiqdi.

– Bizga hokim yordamchisi, degan shtat ajratishdi, – dedi u.

Bu yangilikni eshitib juda quvondim. Chunki bu chindan-da, quvonchli xushxabar. Chunki endilikda bu vazifaga tayinlangan nomzod, avvalo, o‘zida javobgarlikni his qiladi. Har bir xonadonning turmush tarzini o‘rganadi. Xulosa chiqaradi, lozim bo‘lsa, hokimiyat orqali amaliy yordam ko‘rsatadi. Unga bu haqda hokimga doimiy ravishda hisobot berib turish javobgarligi yuklanadi. Demak, endilikda har bir oilaga mamlakat darajasida diqqat-e‘tibor qaratilyapti.

...Tandirga non yopilyapti. Shirmoy nonning mazali isi dimoqni qitiqlaydi. O‘tgan-ketganlar issiq non hidini sezib, yo‘lni shu tomonga buradi, non oladi. Chunki non – rizq-nasibamiz, to‘qchilik ramzi.

Xalqimizda “Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin” degan gap bor. Buning asl ma‘nosini boshimga bir ish tushganidan keyin tushundim.

Bir kuni rahbarlardan birining qabuliga kirdim. U meni juda iliq kutib oldi, muammoni tingladi. Keyin yotig‘i bilan muammoni hal qilish yo‘llarini tushuntirdi. Garchi ishim bitmasa-da, rahbar qabulidan ishim bitganday, ko‘nglim ko‘tarilib chiqdim. Demak, bug‘doy – ay shirin so‘zimiz, bir-birimizga yaxshi, iliq munosabatimiz hatto

och odamning ochligini, muhtojligini unuttirarkan, non yemasa-da qorni to‘yganday, masalasi bitganday bo‘larkan.

Yoshligimizdan qon-qonimizga singib ketgan bir urf-odatimiz bor. Mayli, yor-birodar, qarindosh-urug‘imiz bo‘lmasin, uyimizga qadam bosgan har qanday notanish odamga ham muruvvat qilib to‘rga o‘tkazamiz, bor noz-ne‘matni dasturxonga qo‘yamiz. “Qutlug‘ uydan quruq ketma, hech bo‘lmasa nonga og‘zing tegsin”. deymiz. Ana shu mehmondo‘stligimizdan, bag‘rikengligimizdan ayirmasin. O‘z xalqini nonday aziz qilib suygan, qadrlagan mustaqil davlatimizning bu ishlari bardavom bo‘lsin. Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosati, olib borayotgan ishlariga ko‘z tegmasin. Xalqimizning noni ham, bag‘ri ham butun, nasibasi mo‘l bo‘lg‘ay. Ana shunday aziz el farzandlaridan biri bo‘lganimdan boshim ko‘kka yetdi, yuragimdan quyidagi satrlar quyilib keldi:

*Yashna O‘zbekiston, mangu bo‘l obod,  
Elning baxti kuldi, baxtga yo‘l ochding.  
Bugun kechagidan fayzlidir hayot,  
Ko‘ngilga obodlik urug‘in sochding.*

*Zamon yangilandi, dunyo yashardi,  
Emin-erkin yashash mahali keldi.  
Prezident ko‘nglida faqat el dardi,  
Bugun tadbirkorning zamoni bo‘ldi.*

*Vatan omonligi – elning boyligi,  
Makoning tinch bo‘lsa, gullaydi o‘lka.  
Bunda har go‘shaning qadamjoyligi,  
Dunyoni chorlaydi muqaddas yurtga.*

*Yashayver, Vatanim, mangu bo‘l omon,  
Dunyoga taraldi vasf-u ta‘rifing.*

*Bugun sen-u menga tug'ildi imkon,  
Ellar aro doston bo'ldi tarixing!*

*Qo'zg'al, qo'ldan berma bunday imkonni,  
Boyliging ko'paysa, elning davlati.  
Endi davri keldi ishbilarmonning,  
Keldi shijoatli erlar navbati.*

*Bizni orzu-niyat oldinga boshlar,  
Yillar umrimizga poyandoz bo'lsin.  
Davrga hamnafas yashasin yoshlar,  
Ular katta kuchdir, shiddatli to'lqin.*

*Yangi O'zbekiston, yangicha fikr,  
Maqsad sari olg'a, ortga chekinma.  
Elga foydang tegsin, yurtga ber mehr,  
Saflardan orqada qolsang o'kinma.*

*Halol mehnat qilib, rizq-u ro'zing top,  
Ertaga oshig'ing olchi bo'lajak.  
Ulug'vor ishlarga shaylan, o'zing top,  
Yangi O'zbekiston erur kelajak.*

*Har qallda evrilish, shijoat shaxti,  
Ko'z tegmasin ko'zmunchoq yerimizga.  
Yurt qadriga yetib yashamoq baxti  
Nasib bo'lsin bizning har birimizga!*



## **SINMAGAN TARIXIY HAQIQAT VA ADOLAT**

Yangi yil O'zbekiston Prezidenti ilgari surgan "Inson qadr uchun" tamoyilini mamlakatimiz hayotining barcha jabhalari-da keng tatbiq etishga qaratilgan yangilanish va bunyodkorlik kayfiyati bilan boshlandi. Buni, jumladan, yurtimiz sud-huquq tizimi faoliyatidagi ezgu ishlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Xususan, 2022-yil 6-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida mustabid tuzum davrida qatag'on qurboni bo'lgan 120 nafar shaxsga oid jinoyat ishlari ko'rib chiqildi hamda ularning barchasi oqlandi.

Bunga qadar 2021-yil 25-avgust kuni ham Oliy sudda ko'rilgan jinoyat ishlari doirasida mustabid sovet davrida qatag'on etilgan 115 nafar shaxs oqlanganini ta'kidlash lozim.

Bu, avvalo, sobiq sho'rolar tuzumi davrida qatag'on qilingan vatandoshlarimizning pok nomlarini oqlash, ularning xotirasini abadiylashtirish yo'lida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, ayni yo'nalishdagi ishlarimizning tizimli va bardavom ekanini amalda tasdiqlaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida xalqimizning milliy o'zlikni anglash, yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida qo'yayotgan qutlug' qadamlari mukarram inson zotiga hurmat-ehtirov ko'rsatish, inson xotirasiga nisbatan adolat va haqiqatni qaror toptirishdek ezgu amallar bilan uzviy bog'liq bo'lib, kelgusida xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi.

## **Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari**

Mamlakatimizda keyingi besh yilda Harakatlar strategiyasi hayotimizning barcha sohalariga izchil joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktyabrda-gi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi ham ana shu dasturulamal hujjatning mevasidir.

Farmoyishga muvofiq, qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish, ular xotirasini abadiylashtirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika ishchi guruhi tashkil etildi. Ishchi guruhning tarkibi tasdiqlanib, asosiy vazifalari belgilab berildi.

Ularga qatag‘on qurbonlari nomlarini aniqlash va ularning xotirasini abadiylashtirish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Eng asosiysi, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalarining yuqori malakali mutaxassislari, ekspertlar, shuningdek, xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarimiz vakillarini jalb etish huquqi berildi.

Ma‘lumki, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan “Davlat – jamiyat – inson” tamoyili “Inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgartirilmoqda. Shu ma‘noda, mamlakatimiz sud-huquq tizimining faoliyati Harakatlar strategiyasiga qanchalik mos va mutanosib ravishda amalga oshirilgan bo‘lsa, Taraqqiyot strategiyasi talablariga ham shunchalik uyg‘un va hamohang ekani yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Shunday ekan, Taraqqiyot strategiyasining tasdiqlanishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish hamda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

orqali inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ulkan maqsad va vazifalarimizga erishish imkonini beradi.

## **Jadidlar kim edi?**

XX asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma’rifat va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqan. Bu jadidchilik harakati degan nom bilan mashhur bo‘lgan.

Aslida bu ulug‘ zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg‘or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo‘liga ya’ni yangi taraqqiyot manziliga olib chiqishdan iborat edi.

Jadid bobolarimiz tashkil etgan yangi usuldagi maktablar, teatr kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o‘qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g‘aflat uyqusidan uyg‘otib, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch bergan.

Ammo yurtimizda xalq xohish-irodasi va istagiga mutlaqo zid ravishda, manfur bolsheviklar diktaturasi majburan o‘rnatilgach, chor mustamlakachilik siyosati yangicha shaklda, qattiqqo‘llik bilan davom ettirildi. Bu esa, ma’rifatparvar bobolarimizga o‘z maqsad-muddaolarini to‘liq amalga oshirish imkonini bermadi.

Eng achinarlisi, ma’rifatparvar ajdodlarimiz sha’niga qora chaplanib, “bosmachi” degan nohaq tavqi la’nat bilan bulg‘andi. Shu bois, bugungi chiqishlarimizda “bosmachilik” so‘zini nima sababdan qo‘shirnoq ichida yozishimizni muxtasar izohlaymiz.

Gap shundaki, bosmachilik – Turkistonda sovet hokimiyati va bosqinchi qizil armiyaga qarshi kurashgan qurolli harakatga sho‘ro hukumati davrida berilgan rasmiy nom. Binobarin, “bosmachi” va

“bosmachilik” iboralari 1919-yilning o‘rtalaridan boshlab avval vaqtli matbuot, so‘ngra rasmiy hujjatlarda keng ishlatilgan.

Ushbu iboralar milliy ozodlik harakatining mohiyatini soxtalashtirish, ya’ni asl bosmachilarning kirdikorlarini qaysidir ma’nodan xaspo‘shlash, ajdodlarimizning sovet rejimi va bolsheviklar hukmronligi hamda qizil armiyaning bosqinchilik siyosatiga qarshi kurashlarini niqoblash uchun o‘ylab topilgan. Bu tushunchalar “banditlik”, “qaroqchilik” degan so‘zlar bilan asossiz ravishda bir qatorga qo‘yilgan.

Shukrki, o‘sha ajdodlarning ezgu orzu-niyatlari xalqimizning qon-qoni, tarixiy xotirasida saqlanib qoldi va hanuz yashamoqda. Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimizning orzu-intilishlari va armonlari mujassam.

Shu ma’nodan, Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta’minlash yo‘lida mardona kurash olib borib, aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag‘on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o‘rganish hamda targ‘ib etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani tahsinga loyiq.

### **Inson – aziz, xotira – muqaddas!**

Prezidentimizning 2020-yil 8-oktyabrdagi farmoyishiga ko‘ra, Qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Unda 5 ta yo‘nalishda 32 ta vazifa belgilangan.

Bu borada davlat hokimiyati idoralari va fuqarolik jamiyati institutlari ana shunday tizimli ishlarni izchil amalga oshirayotgan bir paytda Oliy sud tomonidan ham qatag‘on qurbonlarining nomlarini

tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha bir qator muhim natijalarga erishilganini qayd etish kerak.

Avvalambor, qatag'on qurbonlarining nomlarini aniqlash borasida izlanishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida mas'ullarga Oliy sud arxividagi mavjud hujjatlardan foydalanishi uchun sharoit yaratildi. Qolaversa, bu boradagi tegishli hujjatlarni o'rganish zarurati tug'ilgan taqdirda, mutaxassislar ishlashi uchun Oliy sud idoraviy arxivida alohida xona tashkil etildi.

Eng muhimi, "yo'l xaritasi"da Respublika ishchi guruhi, Oliy sud hamda mutasaddi vazirlik va idoralarga tegishli ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida aniqlangan, ayrim sabablarga ko'ra, reabilitatsiya qilinmay qolib ketgan qatag'on qurbonlari nomlarini oqlash yuzasidan belgilangan tartibda takliflar kiritish vazifasi yuklatilgan.

Mazkur vazifa ijrosi doirasida o'tgan qisqa davrda qatag'on qurbonlari reabilitatsiyasi bo'yicha masala o'rganilib, bu boradagi takliflar Respublika ishchi guruhiga ko'rib chiqish uchun yuborildi. Oliy sud va quyi sudlar tomonidan hududlardagi barcha arxivlarda qatag'on qurbonlariga oid ishlar inventarizatsiya qilinib, oqlangan 1868 nafar shaxsning ro'yxati viloyatlar miqyosida shakllantirilib hamda Respublika ishchi guruhiga taqdim etildi.

Shuningdek, Oliy sud raisining 2021-yil 9-fevraldagi farmoyishiga binoan, muayyan sabablarga ko'ra, reabilitatsiya qilinmay qolib ketgan qatag'on qurbonlarining nomlarini oqlash va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish maqsadida ishchi guruh tuzildi. Bundan tashqari, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori, Respublika ishchi guruhi a'zosi Baxtiyor Hasenov tomonidan mustabid sho'ro tuzumi davrida qatag'on qurbon bo'lgan va hozirgi kunga qadar oqlanmagan shaxslar ro'yxati taqdim qilingan bo'lib, Oliy sudda tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan ushbu hujjatlar o'rganib chiqilmoqda.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va "Shahidlar xotirasi" jamoat fondining ilmiy xodimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida mustabid tuzum davrida nohaq qatag'on qilingan, biroq muayyan sabablarga ko'ra, oqlanmay kelayotgan ko'plab shaxslar aniqlandi. Ular asosan, yirik diniy ulamolar, Buxoro amiri, Xiva xoni yaqinlari, yuqori harbiy va fuqarolik amaldorlari, milliy istiqlol kurashi qatnashchilaridan iborat sho'ro mafkurasini qabul qilmagan insonlardir.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi Prezidentimizning tegishli farmoyishi ijrosi yuzasidan tuzilgan "yo'l xaritasi"ning 10-bandiga binoan, mustabid sovet tuzumi davrida qatag'on qilingan bir guruh vatandoshlarimizni oqlash borasida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga murojaat bilan chiqdi. Natijada 2021-yil 25-avgust kuni Oliy sudda ko'rilgan jinoyat ishlari doirasida sovet davrida qatag'on etilgan 115 nafar shaxs oqlandi.

Muzey tomonidan qilingan ikkinchi murojaat asosida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Oliy sudiga yana yuzdan ortiq qatag'on qurbonlarini oqlash xususida protest kiritdi. 2022-yilning 6-yanvarida Oliy sudda bo'lib o'tgan sud jarayonida jami 5 ta jinoyi ish ko'rib chiqildi.

## **Oqlanganlar kimlar edi?**

Birinchidan. O'rta Osiyodagi Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi (BDSB) hay'atining 1925-yil 4-sentyabrdagi maxsus yig'ilish qaroriga ko'ra, Mirza Ibragimov Mir Axur va boshqalar (jami 43 kishi) O'zSSR Jinoyat kodeksining 61-moddasi asosida jazolan-gan. Xorijiy mamlakatlar yoki ijtimoiy guruhlar foydasiga og'ish yuzasidan ayblov choralarini ko'zda tutadigan ushbu moddaga

ko'ra, ular sovet davlatiga qarshi qurolli qarshilik harakatlarida ishtirok etishda ayblangan.

Bu yurtdoshlarimizga, shuningdek, O'zSSR Jinoyat kodeksining 67-moddasiga asosan aksilinqilobiy tashkilotlarga a'zolik qilish va 69-moddaga binoan inqilobiy harakat va proletariat sinfiga qarshi faol harakat yoki kurashish ayblari ham yuklangan. Ya'ni ular fuqarolar urushi vaqtida aksilinqilobiy hukumat tuzishda aybli deb topilib, surgun jazosiga hukm qilingan va ularga tegishli mol-mulki musodara etilgan.

Ikkinchidan, BDSB doimiy vakili huzuridagi Uchlik yig'inining 1930-yil 24-yanvardagi qaroriga ko'ra, Appax Xodja Asqar Xojajayev (Oppoq Xoja Asqar Xojayev) va boshqalar (jami 40 kishi) O'zSSR Jinoyat kodeksining 78-moddasiga muvofiq, banditizmda ayblangan. Ular sovet davlatiga qarshi qurolli qarshilik harakatlarida ishtirok etganlikda aybli deb topilib, surgun va eng og'ir jazo - otuvga hukm etilgan va mol-mulki musodara qilingan.

Uchinchidan, BDSB doimiy vakili qoshidagi Uchlik kengashining 1930-yil 24-martdagi bayoniga ko'ra, Abduraximov Mirza Xodja (Abdurahimov Mirza Xoja) va boshqalar (jami 15 kishi) O'zSSR Jinoyat kodeksining 67- va 78-moddalariga ko'ra, aksilinqilobiy maxfiy tashkilotni tuzganlikda hamda sovet davlatiga qarshi qurolli qarshilik harakatlarida ishtirok etganlikda aybli deb topilgan. Ular ham surgun qilingan, otilgan va mol-mulki musodara bo'lgan.

To'rtinchidan, BDSB doimiy vakili qoshidagi Uchlik kengashining 1930-yil 25-yanvardagi bayoniga ko'ra, Mansurbekov Muhammad Sodiq va boshqalar (jami 5 kishi) O'zSSR Jinoyat kodeksining 67- va 78-moddalariga asosan, aksilinqilobiy maxfiy tashkilot tuzganlikda hamda sovet davlatiga qarshi qurolli qarshilik harakatlarida ishtirok etganlikda aybli deb topilgan. Ular O'rta Osiyodan surgun qilinib, mol-mulki musodara qilingan.

Beshinchidan, BDSB doimiy vakili qoshidagi Uchlik kengashi-ning 1930-yil 19-martdagi bayoniga ko‘ra, Safarov Tog‘ay Amin va boshqalar (jami 12 kishi) O‘zSSR Jinoyat kodeksining 67- va 78-moddalariga muvofiq, aksilinqilobiy maxfiy tashkilot tuzganlikda hamda sovet davlatiga qarshi qurolli qarshilik harakatlarida ishtirok etganlikda aybli deb topilgan va og‘ir jazolarga duchor etilgan.

Oltinchidan, RSFSR Oliy Inqilobiy tribunali Turkiston Sovet Respublikasi Markaziy Ijroiya qo‘mitasining 1921-yil 23-dekabr-dagi hukmiga ko‘ra, Sharif Xodjayeov Sadriddin Xon va boshqalar (5 kishi) O‘zSSR Jinoyat kodeksining 67- va 78-moddalariga asosan, aksilinqilobiy maxfiy tashkilot tuzganlikda hamda sovet davlatiga qarshi qurolli qarshilik harakatlarida ishtirok etganlikda aybli deb topilgan. Afsuski, ularni ham yuqorida tilga olingan va hamyurtlarimiz duchor etilgan achchiq qismat o‘zining shafqatsiz qatriga tortgan.

Eng dahshatlisi shundaki, barcha ayblanuvchilar sudsiz jinoiy javobgarlikka tortilganlar! Holbuki, ish hujjatlari ularning o‘z davrida Vatan himoyasi, yurt mustaqilligi, dini, e‘tiqodi, madaniyati va millat g‘ururi uchun kurashganliklarini tasdiqlaydi.

Shuningdek, dastlabki tergov davrida jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida o‘tgan barcha shaxslar dastlab ayblovni inkor qilib kelgan bo‘lsalar-da, hibsga olingach, tazyiqlar ostida ayblariga iqrorko‘rsatmasini berganliklarini so‘roq bayonnomasida ham ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, ularni aybdor deb topishda, ishga taalluqli bo‘lgan holatlar atroflicha o‘rganilmasdan, tekshirib chiqilmasdan va baholanmasdan birgina iqrorko‘rsatmalariga asoslangan holatda hukm chiqarilgan.

Ish hujjatlarida esa, ayrim aybdor shaxslar faqat o‘zbek tilini o‘z ko‘rsatmalarini arab alifbosida yozgan bo‘lsalar-da, tergov harakatlari ularga mutlaqo begona bo‘lgan chet tilida – rus



tilida olib borilib, go'yoki ularning ko'rsatmalari o'zbek tiliga tarjima qilingani ko'rsatib o'tilgan, xolos.

Holbuki, jinoyat ishini tergov qilgan shaxslar arab alifbosida yozishni hamda rus tilini bilganligini tasdiqlaydigan biron-bir dalil mavjud emas. Jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlarini olib borishga mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ishga tarjimon jalb qilinmagan.

Yuqoridagi aybdor shaxslarning jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlari olib borilganida o'z ona tilidan yoki tarjimon xizmatidan foydalangan holda ko'rsatma berish orqali o'z huquqlarini himoya qilishi cheklab qo'yilgan. Bu esa jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlari bir yoqlama olib borilganini yaqqol ko'rsatadi.

Bunday holatda Markaziy Osiyodagi Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi (BDSB) doimiy vakili huzuridagi Uchlik kengashining bayonini qonuniy va asosli deb bo'lmaydi. O'rganilgan jinoyat ishlari bo'yicha ularning aybdorligiga oid shubhalarni bugungi kunga kelib bartaraf etish imkoniyati tugagan. Shu sababli ularning jinoiy harakatlari taxmin va farazlarga asoslangani uchun aybini isbotlovchi dalil sifatida e'tirof etib bo'lmaydi.

Muhimi, qanchadan qancha Vatan fidoyilarining pok nomlari tiklandi. Qatag'on etilgan har bir shaxsning "delo"lari sinchkovlik bilan o'rganildi va o'rganilmoqda. Shu bilan birga, mavzuga oid "Hasratga ingan maktublar", "Tarixning noma'lum sahifalari" nomli kitoblar nashr etildi. O'n to'rt jildli Xotira kitobi nashrdan chiqish arafasida.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbarining ayni yo'nalishdagi oqilona va jasoratli siyosati tufayli, birinchi navbatda, barcha maxfiy arxivlarning eshiklari tadqiqotchilar, olimlar, tarixchilar, huquqshunos va mutaxassislar uchun keng ochildi. Mazkur sohadaagi arxiv hujjatlari nainki Toshkentda, balki butun yurtimizning olis hududlaridagi arxiv idoralarida mavjud ekani aniqlandi.

## **KO'KDALADAN KELADIR ROZI XALQNING OVOZI**

Ko'klam chog'i Ko'kdalani kezsangiz, yangilanayotgan O'zbekistonning ko'plab belgilarini ko'rasiz. Bular nimalar? Charog'on ko'chalar, qurilayotgan son-sanoqsiz uylar, xususiy korxonalar, yangi mahallalar, ming yillar davomida qaqrab yotgan, bugun esa o'zlashtirilayotgan qir-adirlar, ekilayotgan nihollar, yangi elektr stansiyasi, odamlarning chehrasida mamnuniyat, yangi ochilgan bog'chalarga yelib borayotgan jajji bolalar, poliz ekinlari bilan to'layotgan tomorqalar, sport va raqs kiyimidagi o'g'il-qizlar, kitob o'qiyotgan yoshlar, salomatlik uchun qadam tashlayotgan keksa-yu yoshlar, Ko'kdalaning jahoniy brendi – tarvuzga qo'yilgan haykal, yangi restoranlar, mehmonxonalarni ko'rasiz.

Qulog'ingiz “Sho'rquduqlik 27 yigit-qiz o'qishga kiribdi-ya!”, “Dubaydagi Osiyo chempionatida Ko'kdalaning ikki qizi, bir yigiti Osiyo chempioni bo'libdi!”, “Frankfurt – Berlin avtomobil yo'li yoqasida saf tortgan ko'rkam daraxtlarni ko'rgan edim. Qarshi – Chiroqchi yo'lida 50 kilometr yo'l yoqasiga ekilgan daraxtlarni ko'rib shuni esladim”, degan gaplarni eshitadi.

Ha. Mashoyixlardan biri “Agar e'tiborsiz bo'lsangiz, yuragingizning urayotganini ham, olayotgan nafasingizni ham eshitmay-siz”, degan edi. E'tiborli bo'lsak, tinmay shukrona qilishimizga asoslarimiz kundan kun ko'payib borayotgan ekan. Biz ko'pincha, ana shu jihatga e'tiborsiz ekanmiz.

Bu ma'naviy illat nimadan? Bu yaxshi yangiliklar o'z-o'zidan bo'laveradi-da, deb qo'yaverishda ekan. Bu olamda nima o'z-

o‘zidan paydo bo‘libdi? Hech narsa. Buning hikmatini Ko‘kdaladagi kollej bog‘ida bitilgan hikmatlardan birida o‘qiymiz:

“Harakat zaif bo‘lgan joyda kuchli bilim foydasizdir. Harakatsiz bilim – ipsiz kamon o‘qidir”. Az-Zamaxshariy.

Biz o‘z bobolarimizning aytganlariga amal qilib yashay boshladik. Ilmgaga asoslangan islohot, siyosat, harakat, Taraqqiyot strategiyasi kamoning o‘qi farovonlik, baxt, degan marralarga yetyapti. Keling, ko‘kdalaliklarning dil izhorlariga e‘tibor qilaylik.

## **Ko‘kdala – Yangi O‘zbekistonning yangi tumani**

*Shodiyor Xo‘janazarov, mehnat faxriysi:*

– O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarga razm solsa, odamning aqli shoshadi. Hamma soha qamrab olingan. Prezidentimiz xalqimiz baxtli bo‘lsin, boy bo‘lsin, mamlakatimiz rivojlangan davlat bo‘lsin, deb kecha-yu kunduz, tinim bilmay ishlayaptilar. Buni xalqimiz bilib, sezib turibdi.

Hurmatli Prezidentimiz Qashqadaryoga kelganlarida “Endi Qashqadaryo paxta xomashyosini sotmaydi. Tayyor mahsulot qilib sotadi. Klaster tizimini joriy qilamiz”, deganlarida ba‘zilar ishonmagan edi. Mana bugun biz shu imkoniyatga ega bo‘ldik. Klasterlar, qayta ishlash korxonalarini qurildi. Ilgari Qashqadaryoning oltin medal olgan paxtasini Liverpoolda juda arzon sotardik. Bugun 50 yillik orzumiz amalga oshdi. Qayta ishlash ham tashkil bo‘ldi. Majburiy mehnat ham yo‘qoldi. Cheklovlar ham olib tashlandi. Mana, milliard-milliard so‘mlab pullar olyapti xalqimiz. Minglab ishsiz sarson yurgan bolalarimiz ishli bo‘lyapti. Xotin-qizlarimiz ishli bo‘ldi. Buni Prezidentimiz bir necha yillar oldin ko‘rib, tashkil qilib berdi. Qilsa bo‘lar ekan-ku!

Qarshidan Ko‘kdalaga kelishda qarasangiz, ming-ming gektarlab uzumzorlar, yong‘oqzorlarni ko‘rasiz. Ko‘kdala mamlakatomizni tarvuz bilan to‘liq ta‘minlab, chetga ham eksport qilmoqda. Qancha odam ishli bo‘ldi.

Ko‘kdalaliklarning orzulari amalga oshdi. Mana, “Samo” tekstil korxonasi ochildi. Ko‘kdalaning 500 ishsiz xotin-qizi doimiy ishli bo‘ldi. Buning qadrini yillab ishsiz o‘tirgan singillarimiz, qizlarimizdan so‘rang. Ular juda yaxshi biladi. Endi o‘zimiz yetishtirgan paxtani 100 foiz o‘zimiz qayta ishlaymiz.

Ko‘kdala tumanining yeri – xazinaning o‘zi. Bu yerda sabzavot, qovun-tarvuz, lalmikorlik uchun zo‘r tabiiy sharoit bor-u, tashkiliy ishlar yetarli emas edi. Xalqimizga sharoit yaratib berildi. Mana, endi qirlarga bir qarang. Bo‘sh, bekor yotgan joy qolmayapti. Qirlarga suv chiqarib, bodom, qovun-tarvuzni eksport qilyapmiz.

Prezidentimiz “Qishloq xo‘jaligini ilmsiz rivojlantirib bo‘lmaydi. Ishni ilm bilan bog‘lash kerak”, dedilar. Bir vaqtlar viloyatda tashkil qilingan ilmiy-tadqiqot institutiga direktorlikka olim topa olmagandik. Hozir esa 40 nafar doktorant qabul qildik. 7 nafar fan doktorligi, 25 nafar falsafa doktorligi bo‘yicha ilmiy ish himoya qilindi. Yaqinda 30 mamlakatdan kelgan olimlar ilmga yaratilgan sharoitni ko‘rib hayron qoldi.

## **Sanjarning rejalari**

Mahallalarda hokim yordamchisi lavozimining joriy qilinishi mahalla muammolarini “fuqarobay” hal qilishning yechimi bo‘ldi. Hokim yordamchilari bilan suhbat qursangiz, ulardagi g‘ayrat, aniq harakat va eng muhimi, o‘ziga ishonch barq urib turganini sezasiz. Ular uzundan uzoq gapirib o‘tirmaydi. Ishchan, ya‘ni aniq-tiniq, ke-sib gapirishadi.

Sho‘rbozor mahallasi hokim yordamchisi Sanjar Shodmonovga o‘xshab.

– Men ishimni xatlovdan boshladim, – deydi u. – 820 ta xonadonim bor. Birinchi chorakda 46 nafar fuqaroga kredit ajratib berdim. 10 fuqaroga subsidiyalarga tavsifnoma berdim. 41 fuqaroning o‘zini o‘zi band qilishini ta‘minladim. 4 ta tadbirkorlik subyekti: davlat ro‘yxatidan o‘tkazdim. Mahallamizda 72 gektar tokzordar 42 nafar ishsiz fuqaroga 70 sotixdan yer ajratib berildi. Ular ish bilan ta‘minlandi. 2- va 3-choraklar uchun aniq rejam bor. Mahallamizda o‘quv markazi ochmoqchimiz. Markazda 10-15 ta ish o‘rnatiladi. Shu yil oxirigacha mahallamizning 100 dan ziyod fuqarosini kasbga o‘rgataman.

### **10 nafar yosh vrach: “Salom, Qashqadaryo!”**

*Islom G‘aniyev, Ko‘kdala tuman Sho‘rquduq oilaviy poliklinikasi oilaviy shifokori:*

– Men o‘zim asli samarqandlikman. Prezidentimiz 2022-yil 18-mart kuni respublika tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqat o‘tkazdi. O‘sha muloqotda men ham qatnashdim. Prezidentimiz bilan suhbatlashish baxtiga muyassar bo‘ldim. Shundan so‘ng men juda mashhur bo‘lib ketdim (*kuladi*). Shifokorlik kasbini tanlaganimdan yana bir marta g‘ururlandim.

Men Prezidentimizga “Samarqandlik yosh shifokorlarni Qashqadaryoning chekka qishloqlariga ishga chaqiraman”, deb so‘z bergan edim.

So‘zimning ustidan chiqdim. Samarqandlik 10 ga yaqin yosh shifokor viloyatning olis hududlariga kelib, ishga joylashmoqda.

## Mahalla jaholatni yengdi

*Umar Julbulov, Xalq deputatlari viloyat kengashi deputati, Ko'kdala mahalla raisi:*

– 16 yillik raisman. Shuning uchun Prezidentimiz tomonidan mahallaga berilayotgan katta e'tiborning sababini juda yaxshi bilaman. Qo'llab-quvvatlayman. Biz ma'rifatli jamiyat quryapmiz. Buni mahallalardan boshlashimiz kerak, deb o'ylayman. Chunki mamlakat mahallalardan tashkil topadi. Mahalla esa oilalardan. Mahalla har bir oilaning ham jismonan, ham ma'nan sog'lom bo'lishini o'ylaydi.

Bir misol aytsam. Ko'kdala qishlog'ida oilalarga kirib, hol-ahvol so'rab yurgandik. Faollarimizdan biri “Bir aka singlisi bilan quda bo'layotgan ekan. Shuni yarashtirish komissiyasida ko'rib chiqsak, yaxshi bo'lardi”, dedi. Komissiya a'zolarini yig'ib, masalani o'rganib, ko'rib chiqdik. Aka bilan singil quda bo'lmasligi kerak, degan yakdil qarorga keldik.

Qaror qildig-u, uni amalga oshirish qiyin bo'ldi. “Umar oilalarning ishlariga aralashadigan kaaaatta odam bo'p ketibdi. Aka-singil quda bo'lsa, bo'pti-da. Bo'shatish kerak uni. Aralashmasin. Bu uning vazifasiga kirmaydi”, degan gaplar bo'ldi.

Lekin biz bu gaplarga qaramadik. Qattiq kirishdik. “Bunday qilmanglar. Bu fojia. Qarindoshlardan tug'ilgan bolaning qo'li, oyoq'i, bir joyi nogiron bo'ladi. Ko'zi, burni qiyshiq bo'ladi, dedik. Imom-xatib Akmal hoji Ismoilov, Turdiqul aka Shodmonov, rahmatli Eshmurod ota Safarov, Juman bobo Shoirov, Erkin opa Rahmatova, Mehri opa Mahmasalayeva, Farhod ota To'rayevlar bilan birga o'n martadan ko'proq o'sha oilaga bordik. Turib oldik. Qancha gap-so'z bo'lsa, chidadik. Lekin ortga qaytmadik. Mahallamizda mana shunday qarindoshlar nikohidan tug'ilgan 50 ka yaqin nogiron bolalarni ko'rmadingizmi, dedik. Aka-singil quda bo'lib,

bir umr afsus qilib yurmanglar, dedik. Achchiq so‘zlarni betimizga ham aytishdi. Lekin qaytmadik. Oxiri biz yengib chiqdik, ma’rifat-ma’naviyat ustun keldi.

Aka ham, singil ham boshqalar bilan quda-qudag‘ay bo‘lishdi. Bir yilda shirin-shakar, soppa-sog‘ nevaralar tug‘ildi. Yaqinda mahalladoshlarimizdan eshitdik: aka va singil odamlarga “Mahallamizga rahmat. Biz tushunmagan ekanmiz”, deyishibdi. Navro‘z tadbirida o‘zimga ham aytib, uzr so‘rashdi.

Men ularga “Biz o‘z burchimizni bajardik. Mana, nogiron emas, soppa-sog‘, durkun go‘daklar tug‘ildi. Shuning uchun rahmatni bizga aytmang, Yaratganga shukur qilib, hurmatli Prezidentimizga rahmat denglar”, dedim.

Bu bilan biz zo‘r ish qildik, demayman. Biz Prezidentimizning “Mahalla, avvalo, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va ma’rifat maskani bo‘lishi kerak”, degan fikrlariga amal qildik, xolos.

## **Ko‘kdala – changdala edi**

*Mustafo Temirov, mehnat faxriysi:*

– Yaqin yillargacha Chiroqchi desa, odamlarning ko‘z oldiga nimalar kelardi? O‘zim aytay: Chiyal yaxnasi, Ko‘kdalaning tarvuzi, Umakayning jizi. “Chiroqchining maydoni Andijon viloyatiga teng”, deb maqtanib qo‘yardik. Lekin Chiroqchining maydonidan ham muammosi ko‘p edi. O‘qituvchi, vrach yetishmaydigan, tuman markazidan 95–100 kilometr uzoqda sochilib yotgan qishloqlari ko‘pligini ham bilardik.

Men qishloq xo‘jalik xodimiman. Dalaga qarang. Bu texnika ilgari biz o‘n kunda haydagan yerni ikki kunda haydayapti. Rizqimiz ham, xayr-baraka ham ortyapti. Shunga qarab, bozorlarimizda narx-navo ham arzon. Hamma narsa bor. Bugun ertalab internetda

koʻrdim: bir buxanka non Yevropada 15 yevroga chiqibdi. Chiroqchida esa 1500 soʻm.

Bir vaqtlar vodiyan hasharchilar Koʻkdalaga kelgan edi. Ular bizga “Biz Koʻkdalaga borib, yam-yashil bogʻ-rogʻlarni koʻramiz, deb oʻylagandik. Kelib koʻrsak, “Koʻkdala – changdala” ekan”, deb hazillashishgan. Bu baho toʻgʻri edi. Chunki qishda loy, yozda chang – odatiy hol edi.

Endi tumanimizning ismi jismiga mos boʻldi. Qarasangiz toʻrt tomon, hamma yoq koʻm-koʻk. “Obod mahalla”ga tushib, yoʻllarimiz asfalt boʻldi. Tunda koʻchalarimiz yop-yorugʻ. Ichimlik suvi, elektr, gaz hammasi bor. Pensiyada muammo yoʻq. Oʻzi keladi. 250 ming kishilik koʻkdalaliklar hayotdan rozi. Endi ular hamma sohada oʻrnak boʻlishadi.

*Xoliyor Qodirov, mehnat faxriysi:*

– Yangi Oʻzbekistonning besh yili Chiroqchining qirq yillik muammolariga chek qoʻydi. Butun umr tibbiyot sohasida ishladim. Tuman tibbiyotini boshqardim. Hozirgi kunlar tushga ham kirmagan. 8 milliard soʻm mablagʻ sarflanib, markaziy shifoxona qurildi. U yerdagi zamonaviy asbob-uskunalar tushimizga ham kirmagan.

Xalqimiz toʻy-maʼrakalarda qoʻl ochib, Xudodan tinchlik, sogʻliq soʻraydi. Ibadatlarida har kuni ana shu ikki neʼmat shukronasini qilishadi.

## **Men yigʻlamay, kim yigʻlasin**

*Zulxumor Abrayeva, Koʻkdala tikuvchilik fabrikasi tikuvchisi:*

– Onam nafaqada, otam 2017-yilda vafot etgan. Uch qiz, ikki oʻgʻilmiz. Maktabni bitirib, oʻqishga kirolmadik. Opamning ham



turmushi bo'lmayapti. Ikki qizi bilan biznikida yashaydi. Onam va besh bola bir onamning pensiyasiga, mahalladan ukam uchun berilayotgan yordam puliga yashayotgan edik. Lekin bir umr yordamga yashab bo'lmaydi-ku, deb qiynalardik.

Mana shunday noiloj, nima qilishni bilmay yurgan kunlarimizda: “Ko'kdalada “Samo” tikuvchilik fabrikasi ochilar emish”, degan xushxabar tarqaldi. Bizning yetti avlodimiz mana shu qirlar, adirlarlarda yashagan. Ko'zlarimiz ham shunga o'rganib qolgan. To'g'ri men zamonaviy tikuvchilik fabrikalarini televizorda ko'p ko'rganman. Lekin o'zimizning mana shu qir-adirlarda zamonaviy fabrika binosini tasavvur qilolmasdim. Dugonalarimiz bilan ko'rishga qo'ng'iroqlashib, “Fabrika qayerda qurilarkan? Qanday bo'larkan? Bizni ham olisharmikan?” degan umidli savollarni bir-birimizga qayta-qayta berardik. Hatto dugonam Sitora bilan birga fabrika quriladigan joyga borib kelganmiz. Orzularimiz bir olam edi. Nafahotki, biz ham fabrikada ishlasak?

Fabrika binosi qurildi. Oppoq bino katta asfalt yo'l yoqasida porlab turibdi. Atrofi daraxtzor, gulzor. Kechqurun rang-barang chiroqlari yonib, ko'zni quvnatadi. Qarab to'ymaydi odam.

Bilasizmi, bu fabrika Ko'kdalaga faqat ish o'rinlarini, sanoatni emas, madaniyatni ham olib keldi. Mehnat madaniyatini, intizomni, vaqtni qadrlashni, mas'uliyatni, dam olish madaniyatini olib keldi. Fabrika bizning ma'yus oilamizga shodlik, baxt, kulgi, kelajakka umid olib keldi.

Shuning uchun onam bot-bot ko'zlariga yosh olib, yig'laydi. Nega yig'laysiz, desak, “Bolam, axir Ko'kdalamizda fabrika qurilsa, bu fabrikada bir emas, ikki qizim ishlayotgan bo'lsa, men yig'lamay, kim yig'lasin. Esiz, otang bu kunlarni ko'rmay ketdi-ya”, deydi. Onajonimning quvonch yoshlari bejiz emas. Chunki faqat men emas, ishonasizmi, opam Mohichehra ham shu fabrikada ishlayapti.

## Sitoraning hikoyasi

*Sitora Davidova, boquvchisini yo‘qotgan, yolg‘iz ona:*

– Ko‘kdalamizga yangi hayot kirib keldi. Mana, yangi ochilgan bolalar bog‘chasiga o‘g‘limni berganman. Bolamdan ko‘nglim to‘q. U zamonaviy ta‘lim-tarbiya olyapti. Bir tomondan bundan xursand bo‘lsam, o‘zimning ishsizligim yuragimni ezar edi. Ish izlab, topolmasdim. Kunlar, oylar befoyda o‘tayotgan edi. Qishlog‘imizda “Samo” fabrikasining ochilishi hayotimni butkul o‘zgartirib yubordi. Tortinib, qimtinib, fabrikaga bordim. Bichish-tikish qo‘limdan keladi, ishga olasizlarmi, dedim.

Ular “Bu fabrika aynan sizdek opa-singillarimiz uchun qurilgan. Keling, singlim”, deb kutib olishdi. Juda yaxshi muomala qilishdi. Hujjatlarimni, ko‘nikmalarimni so‘rab, o‘rganib, meni ishga olishdi.

Sexga birinchi bor kirganimni hech qachon unutmasam kerak. Fabrikamizning to‘riga hurmatli Prezidentimizning “Ayol baxtli bo‘lsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli bo‘ladi”, degan so‘zlari zarhal harflar bilan yozib qo‘yilgan. Son-sanoqsiz tizilib turgan eng zamonaviy tikuv mashinalari. Keng va yorug‘ bino. Atrofi gulzor. Ko‘zingiz quv naydi. Tushlikda issiq ovqatimiz bepul. Avtobus uyimizdan ishga, ishdan uyimizga eltib qo‘yadi. Ochig‘i, buni biz Ko‘kdalaning qizlari orzu ham qilolmaganmiz.

Men hayotda o‘z yo‘limni, baxtimni topdim. Menga o‘xshagan besh yuz ishsiz xotin-qizga bu baxtni Prezidentimiz berdi. Prezidentimizning “Inson qadri uchun!” degan ezgu tamoyilga asoslangan siyosati berdi.

**Sherali Jo‘rayev.**

*O‘zbekiston xalq artisti.*

*“El-yurt hurmati” ordeni sohibi.*

---

## **DORILOMON KUNLAR KELDI, SHAFAQLARI OL...**

### **Cho‘qqini zabt etish zahmati**

Bundoq o‘ylab qarasam, qo‘limga tor olib, xalq xizmatiga kirishganimga ham ellik yildan ortiq vaqt o‘tibdi. Umrimning uchdan ikki hissasi...

Bu davrda jonajon yurtimizni qadam-baqadam kezib chiqdim. har bir qarich yeri azizlar qadamjosi bo‘lgan qadimiy Turkiston kengliklarida shamollar tilidagina qolib, unut bo‘layozgan qadimiy qo‘shiqlarimizni jamladim, tanish-notanish kishilardan yaxshiliklar ko‘rdim, tanbehlar eshitdim, saboqlar chiqardim.

Ba‘zilar meni juda omadli inson, deb hisoblaydi. Ammo tog‘ning tepasida ko‘ringan odamning boshdan kechirgan zahmatlarini cho‘qqiga chiqqan odamgina yaxshi biladi deganlaridek, bu kunlarga yetgunga qadar boshimdan ne-ne savdolar kechgani faqat o‘zimga va Yaratganga ayon.

Ishonmasligingiz mumkin, qirq yoshga qadar boshimda tayinli bir boshpana yo‘q edi.

Deyarli har kuni xalqning xizmatida, konsertlarda yo to‘ylarda bo‘lishga to‘g‘ri kelgan. Men ijodni boshlagan paytlar g‘alati qonun-qoidalar hukm surardi: deylik, biror dehqon yo cho‘pon to‘y qilmoqchi bo‘lsa, albatta, kolxoz raisidan ruxsat so‘rardi. Paxta yig‘im-terimi paytlari, ayniqsa, to‘y qilish muammolarning eng kattasi edi. Shuning uchun, qishloq joylardagi to‘ylar yozda yoki qish paytlari bo‘lgan.

San'atkorni to'yga taklif etish ham katta mashmasha edi: shuni niyat qilgan odam bir quchoq hujjat bilan filarmoniyaga ariza yozib, belgilangan summani kassaga topshirar, biroq filarmoniya rahbari qaysi qo'shiqchini ravo ko'rsa, to'yga o'shani jo'natardi. To'y egasi qaysi san'atkorning shinavandasi ekani yoki yuboriladigan ashulachining rag'bat-xohishi inobatga olinmasdi.

Umuman, negadir o'sha paytlarda to'yga borish, xalqning xizmatini qilish uyat, sharmandalik sifatida talqin qilinardi. Sobiq tuzum mafkurasi san'atkorning sahnadan pastga tushib, xalq ichiga kirib borishiga yo'l bermagan.

### **Insoniylikning yuksak namunasi**

Muhtaram Shavkat Mirziyoyev Prezident sifatida faoliyat boshlagan dastlabki paytlardayoq biz kabi san'atkorlarga alohida e'tibor qaratdi. Inson qadrini ulug'lash, uning sha'ni va qadr-qimmatini tiklash bundan ortiq bo'lishi mumkinmi! Shuning uchun biz mamlakatimiz rahbaridan umrbod minnatdormiz.

Bugun yangi davr boshlandi. Muhtaram Prezidentimiz rahbarlar xalq uchun xizmat qiladigan tizimga asos soldi. Bu – odamiylik, insonparvarlik, xalqparvarlik namunasi. Men ilgari bunday holatga duch kelmaganman. Rahbar deganda barchamiz o'ziga bino qo'ygan, xalqqa o'gay ko'z bilan qaraydigan kalondimog' kishilarni tushunardik. Endi esa manzara tamoman o'zgardi.

Ko'p marta xizmat safarlarida yurdim, viloyatlarda, tumanlarda, eng chekka qishloqlarda uyushtirilgan tadbirlarda ishtirok etdim. Va hamma joyda ko'rdimki, rahbarlar o'zgargan. Xalqqa xizmat qilish uchun ularning qo'li ko'ksida. Bularning hammasi shu xalqni yaxshi ko'rgan, el farovonligi, yurtimiz tinchligi yo'lida tinim bilmay mehnat qilayotgan davlat rahbarining yuksak insoniylik fazilatlarini natijasidir.

Tashabbus qo‘llab-quvvatlantiriladigan, mehnat munosib rag‘batlantiradigan davr keldi.

## **Olamshumul o‘zgarishlar davri**

Bugun O‘zbekistonda barcha sohalarda yuz berayotgan o‘zgarishlarni kuzatib, shu ishlarning boshida turgan va fidoyilik ko‘rsatayotgan zotlarga tasanno aytaman. Ayniqsa, san‘at, madaniyat sohasiga berilayotgan e‘tibordan boshim osmonga yetadi.

Egasiz qolayotgan do‘mbiralarimiz yana baxshilarning qo‘liga tushib, mardlik, tantilik, jasorat kabi fazilatlarni tarannum etmoqda. YUNESKO tashkiloti “Lazgi” raqsimizni insoniyatning noyob madaniy boyliklari ro‘yxatiga kiritishi ham o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q, albatta.

Bundan ikki yil oldin Prezidentimizning madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirishga doir muhim qarorini o‘qib, juda xursand bo‘lgan edim. Shu yilning boshida esa madaniyat va san‘atning jamiyatdagi nufuzini yanada oshirishga qaratilgan navbatdagi qaror nafaqat biz san‘atkorlar, butun san‘atsevar xalqimiz tomonidan ham katta quvonch bilan kutib olindi. Axir, birodarlar, san‘at va madaniyatga e‘tibor bo‘lsa, shunchalik bo‘ladi-da.

Muhimi, yurtimizdagi hayotbaxsh o‘zgarishlar nafasi chegaralardan oshib, olis-yaqin mamlakatlarda yashayotgan vatandoshlarimizning ham qalbida aks sado bermoqda. Bir paytlar xorijiy gastrollarda “O‘zbekim”ni kuylaganimizda millatdoshlarimizning ko‘zida hasrat, chorasizlikni ko‘rgan bo‘lsak, bugun ishonch, minnatdorlikni ko‘ryapmiz.

Men bu gaplarni bejiz aytayotganim yo‘q. Ko‘pchilik yaxshi biladi, 2021-yilda Prezidentimiz qarori bilan “Vatandoshlar” jamoat fondi tashkil etildi. Bu mo‘tabar jamg‘armaga kaminaning

rahbar etib tayinlangani zimmamga ulkan mas'uliyat yukladi. Shu bois, xorijdagi yurtdoshlarimiz bilan tez-tez suhbatlashib, O'zbekistondagi yangilanishlar haqida fikr almashib, maslahatlashib turibmiz.

Hammasining tilida bir gap: "Bizning xalqimiz bugun yaxshi yashashga munosib. Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalq manfaatlarini o'ylab amalga oshirayotgan siyosati bardavom bo'lsin, mustahkam irodasiga ko'z tegmasin! Biz ham ana shu tarixiy o'zgarishlarga o'z hissamizni qo'shishni istaymiz".

Bu istak qanday paydo bo'ladi? Avvalo, qoniqish, havas hissi tufayli. Sir emas, vaqtida o'zbekning ko'p zabardast, iste'dodli, bilimli yigitlari ona yurtidagi biqiq muhitdan zada bo'lib, chet ellarga ketib qolgan edi. Ular rivojlangan Yevropa yoki boshqa mamlakatlarda o'z o'rnini topdi. Dunyoga mashhur yetakchi kompaniyalarda mas'ul lavozimlarda ishlab kelyapti. Lekin ular qayerda ishlamasin, qanday yutuq va natijalarga erishmasin, hamisha kindik qoni tomgan ona Vatani – O'zbekiston taraqqiyoti uchun o'zlari ham mas'ul ekanini yaxshi angelaydi, yurt ravnaqi yo'lida xizmat qilishni sharaf, deb biladi.

Nasib etsa, bunday vatanparvar yurtdoshlarimiz bilan ko'p ishlarni amalga oshirishni rejalashtirib qo'yganmiz.

## **Ziyo – Sharqdan!**

Bugun O'zbekiston haqiqiy ma'noda ma'naviy taraqqiyot yo'liga kirdi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, ma'naviyat – insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi, chirog'i hisoblanadi. Ana shu chiroq odamzodning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbida ezgu insoniy hissiyotlarni kuchaytiradi. Yurtimizda yangi uyg'onish davri yaratilayotgan tarixiy bir davrda har bir vatandoshimizning

qalbini ana shunday ma'naviyat shu'lasini munavvar qilib, barchamizni ezgu ishlar sari da'vat etib turishi kerak.

Ma'naviy yuksalish, eng avvalo, milliy qadriyatlarni aziz tutishdan boshlanadi. Bizda san'atsevarlik, kitobxonlik, ilmga intilish, sog'lom tan va ruhni tarbiyalash – azaldan eng go'zal milliy qadriyatlarimiz sanaladi.

“Ziyo Sharqdan taraladi” degan hikmatli ibora ham bejiz emas. Bizning zaminimizda yuz ochgan Birinchi va Ikkinchi Renessans hodisalariga ham ma'rifatli ajdodlarimizning insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan ezgu g'oyalarni milliy qadriyat darajasiga ko'targani asosiy sabab bo'lgan edi.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan milliy maqom san'atimizni yanada rivojlantirish maqsadida alohida qaror qabul qilingani, har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish an'anasi joriy qilingani ma'naviy hayotimizda juda katta tarixiy voqea bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning: “Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”, degan fikri zamirida katta hayotiy haqiqat mujassam.

Chunki maqom – san'atimiz gultoji, xalqimiz ma'naviy dunyosining ko'zgusi. Maqom falsafasi insonning qalbi va ruhini tarbiyalaydi. Bu asrlar sinovidan o'tgan haqiqat.

Xalqaro maqom san'ati va anjumani aynan qadimiy va navqiron Shahrisabz shahrida tashkil etilayotgani ham bejiz emas. Bu sharofatli zamin Sohibqiron Amir Temurni ulg'aytirgan. Bu ulug' zot o'z davrida ilm-fan va san'at homiysi sifatida ham dovrug' qozongan. O'tmishda shahri Keshdan qanchadan qancha

mashhur shoir-u allomalar yetishib chiqqan, madaniyat va san'at rivojlangan.

O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etilgani ham barchamizni quvontirdi. Milliy san'atimiz ahlining orzusi ushaldi. Bugun bu markaz faoliyati ustozlar siymosida maktablarga, san'at maskanlariga ko'chgan. O'zimiz ham maktablarga borib, yoshlar bilan ko'p suhbatlar qurdik.

Bizni quvontirgani, yurtimizda maqom san'atiga qiziqadigan, iqtidorli yigit-qizlar juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Erta bir kun ular o'zlarining mahorati va bilimini oshirib, milliy maqom san'atimiz dovrug'ini dunyoga yanada ko'proq mashhur qilishi shubhasiz.

Baxshichilik san'atiga qaratilayotgan e'tibor haqida ham ana shunday iliq fikrlarni aytish mumkin. Zero, Baxshichilik san'ati markazi faoliyat boshlagani, qisqa vaqt ichida Termiz va Nukus shaharlarida xalqaro baxshichilik san'ati festivali yuqori saviyada tashkil qilingani barchamizni birday xursand qiladi.

**“Bu kunlarga yetganlar bor,  
yetmaganlar bor...”**

O'rni kelganda ko'nglimdagi ba'zi kechinmalarimni ham tilga olmoqchi edim. Hayotim davomida chiqargan eng muhim xulosalarimdan biri shu bo'ldiki, ona – bu yorug' dunyoda eng mushfiq, eng mehribon zot ekan. Parvardigor lutf-u marhamatining yerdagi tim-soli bo'lgan bu tabarruk xilqat haqida qancha gapirilsa, uning sharafiga she'r va qo'shiqlar to'qilsa, shuncha ozdir.

Agar osmon daftariga yulduzlar kotiblik qilib, dengizdagi suvlar, daraxt yaproqlari, biyobonlardagi qumlar miqdoricha so'z yasab, mahshargacha onaning vasfini yozsalar ham, uning chaqalog'i



boshida bir kecha chekkan ranj-u mashaqqatiga barobar bo‘lmas. degan ekan allomalardan biri.

Aziz muxlislarimiz yaxshi biladi: elning to‘y-ma‘rakasi bo‘ladimi, konsert dasturi bo‘ladimi, qo‘limga torni olib sahnaga chiqsam. albatta, birinchi navbatda, onani vasf etuvchi qo‘shiqni kuylayman:

*Onaginam, dorilomon kunlar keldi, shafaqlari ol,  
Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor...*

Bugun ayni shu satrlarni nafaqat aziz va munis onalarimizga. balki jonajon Vatanimizga nisbatan qo‘llab kuylasak ham, har jihatdan to‘g‘ri va o‘rinli bo‘ladi, deb o‘ylayman.

### **Bebaho merosimizga gard yuqmasin!**

Men hamisha maza-matrasiz qo‘shiqlari bilan san‘atimizning obro‘sinini to‘kadigan otarchilarga qarshi bo‘lganman. Lekin insof bilan aytadigan bo‘lsak, aynan o‘zbekimning to‘ylari sharofati bilan bugungi kungacha milliy san‘atimizning durdonalari, xalq qo‘shiqlari va o‘yinlari, rasm-rusumlar va qadriyatlar saqlanib qoldi. Bugun biz dunyoga mumtoz maqomlarimizni, baxshichiligimizni, ko‘pkarimizni, buxorocha va farg‘onacha kurashlarimizni ko‘rsatish uchun harakat qilyapmiz. Shunday boy va bebaho madaniy merosimizni omonlikda asrab, bugungi kungacha yetib kelishiga to‘ylari orqali himmat ko‘rsatgan shu xalqdan bir umr minnatdormiz.

Gapni bejiz to‘ydan boshlamadim: to‘y – o‘zbekning murodiga yetgan kuni, baxt mazmuni. Biz, san‘atkorlar hamma vaqt elning boshi to‘ydan chiqmasin, deymiz. Chunki bizning to‘ylarimiz kuy-qo‘shiqsiz o‘tmaydi.

Qo‘shiq jamiyatning barcha qatlamlari – yosh-u qari, olim-u shoir, oshiq-u orif... barcha-barcha uchun nondek qadrlı, ma‘naviy yo‘ldosh, ruhiy madaddir. Inson o‘z quvonch-u qayg‘usi, hasrat va iztiroblari, orzu-armonlari, e‘tiqod va muhabbatini qo‘shiqlardan izlaydi, o‘z holati va kayfiyatiga munosib qo‘shiq topilganda esa, bu topildiqdan hosil bo‘ladigan ruhiy sururni boshqa hech narsa bilan almashtirmaydi. Qo‘shiqning ajoyib bir xususiyati borki, u yolg‘izlikda yoki ikki-uch kishi orasida tug‘ilib, millionlarning tuyg‘usini birlashtiradi. Adabiyot yoki musiqaning boshqa janrlari kitobxonga yoki tinglovchiga yetib borguncha, qo‘shiq butun mam-lakatni aylanib chiqqan bo‘ladi.

## **Dunyoni mehr qutqaradi**

Men o‘z umrimni aynan shu san‘at turiga bag‘ishlaganimdan, qo‘shiq orqali elning korıga yaraganimdan baxtiyorman. Shu nuq-tayi nazardan, millatni birlashtirib, yagona maqsad sari safarbar qilishda muhim o‘rin tutadigan san‘at va madaniyatni rivojlanti-rishga qaratilgan islohotlar tom ma‘noda farovon kelajak poydevori bo‘lishiga hissa qo‘shadi, degan fikrdaman.

Ma‘rifatli inson kuchli bo‘ladi. Kuchli inson o‘zıga ishongan bo‘ladi. O‘zıga ishongan inson bag‘rikeng bo‘ladi. Bag‘rikeng in-son xalqning ehtiromi va muhabbatiga sazovor bo‘ladi. Qolaversa, boshqalarning hurmati va e‘tiborini joyıga qo‘ya biladi.

Yaqındagina ana shunday hurmatdan men ham bahramand bo‘ldim. Muhtaram Prezidentimiz farmonıga ko‘ra, davlatimizning yuksak mukofoti – “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlandim. Shu bilan birga, kamtarona xizmatimizga yuksak baho ifodasi – tabrik nam olganimda, ochıg‘i, xursandchilikdan boshim osmonga yetdi. Bu e‘tirof nafaqat menga, balki o‘zbek san‘ati rivoji yo‘lida xizmat

qilib kelayotgan barcha hamkasblarim, do‘stlarim, shogirdlarimga ham birdek tegishli.

Bugun biz inson mehnat qilsa rag‘bat va qadr topadigan adolatli zamonda yashayapmiz. Mana shu ulug‘ ne‘matning qadriga yetaylik, birodarlar, degim keladi.

Dunyoni mehr qutqaradi. Bir insonga bir og‘iz shirin so‘z ayt-sangiz, olam-jahonga hadya-ehson ko‘rsatganning savobini olasiz. Bu olamning asl ma‘nosi omonat, o‘tkinchi ekanini bilgan orif zotlar bag‘rikenglikni, mehr-u muhabbatni ulug‘laydi, do‘stona rish-talarni mustahkamlaydi. Odamiylik, insoniylikka amal qilish qanchalar saodat. Bugun biz ana shunday mehrparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik siyosatidan bahramandmiz. Bu siyosat yopilgan yo‘llarni ochdi, umidsizlangan qalblarga ishonch baxsh etdi, qurigan ildizga suv, tushkunliklarga barham berdi. Mana shunday dorilomon kunlarimizga ko‘z tegmasin, ilohim!

**EL AZIZ, INSON AZIZ**

Mo'tabar merosdir bizga: yer aziz, osmon aziz,  
Bu muqaddas yurtimizda el aziz, inson aziz.

Tabarruk tuproqda ungan maysalar ham to'tiyo,  
Bog'bon mehri birla boqsang, gul aziz, bo'ston aziz.

Beqadr kechdi zamonlar, beqadr o'tdi bashar,  
Qadr topgan shul davrni bil aziz, davron aziz.

Imonli sevgay Vatanni, imonsizlar bewatan,  
Muhaddislar yurtidir bu, dil aziz, imon aziz.

Azizim, qardosh do'stim, bog'imizdir muntazir,  
Mehmondo'st o'zbek eliga kel, aziz, mehmon aziz.

Qutlug' Vatanning madhiga qo'lda sozim tinmagay,  
Aziz yurtidan ilhom olsang, she'r aziz, doston aziz.

Mo'tabar merosdir bizga: yer aziz, osmon aziz,  
Bu Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz.

## ODDIY YASHASH ZAVQI

Tog‘-u dashtda yashashning birmuncha murakkab jihatlari bor. Avvalo, odamlar osmondan imdod kutadilar. Yilning yaxshi yo yomon kelgani yog‘ingarchilik bilan bog‘liq. Qor, yomg‘ir ko‘p yog‘sa – berdi Xudo, yog‘may qo‘ysa – urdi Xudo.

Bu yilgi havoni aytmay sizmi! O‘n kunlab qatorasiga sharros quygan yomg‘ir hatto ayrimlarni bezdirib ham qo‘ydi. Tomi shiferlanmagan molxona, qo‘ra yo o‘tinxonalarning devorlari qulab yoki o‘pirilib tushdi.

Biz, shaharda istiqomat qilayotganlar ham bu voqealarga befarq emasmiz, albatta.

Bulturgi bemahal, injiq kelgan sovuq uyimiz biqinida o‘sgan bodom, o‘rik gullarini urib, hosilini nobud qilib ketmadimi? Yog‘ingarchilik kam bo‘lganidan suv omborlari zaxirasi kamayib, ayni yoz chillasi chog‘ida ekinlarga zarur miqdorda suv topolmaganimiz-chi?

Yo‘qchilik odamni ko‘p tadbirlar ishlab chiqishga majbur qilgani kabi qurg‘oqchilik yoki yog‘ingarchilik ham dono qilib qo‘yadi. Masalan, sigir yoki sher yilida tabiiy talafotlar kamroq yuz berar emish, deyishadi. Sichqon, maymun, to‘ng‘iz yilida esa...

Qishloqqa, jiyanimga telefon qilib, bu yil zamburug‘, qo‘ziqorin ko‘paygan chiqar, deb so‘radim. Sababi, qaysidir yili maktabdan qaytayotib, yo‘l yoqasidagi qo‘ziqorinlardan terib, sariyog‘ga pishirib yegani haqida “SMS” yozib, rasm qo‘ygan edi. Bu gal hanuz qo‘ziqorindan darak yo‘q emish.

– Bu safar yomg‘ir o‘shandan ham ko‘p bo‘ldi-ku, – degan taajjubimga:

– Tog‘a, yer isigani yo‘q. Yer isimasa, guldir-qaldir momaqaldiroqning ham foydasi yo‘q, – deydi jiyanim.

Qishloqda o‘ sibmiz, qo‘ziqorin yebmiz-u, bu yog‘ini bilmabmiz. Hali maktabda o‘qiyotgan jiyanimning tajribasi biznikidan ko‘proq ekan-da. Ziroatchilik bobida ayni olim odamga duchor bo‘lganday, tag‘in savol beraman:

– Nima deb o‘ylaysan, jiyan, keyingi gal yog‘gan qor ayozi bu yil ham o‘riklarni urib ketdimikan?

– Hammasini emas, erta gullaganlarini qiyratdi. Ularniyam to‘liq urmagan, sarg‘aymagan gullari bor. Lekin, tog‘a, qo‘ziqorin yemasak ham yilning yaxshi kelgani shu: soy to‘lib suv kelyapti. Soy suvi To‘sinsoy suv omboriga quyilayotganiga bir oydan oshdi. Nakurtsoy, Garashasoydan ham suv quyilyapti. Muhimi, yer to‘ydi, buloq, quduqlarning suvi ko‘paydi. Odamlarning dimog‘i chog‘, yer tobga kelsa, bahorikor ekinlarni ekmoqchi. Bulturgi yilda g‘alla, no‘xatning mazasi bo‘lmadi. Bozorda no‘xatning narxi ko‘tarildi, bu odamlarning dasturxoniga ta‘sir qiladi-da.

Men hikoya qilayotgan yurt Qo‘shrabot. Qishlog‘im – Quvkalla Qo‘shrabotning ham bir cheti. Ilgari Qo‘shrabotning tog‘ida yuz minglab qo‘y-qo‘zi o‘tlagan. Mavjud sakkizta xo‘jalikning barchasi chorvachilikka ixtisoslashgan, birgina “Biopunkt” xo‘jaligida respublikada eng yirik yilqichilik xo‘jaligi rivojlantirilgan. Bu xo‘jalik o‘z sarmoya va otlar soni jihatidan Jizzax otchilik zavodidan ikki, Denov yilqichilik xo‘jaligidan to‘rt hissa katta bo‘lgan va mamlakatda, qo‘shni yurtlarda dong‘i ketgan zotlar yetishtirilgan.

Bu yurtda bugun ham gumburlagan ko‘pkarilar chopadi. Polvonlari hayqiradi. Tog‘-toshlar orasida haliyam toychoqlar kishnaydi. Ammo endi ular juda kam. Uyur-uyur yilqilarni, suruv-suruv

qo‘ylarni bag‘riga oladigan makon-yaylovlar ham kamaydi, qisqardi. Aholi soni esa yildan yilga ko‘payib, uy-joyga ehtiyoj ham ortib bordi. Zarmitan qo‘rg‘oni o‘rni ilgari Chormitan deb atalgan. Sababi oddiy: bu joylar birovning e‘tiboriga tushmaydigan yaydoq dasht edi. Nari borsa, qo‘shni qishloqlarning moli boqiladigan yaylov, lekin zinhor birov kelib, qiziqib yashamas edi. Nima bo‘ladi-yu, ittifoqo bir geolog bu yerda ekspedik qidiruv olib borayotib. naqd bir hovuch kattalikdagi yombi topib oladi. O‘shandan beri bu maskanga hammaning qiziqishi ortdi.

70-yillarning boshlari bo‘lsa kerak, mazkur hududlar Moskva “qaramog‘idagi” maxsus zonaga aylantirilgan. Yon-atrofdagi ibtidoiy hayot, bu go‘sha esa... O‘sha davrning chin zamonaviy zarbdor mehnat uchastkasi edi. Kecha-yu kunduz chirog‘i o‘chmaydigan. novvoyxona, oshxona, hashamatli shisha devorli do‘koni oqshom chog‘i ham xizmat ko‘rsatadigan, konchilar-u ishchi-xizmatchilarni uzluksiz u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa, goh uzoq tog‘ manzillariga o‘kiringancha tashib eltuvchi “Ural”, “GAZ-66” rusumli bortli mashinalar qatnovi tinmas, qishloqdan kelib tomosha qilsang ham qarab ko‘zing to‘ymas edi. Ko‘p ishchilar konda ishlagani bois, sariq yoxud qizil rangli kaska kiyib olar, nazarimda, ular bilan uncha-bunchasi gaplashavermas, sababi, ular davlatning eng muhim va tezkor topshirig‘ini bajarar, bekorchi gaplarga vaqtlari yo‘q, shu bois, bemavrid chalg‘itish noinsoflik bo‘lar edi...

Bilasizmi, shundan so‘ng ham ancha muddatgacha kishilar bu maskanni Chormitan atab yurdilar. Nachora, til o‘rgangan. Ammo keyin Zarmitan deyishga o‘tdilar. Harqalay zar, oltin ishlab chiqarilyapti axir... Ketma-ket konlar, o‘sha vaqtda rusum bo‘lgan tipovoy uylar, hammom, garaj, avtobekat... Ha, shu paytgacha hatto Qo‘shrabotday tuman markaziga ham qatnamagan avtobuslar Zarmitandan Samarqandday shahri azimga qatnay boshladi.

Albatta, bu gaplarga yarim asrdan oshdi. Kim bor bugun, kim yo‘q... Odamlar o‘zgardi, sharoit o‘zgardi. Zarmitanda dastlab ish boshlaganlar bugun kamida pensiyada, bo‘lmasa... Chin-da, odamzod har doim yuz yoshga kiravermaydi-ku. Bugun eski ishchilarning balki farzandlari ham pensiyaga chiqqandir, nevaralarini ishga hozirlayotgandir...

Qo‘shrabot ahli ilgari osmonga qarab najot kutar edi, dedim. Bugun bu yurt sanoatlashgan maskanga aylandi. Zarmitan kon qazib olish hududi yiriklashib, Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarkibidagi 4-gidrometeorologiya zavodi ishga tushdi. Zarmitan tikqoya aylanma koni qabatiga ikkinchi G‘o‘jimsoy uchastkasi ham qo‘shildi. G‘o‘jimsoy koni rahbari Akmal Jomonqulovning aytishicha, mazkur yangi konning o‘zida hozir 1200 dan ziyod ishchi faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinati tarkibiga jami 60 ming ishchini sig‘dirgan bo‘lsa, keyingi besh-olti yil ichida Zarmitandagi geologik qidiruvlar natijasida topilgan konlar evaziga bu yerdagi kon, shaxta va zavodlardagi ishchilar soni besh ming nafardan oshdi.

Bu ishsizlik masalasida qiynalgan Qo‘shrabot, Ishtixon, Nurota, Payariq tumanlari yoshlari uchun ayni muddaodir. Ushbu maskanda yosh mutaxassislar bilan qay yo‘sinda ish olib boriladi? Yosh kadr tog‘-kon sohasi mutaxassisligi bo‘yicha diplom yoxud yo‘llanma bilan kelgan bo‘lsa, bosh ustiga, mabodo o‘qimagan, oddiy ishchilikka o‘tmoqchi bo‘lsa, avval uch oylik kursda o‘qib, sertifikat beriladi, shundan so‘ng ishga qabul qilinadi.

Ayni ulkan korxonada sharofati bilan tumanda, ayniqsa, ishsiz yoshlar soni sezilarli darajada kamaygan. Vallohi, Rossiyada ishlab pul topib kelaman, deydi yoshlarni bu yerda deyarli uchratmay-siz. Toza, halol ishlab ham u yerdagidan ikki barobar ko‘p maosh olish mumkin. Ishonasizmi, 41 xonadondan iborat Zulmonota qishlog‘ida atigi ikki oilaning yengil avtomobili yo‘q ekan.



Mamarajab To‘liyev degan sinfdoshim bor edi. Bir o‘g‘il, uch qizi bor, doim ro‘zg‘ori yurishib ketmayotganidan, tuzuk maosh oladigan ish yo‘qligidan nolir edi. Konga amallab qorovullikka ishga o‘tdi, harna oilani tebratib turar edi. Nima falokat bosib, avtomobil urib ketib halok bo‘lganini eshitdim, qayg‘urdim. Qishloqqa borganimda sinfdoshlar yig‘ilib, qabriga marmartosh qo‘ydik. Gapni bir joyga qo‘yib, o‘g‘li Elyorni konga ishga joylashtirishga kelishdik. Sinfdosh do‘stim, kon boshlig‘i bo‘lib ishlayotgan Abdushukur Hayitovning sa‘y-harakati bilan Elyor konga burg‘ilovchi bo‘lib ishga olindi. Chidamli, harakatchan ekan, maoshlari ko‘tarilib bordi.

Birin-ketin singillarini uzatdi, o‘zi uylandi. Bir borganimda “Matiz” mashinasi sotib olibdi. Juda xursand bo‘ldim. Oradan bir-muncha muddat o‘tganda borsam, yap-yangi “Lasetti”da yuribdi.

Sinfdoshlarning farzandlari boshqa sinfdoshlarni ko‘rganda “Falonchi bobo” deb murojaat qilishga odatlangan. Mashinadan tushib:

– Sobir bobo, ishlarim besh. Uch oy bo‘ldi, masterman endi. qo‘limda besh-o‘nta yigit bor. Endi hech narsadan kamchiligim yo‘q. Onamni to‘ylarga mindirib yuray deb shuni oldim. Ozroq qarz-qavola qildim, omon bo‘lsak, ishlab tursak, buniyam uzarman. Xizmatlar bo‘lsa aytaverasiz, bobo.

Bilsam, Elyor shu kunlarda yerosti kon ishlari mexanizatsiyasi sexining shaxtani shamollatish uchastkasi boshlig‘i ekan.

Sinfdoshimning o‘g‘liga men nima xizmat aytaman? Sog‘, omon bo‘lsa, oilasiga bosh bo‘lib tursa, bas. Yana bir konchi yigit Jamoliddin Sulaymonov. Uning ishchi korjomasi kiyganiga ham hademay yigirma yil to‘ladi. Bu yerda ish stajing oshaversa, ortiqcha xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘ymay, intizom bilan mehnat qilsang, oyma-oy, yilma-yil rag‘batlantirilasan. Jamoliddinda ham xuddi shunday bo‘ldi. Matbuotda ba‘zan 15–18 millionlik oyliklarni xuddi afsonaga o‘xshatib gapirishadi. “Holbuki, oylik hamda kvartal

rejalari to‘la-to‘kis bajarilsa bo‘ldi, – deydi Jamoliddin. – O‘zimiz uchun bayramni o‘zimiz yaratamiz. Shu safar oladigan moyana miqdorini ham chamalab bilib turamiz”.

Chamasi bundan yigirma yilcha burun Zarmitan tog‘-kon hududida yerga qarab bir zayl to‘g‘ri qazish emas, balki tikqoya shaklda kon ishi tashkil etilishi ma‘qul deb topilib, shu narsa joriy qilingan edi. O‘shanda Shvetsiyaning “Atlas copco” texnika uskunalari eng zamonaviy hisoblanib, keng qo‘llangan. Hozirga kelib, butunlay yangi texnologiyalar joriy etilgan. Qazib olinayotgan ruda ham avvalgi singari Marjonbuloq oltin zavodiga tashib ketilmay, to‘g‘ri shu yerdagi 4-zavod (GMZ)ga yetkazib beriladi, xolos. Ana shu rudani zamonaviy texnikada kerakli manzilga yetkazib berayotgan haydovchilar qancha maosh olayotganini bilasizmi? 18-20 million so‘m. Ha-ha, O‘zbekistonda. Qo‘shrabotning Zarkentida! Ishonavering, afsona emas! Bu fakti ma‘dan tashuvchi yangi MT-431, KAS-ZEPELIN, MAN rusumli, har biri bir yo‘la 30-31 tonna ruda ortishga mo‘ljallangan rudatashir mashina haydovchilari Muzaffar Qo‘chqorov, To‘lqin O‘narov, Nuriddin Tinibekov aytsin.

Zarkent qo‘rg‘onida ishchi-xodimlar uchun ko‘p qavatli uylar bilan birga, bolalar va ota-onalar dam oladigan bog‘, hovuz, yangi sport va mini futbol zallari qurib bitkazildi. Eski yo‘llar ta‘mirlanib, asfalt yotqizildi. Xizmat ko‘rsatish sohasi ham sezilarli darajada rivojlandi, zamonaviy servis va savdo shoxobchalari bunyod etildi. Mazkur ishlarga bosh-qosh bo‘layotgan konning faxriylaridan biri Do‘stmurod Yunusovni uchratib qoldim. Do‘stmurod aka eski konchi, qaysidir yillari kongra direktorlik ham qilgan. Mana, bugun bir talay shogirdlari bilan birga kon va atrofidagi infratuzilmani yaxshilash sa‘y-harakatida.

O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 1-martdagi tegishli qaroriga muvofiq, 2026-yilgacha NKMK bo‘yicha qimmatbaho metallar ishlab chiqarishning qo‘shimcha choralari dasturi qabul qilingan

edi. Ishlab chiqarishning jadallashgani samarasi o‘laroq, o‘tgan yili kombinat tarixda misli ko‘rilmagan hosil – 101 tonna sof oltin ishlab chiqardi. Ha, ulkan tarixiy voqea! Dunyo miqyosida alohida e’tirof etilishga loyiq voqea! Bugun, ertaga ham maqtansa bo‘lgulik gap!

Matbuotda joriy yilning dastlabki ikki oyida kombinat jami 2,3 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarganini o‘qib yuragim hapriqdi. Axir, bu juda ulkan yutuq-ku! Bu galgi reja bulturgidar kam bo‘lmas ekan!

Buning natijasida yuqorida tilga olganim – Elyor To‘liyev kab: ishsiz yoshlar ishga olinayotir, yaxshi mehnati rag‘batlantirilyotir. Qishloqdagi mashinasiz atigi ikkitagina xonadon ham ushbu orzu-havasi uchun intilib yashamoqda...

Ehh, bu yerdagi hayotni avvalgisi bilan sira taqqoslab bo‘lmaydi!..

Elyorning hayoti, yashash tarzi bugungi Qo‘shrabotning yosh bir ishchisi timsoli desam, nima deysiz?! Oddiy, halol yashash shunaqa bo‘ladi-da, to‘g‘rimi?

## HAQIQATGA DO'NAYOTGAN XAYOLLAR

Odamning kayfiyati yaxshi bo'lmasa, uyidan chiqqisi kelmaydi. Ammo ko'ksini sog'inchli, g'ururli, kurashchan tuyg'ular to'ldirib tursa, ko'ziga yo'l ko'rinaveradi. Men ham keyingi paytlarda, ertaklarda aytilganidek, "yo'l yurdim, yo'l yursam ham mo'l yurdim". Gap avvalida aytishim kerak, goh obod qishloqlar, goh cho'l, dashtlar, ba'zan esa tog'-u daralar aro kechayotgan safarlarimiz mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan e'tiborimizga havola etilayotgan "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiorining hayotga, haqiqatga ko'chayotgani bilan bog'liq.

O'rni kelganda eslab o'tish joizki, bir paytlar chiroyli shiorlar faqat imoratlarning peshtoqlarida yarqirab turardi, xolos. Bahor, kuz yomg'irlari yuvib, qish ayozlari yalab, saraton olovlari kuydirib, turgan joylarida rangi o'ngib yo titilib ketardi hamki, kimningdir hayotiga kira olmasdi. Odamlar unga "narsa" deb qarashar edi. Bizning davrimizga, aynan hozirgi kunlarimizga kelib davlatimiz siyosatining o'qtomiriga aylangan shiorlar keng ko'lamli harakatga, faoliyatga aylanib ulgurdi.

Shu ma'noda, "qadr", "inson qadri" tushunchalarini, yana ham aniqroq ifodalasak, "ayol, ona, oila muhofazasi" so'zlarining bo'yini yana ham balandlatib, o'zini ulkanlashtirib ko'z oldimizga keltiradigan raqamlardan so'z ochsak, fikrlarimiz yana ham ishonchliroq ko'rinish oladi:

– keyingi besh yil mobaynida 12144 nafar xotin-qiz uy-joy bilan ta'minlandi, ulardan 4283 nafariga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi;

– mamlakatimizning turli hududlarida istiqomat qilayotgan to‘rt ming nafarga yaqin xotin-qiz kasb-hunarga o‘qitildi;

– davlat granti asosida oliygohlarga qabul qilingan xotin-qizlar soni uch ming nafarga yaqin. Besh yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan, lekin oliy ma‘lumoti bo‘lmagan 28664 nafar ayolga oliy ta‘limga o‘qishga kirish uchun tavsiyanoma berildi;

– 2020–2022-yillar davomida 1335 nafar ayolga murakkab jarrohlik operatsiyalari uchun mablag‘ ajratildi;

– oxirgi to‘rt yilda 21158 nafar ayol turli tibbiy reabilitatsiya vositalari bilan ta‘minlangan...

Bu raqamlarda aslida yurtimiz miqyosida fuqarolarimiz, xususan, nozikkina yelkasida oila, farzandlar yukini ko‘tarib yashayotgan xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan katta g‘amxo‘rlikning mingdan bir ulushi aks etadi, xolos. Lekin shu ulushda ham faqat bizning millatimizga, chin insoniylikka xos mehr-muhabbat atroficha namoyon bo‘lib turibdi.

So‘z avvalini yo‘llar haqidagi fikr bilan boshlagan edim. Eng ko‘p yuradigan yo‘lim – poytaxtni vodiy bilan bog‘laydigan dovon yo‘li. Har gal oynadek tekis yo‘llardan, hech bir to‘siqsiz. tekshiruvsiz onam, jigarlarim taraf oshiqar ekanman, bundan o‘n yillarcha oldin ro‘y bergan bir voqea xotirimda jonlanaveradi.

*Saratonning avj pallasini edi. Birinchi nabiramiz dunyoga kelib. chillasi chiqqach, ota-onamizdan duo olish uchun Andijonga yo‘l oldik. Kun juda issiq. Tez-tez yo‘l nazoratchilari to‘sadi, turnaqator navbatlar. Bir postda to‘xtatib, odatdagidek hujjatlarimizni ko‘ra boshlashdi. Harbiy kiyimdagi bo‘ydor yigit bizga qarab: “Chaqa-loqning guvohnomasini berib yuboringlar”, dedi. Bir-birimizga qarab hayron bo‘lamiz.*

– Men olmabman, – dedi ko‘zlari javdirab kelinim.

– Hujjati bo‘lmasa, biz qayerdan bilamiz, balki, o‘g‘irlab ketayotgandirsizlar...

Nazoratchi o‘z bilganidan qolmaydi. Yalindik, yolvordik, o‘z bolamiz ekanligini isbotlash ilinjida hatto ont ichdik, bo‘lmadi. Baribir nazoratchidan:

– Men xizmat burchimni bajaryapman, – tarzidagi javobni eshitdik. Noiloj orqaga qaytishga majbur bo‘ldik. O‘shanda go‘dakka qo‘shilib o‘zim ham yig‘lagim kelgandi. Yarim yo‘ldan noumid bo‘lib qaytgan bitta biz emasdirmiz. Shunday ko‘ngilsizliklarni bugunimizga qiyoslaganda – “Ortda qolgani rost bo‘lsin”, degan tilak ko‘ngildan kechadi. Va o‘zimizni turli taqdirlarga boshlab ketayotgan yo‘llarga yuragimiz bilan bog‘lanamiz.

Yaqinda targ‘ibot guruhi bilan Farg‘ona viloyatining Dang‘ara tumanida bo‘lib qaytdik. Safarimizning bosh muddaosidan kelib chiqib, guruh-guruh bo‘lib kam ta‘minlangan, ehtiyojmand xonadonlarga kira boshladik. Odamlar shoirlar, san‘atkorlarni o‘zlariga yaqin oladi. Tortinmay ko‘nglini ochadi.

“Urganji” MFY Guzarboshi ko‘chasida istiqomat qiluvchi Dilbaroy Jumayevaning xonadonidamiz. Hamma yoq chinni-chiroq, atirgul, nargiz gullar ochilib, rayhonlar muattar bo‘y taratib turibdi. Polizda ekinlar, mo‘jazgina bog‘da mevali daraxtlar bor. Ayol birinchi guruh nogironi bo‘lib, jigar xastaligidan aziyat chekarkan. Turmush o‘rtog‘i ham rafiqasining dardiga dardmon izlab, olishlarga ishlagani ketibdi. “Mahalla bizni tashlab qo‘ygani yo‘q. Qo‘shnimning tandiridan non isi gupursa, bir juf-ti, albatta, bizgayam kiradi. Qozonida tansiq taom pishsa, nasiba chiqarishadi... 400 ming so‘m nafaqa olardim, mana endi 600 ming so‘m bo‘libdi. Bir hukumatning bir insonga e‘tibori shuncha bo‘ladi-da!” Dilbaroyning gaplarida soxtalik yo‘q. Aksincha, mehr-muhabbat qurshovida yashayotganidan, orqasida himoya borligidan xursand.

Navbatdagi kirgan xonadonimizning qizi Adolatxon Sultonova 2-guruh nogironi ekan. Onasi Malohatxon – farrosh, otasi Baho-

dirjon – quruvchi. Oilada ikki nogiron farzand, buning ustiga kelinlarida ham shunday nuqson bor ekan.

– Do‘xtirlar aytgan, ammo o‘sha paytda yosh ekanmiz, gaplari u qulog‘imizdan kirib, bunisidan chiqib ketgan, – deydi uy bekasi afsus-nadomat bilan. – Turmush o‘rtog‘im bilan yaqin qarindoshmiz, endi iztirobini birgina biz emas, farzandlarimiz ham birga tortyapti.

*Lekin oila a‘zolarida bugunidan nolish, shikoyat yo‘q, shukronalik qalblariga quvvat, yashashga kuch berayotgani ko‘rinib turibdi. Malohatxon o‘zbek ayoliga xos tortinchoqlik bilan hamshiralikka o‘qigan keliniga ish masalasida yordam berishimizni so‘radi. Tuman oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi mutasaddisi bu vazifani o‘z zimmasiga oldi. Suhbatning bunday tus olishi Adolatoyini ham ruhlantirib yubordi chog‘i:*

– Men chevarlikka qiziqaman. Agar yaxshi bir tikuv mashinasi bo‘lsa, bichish-tikish qilib, oilamga yordam berardim, – deb qoldi. Uning istagiga tuman hokimi Shuhratjon Tojihakimov darrov peshvoz chiqdi. Mariya Lopasday mashhur chevar bo‘lishni orzu qilayotgan bu qizga eng so‘nggi rusumdagi tikuv mashinasi sovg‘a qilindi. Dang‘arada qaysi xonadonga qadamimiz yetsa, obodlik ko‘rdik. Odamlar mehnatga ishtiyoqli, mehmondo‘st. “Hay-hay”lab to‘xtatishimizga qaramay, darrov bir piyola choyga unnashadi.

– Shuncha joydan kelasizlar-u, qutlug‘ xonadondan quruq ketasizlarmi? – deya ginaga o‘tishgach, ko‘ngillari uchun bir piyola choyni tik turib bo‘lsa-da, ichdik. Shukr, yurtimizda mustaqillik qurb-u qudratidan kuch olmagan biror yurtdoshimizni uchratmadik. Odam bunday lahzalarda yana xayolan iziga qayrilaveradi.

Taqdirimizga istiqlol bitilgan dastlabki kunlar edi. Yangi ro‘zg‘or bo‘lganimiz uchun yupunroqmiz. Do‘kon rastalari bo‘mbo‘sh, oziq-ovqatlar talonga berilardi. Odamlarda “Yog‘ berayotgan

emishmi, un keldimi?” tarzidagi tahlikalar. Bir do‘konda rangi o‘ngibgina ketgan qog‘ozga o‘ralgan makaronni ko‘rib, tillo topgan qulday suyunib ketdim. Uyga kelib ochsam, makaron mog‘orlab ketibdi. Ro‘zg‘orimiz endigina ajralib chiqqan, qaynata-qaynanamga borgani istihola qilaman. Ota-onamdan nimadir so‘rash uchun yana andisha yo‘limni to‘sadi. Axiyri, non kombinati yetakchilaridan biri bo‘lgan qaynatamga ming xijolatlikda tish yordim.

– Qizim, qaram davlat bo‘libmizki, bizning umrimiz mana shunday yo‘qchilik ichida o‘tib kelyapti. Zog‘ora nonga qornimiz to‘ymagan davrlarning mashaqqatini ham sabr bilan yengdik. O‘sha sizning ko‘nglingizni xijil qilgan makaronlar o‘zimizniki. Quritish uskunasi bo‘lmagani uchun mog‘orlab ketgan. Kuz havosida oftobga yoyib quritib bo‘lmas ekan. Biz necha yillar birovlarning dalasida ungan bug‘doyga ko‘z tikib yashadik. Endi bunday bo‘lmaydi. Hovlilarimizdagi bir qarich yerga-da bug‘doy urug‘ini sepishimiz, kartoshka ekishimiz kerak. O‘zimizni uddalaydigan xalq ekanimizni isbot qilishimiz lozim.

Qaynatamning bu gaplaridan yuragimga kuch kelganday bo‘lgan.

Darhaqiqat, shunday dorilamon kunlarga yetib keldik. Mayli-da, hali bitmagan kamlarimiz bordir. Qaysidir go‘sha yo kimdir e‘tibordan sal chekkaroqdadir, lekin hammasi vaqti-vaqti bilan joyiga tushadi. Chunki davlatimiz siyosatida, “Mening xalqim, mening elim, men unga javobgarman”, degan olijanob qarash bor ekan, qaysi bir yaxshi kun hamma yurtdoshlarimizning tegrasida himoya qo‘rg‘oni qad ko‘taradi.

Adolat bilan qaraylik: magistraturada o‘qimoqni orzulagan qizlarimizning to‘lov pullarini davlatimiz yuz foiz o‘z zimmasiga oldi. Bu yildan boshlab bakalavriat talabalari, magistrantlar – xotin-qiz borki, hammasi o‘qishlarga to‘lanadigan ta‘lim kreditlarini foizsiz oladigan bo‘ldi. Bu – ayollarimiz uchun ilm imkonlarining kengay-



## **BU – QUVONCH KO‘Z YOSHLARIM**

Qishli-qirovli kunlarda uyimizni tom bosib qolmasaydi, deb shiftga qarab, yuragimni hovuchlab o‘tirardim, ochig‘i, qattiq xavotirlanardim.

Devorlar nurab ketayotgandi, tushkunlikdan chiqolmasdik. Besh qizim bor, kattasining bo‘yi yetib qoldi, o‘zi bilan birga orzu-havaslari ham o‘syapti. Avvallari dugonalaridek sho‘x-shodon yurolmasdi. Shukrki, endi chehrasi ochiq, yaxshi kayfiyatda hovlidagi yumushlarni g‘ayrat-shijoat bilan bajarayotganini kuzatib, ko‘nglim to‘ladi. Singillari ham yonida o‘ynab-kulib yurishibdi...

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Ayollar daftari” tashkil etilganida birinchilardan bo‘lib bizni ro‘yxatga yozishdi va tez-tez xabar olib turishdi. Bir kuni tumanimiz hokimi mahallamizni o‘rgangani kirdi. Tang ahvolimizni ko‘rib, “Bu uy yashashga yaramaydi, boshqa qurib beriladi!” dedi. Hech qancha vaqt o‘tmay, ustalar kelib, eskisini buzib, yangisini tiklash ishlari boshlab yubordi. Qisqa muddatda ko‘rimsiz boshpanam o‘rnida ko‘rkam uy barpo bo‘ldi. Darvozaxonasi, ayvoni bor, uch xonali yorug‘ va shinam, shifer bilan yopilgan uyga ega bo‘lishni uzoq kutdik. Bolalarim “Aya, tog‘amning puli qachon keladi, qachon yangi uy quramiz?” deb so‘raganida labimni tishlab, ichimdan yig‘lardim. Hozirgisi esa quvonch va shukronalik ko‘z yoshlari.

Mana, peshonamizga bitgan ekan, fayzli boshpana nasib qildi. Juda xursandmiz, hayotimizdan rozimiz! Tumanimiz hokimi, 1-sektor rahbari yangi uyni foydalanishga topshirish tadbirida ham qatnashdi. Qolaversa, uy-ro‘zg‘or buyumlari, zarur oziq-

ovqat mahsulotlari, o‘yinchoqlar, o‘quv qurollari taqdim etishdi. Tabriklash uchun “uy ko‘rdi”ga chiqayotgan qo‘shnilar-u qarindoshlar ham atagan sovg‘a-salomlarini olib kelyapti.

Fursatdan foydalanib, viloyatimiz va tumanimiz mutasaddilari-ga, bizga ko‘maklashgan tadbirkorga, xonadonimizga mehnati singgan bunyodkorlarga alohida tashakkur. Turmushda va ishda qiynalib qolgan ayollar va yoshlar uchun beminnat yordamga undayotgan, ro‘shnolik ulashayotgan, jamiki ezguliklar boshida turgan, mushkullarimizni yengillashtirayotgan Prezidentimizdan bir umr minnatdormiz, samimiy rahmatimiz cheksiz, omon bo‘lsinlar!

Muborak Ramazon oyida ikki qo‘lim duoda. Kelajakda farzandlarim ham xuddi shu insonlardek el koriga yaraydigan, sinovli kunlarda atrofdagilarga yordam qo‘lini cho‘zadiganlardan bo‘lsin, ilohim. Bu hayajonli kunlarni hech qachon esimdand chiqarmayman, dilbandlarim ham aslo unutmaydi. Shu uyda to‘ylar o‘tkazish nasib etsin, farzandlarimning baxtini bersin!

## **O‘Z YURTINGDA SENGA ISHONSA, QIYNALSANG, SUYASA – BAXT SHU EMASMI?!**

Ba‘zan umrim ortga qaytsa-yu, hayotimni qaytadan yashasam, deyman. Boisi, sarobga ishonib farzandlarimizga eng kerakli paytda ularning yonida turolmadik. Kayfiyati qanaqa, nimalarni o‘ylayapti, faqat bizga aytishi mumkin bo‘lgan biror siri bordir – nazar soladigan ko‘z, eshitadigan quloq, taskin beradigan qalb bo‘lolmadik.

1979-yili Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir tumani “Shix-mashhad” mahallasida tug‘ilganman. Buvim ham, onam ham qo‘li gul chevar edi. Ular matoga kashta qadaydimi, ko‘ylak yoki ko‘rpa-yostiqlik tikadimi, atroflarida parvona edim. Ayniqsa, buvimning ko‘rpa qavib o‘tirib bergan o‘gitlari hech esimdan chiqmaydi. Harfdan avval chokni tanidim. Hali savodim chiqmay matoga gul chizdim, kapalaklarni, qushlarni tasvirladim. Maktabda o‘qib yurgan kezzarim buvim va onamga qarashib, oilamizga yordam bera boshladim. “Ha degan tuyaga madad, Shaydo – bizning tirgagimiz”, deb alqardi buvim.

Maktabni bitirgach, turmushga uzatishdi. Ketma-ket farzandlar tug‘ildi. Ular ulg‘aygani sari topgan-tutganimiz ro‘zg‘ordan ortmay qoldi. Shu orada turmush o‘rtog‘im bilan xorijda ishlayotgan akamni qora tortib, yo‘lga chiqdik. Agar hozirgi aqlim o‘sha paytda bo‘lganida qishlog‘imizda qolar va farzandlarimga bosh bo‘lib, ularni o‘zim tarbiya qilgan bo‘lardim.

U yerga borgach, turmush o‘rtog‘im qurilishga yollanma ishchi bo‘lib kirdi. Men esa oshxonada idish yuvdim. Bir sutkada 12–14 soat tik oyoqda turib, qo‘lim suvdan chiqmay ishlardim. Shunday paytlar bo‘lardiki, ko‘zda yosh bilan idish yuvarдим. Na kunimda,

na tunimda halovat bor. Tushkunlikka tushgan kunlarim ham, mayli, biroz sabr qilsam, bu kunlar o'tib ketadi, degan damlarim ham bo'ldi. Shu tariqa "o'tib ketar" degan taskin bilan umrimizning ikki yarim yilini boy berdik. Qancha ruhiy zo'riqishlar bilan yashab, salomatligimizni yo'qotdik, yurtning bir chimdim tuprog'iga zor bo'ldik.

Kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlab, farzandlarimiz yoniga qaytdik. Bu orada bolalar ancha ulg'ayib qolgan edi. Ularning qosh-u ko'zlariga qarab yana o'ksindim.

Xorijga ketganimizda bolalarning kattasi 7-sinfda o'qir, kichkinamiz hali maktabga ham chiqmagan edi. To'rt bola – uch qiz, bir o'g'limizga onam qarab turdi. Tabiiyki, yoshi bir joyga borib qolgan onamga ham bu ish oson bo'lmagan.

Chet eldan qaytgach, yana tushkunlik domiga tushdim. Qizlarimiz ketma-ket bo'y yetib qolgan, ularni so'rab keluvchilar ko'paygan edi. Bilasiz, qizlarni turmushga uzatishning o'ziga yarasha mashaqqatlari bor.

Shu orada mahalla fuqarolar yig'inidan ko'mak berish istagi bilan kelishdi. "Qo'lingizda gulday hunaringiz bor. Kredit olib, tadbirkorlik qiling", dedi mahallamiz raisi. "Kredit" degan so'zdan bir cho'chisam, "tadbirkorlik" so'zi battar qo'rqitdi. Biz oddiy odam bo'lsak, kim bizga kredit beradi? Qolaversa, tadbirkor bo'lish uchun ham bilim kerak. Biz maktabdan narisini ko'rmagan bo'lsak.

Yo'q, men adashgan ekanman. Hujjatlarimni tayyorlab, kredit olish uchun tuman hokimligiga ariza berdim. Ichimda "Bizga baribir kredit berishmaydi", degan ishonchsizlik bor edi. Bir kuni tuman hokimi xonadonimizga kelib, biz bilan suhbatlashdi. Sharoitimizni o'rgandi, kelajakdagi maqsadlarimiz bilan qiziqdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan nochor oilalarga yordam ko'rsatadigan turli shakllar borligi, men ham undan bemalol foydalanishim mumkinligini aytdi. Bular tushga o'xshardi go'yo.

Oradan ko‘p o‘tmay, “Agrobank” tuman filialidan 30 million so‘m miqdorida kredit ajratildi. Tikuv mashinalarini keltirishgan kuni esa kechasi bilan uxlamadim. Uxlay olmadim. Endi farzandlarim uchun o‘z yurtimda nimadir qila olishimdan quvonganimdan yig‘ladim. Eski tikuv mashinasi oldida 3 dona yap-yangi zamonaviy tikuv mashinasi turishi ko‘nglimni ko‘tardi. Yig‘larkanman, yangidan yangi orzular qildim, oldimga katta-katta maqsadlar qo‘ydim. Ishonch insonga naqadar yuksak kuch berishini shu kecha angladim.

Mashinalar o‘rnatilgach, kerakli materiallarni sotib oldim. Ko‘rpa-to‘shak, yostiq tikishni boshladim. Qarasam, daromad yaxshi. Mahalla raisiga yordamchi olmoqchi ekanimni aytgan edim, “Temir daftar”ga ro‘yxatga olingan ikki ayolni tavsiya qildi. Ikkalasi ham mahallamiz kelini, sinalgan ayollar. Go‘zal va Adolatni yonimga olib, ishni davom ettirdik.

Hozir ham kredit to‘layman, ham ro‘zg‘orga qarashaman. Hademay kreditim tugaydi. Tikuv mashinalari va boshlagan ishimiz yonimizga qoladi. Bundan tashqari, o‘zim kabi qiynalgan ikki ayol ish bilan ta‘minlandi.

Yaqinda turmush o‘rtog‘im ham 4 million so‘m kredit olib, is-siqxona qurdi. Hademay bu ham oilamizga qo‘shimcha foyda keltiradi. Meni eng quvontirgani – uydan chiqmay daromad topyapmiz. Farzandlarim bag‘rimda. Huzur-halovatga o‘z yurtimda, o‘z mahallamda erishdim.

Aslida, baxtli bo‘lish uchun insonga ko‘p narsa kerak emas ekan. O‘z yurtimga senga ishonishsa, manzilingni topib olishing uchun yo‘l ko‘rsatsa, qiynalsang suyasa – mana shu baxt emasmi?!

## **BUYUK SAODAT**

Inson qadr topsa, unda yaratuvchanlik, izlanish, o'z ustida ishlash va hayotdan rozilik kayfiyati baland bo'ladi. Mamlakatimizda insonni e'zozlash, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish, aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, qonun ustuvorligini ta'minlash borasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Besh yil oldin boshlangan bu boradagi amaliy ishlar samarasi bugun xalqimizning turmush tarzida, ong-u tafakkuridagi o'zgarishlarda, hayotida namoyon bo'layotir.

Xo'sh, inson qachon baxtli yashaydi, hayotidan rozi bo'ladi? Qachonki, o'z uyiga ega bo'lsa, tayinli ishi, doimiy daromad manbai bo'lsa, oilasi bilan tinch-xotirjam yashasa, farzandlari zamonaviy maktablarda ta'lim olsa, sifatli tibbiy xizmatdan foydalansa, hayotiy manfaatlari, orzu-umidlari ro'yobga chiqib, chinakam yashash zavqini tuysa!

Shu bois, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar aholining yashash sharoitini tubdan yaxshilash, ijtimoiy muammolarni adolatli hal etish, ayniqsa, insonni e'zozlash, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratildi.

## **Hech bir yosh e'tibordan chetda emas**

Keyingi besh yilda mamlakatimizda keng miqyosdagi islohotlar amalga oshirildiki, ularni sanab adog'iga yetolmaysan kishi. Buni birgina yoshlarning iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish,

ular bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilgani misolida ham ko'rish mumkin.

Bu siyosatning zamirida ertamiz davomchilari bo'lgan barcha o'g'il-qizlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, kasb-hunarga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, ilmi qilish, dunyodagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan avlodni voyaga yetkazish uchun mustahkam poydevor qo'yish maqsadi mujassam.

E'tibor bering, bundan besh-olti yil avval yoshlarimiz maktabni tamomlagach, oliy o'quv yurtida o'qishni davom ettirish o'rniga ishlash, yaxshi pul topishga qiziqardi. Sababi, oliygohlarga o'qishga kirish juda qiyin edi. Kvotalar kam, qabul imtihonlarida turli muammolar bor edi. Shu bois, yoshlar xorijga ketishga majbur bo'lar, til bilmasligi tufayli tayinli ish topolmay, ne-ne qiyinchiliklarga duch kelardi. Achinarlisi, og'ir mehnat qilib topgan pulini ololmay, sarson-sargardon yuradiganlar ham kam emasdi.

Bugun-chi? Mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan munosabat butunlay o'zgardi. O'g'il-qizlarimiz bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ularning chet elda huquqlari poymol bo'lishining oldini olish, ijtimoiy muhofazasini ta'minlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. Hech bir yosh davlatimizning e'tibori va g'amxo'rligidan chetda qolayotgani yo'q.

Bu borada xorijga ishlashga ketishdan oldin fuqarolarni kasb-hunar va chet tillariga o'qitish, mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash amaliyotini kengaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Eng muhimi, bundan buyon yoshlarimizning xorijga borishiga ehtiyoj ham qolmayapti. So'nggi yillarda yoshlarni bilimli, malakali, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar etib tayyorlash maqsadida

ta'lim tizimi izchil rivojlantirilmoqda. Yurtimizda yangi korxonalar ishga tushirilishi aholi bandligini ta'minlash, turmush farovonligini oshirishda muhim omil bo'layotir. Bu, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni xorijga ish qidirib ketishdek tashvishli muammodan qutqaryapti.

Agar yurtimizda so'nggi 5 yilda oliy ta'lim muassasalari soni 65 tadan 156 taga yetkazilmaganida, qabul kvotasi 3 barobar oshirilmaganida, aholini tadbirkorlikka jalb qilish, biznesini boshlashi uchun zarur sharoitlar yaratilmaganida, yangi ish o'rinlari tashkil etilmaganida bu ro'shnoliklar qayerda edi, deysiz.

Xo'sh, Prezidentimiz boshchiligida amalga oshirilayotgan bu kabi ezgulikka yo'g'rilgan amallar, xalqchil sa'y-harakatlar kim uchun? Albatta, har bir insonning qayerda yashashi va ishlashidan qat'i nazar, qadr topishi, farovon yashashi, murod-maqsadiga yetishi uchun. Inson qadri shu emasmi, aslida?!

## **Islohotlar samarasi aholining kundalik hayotida o'z aksini topmoqda**

Davlatimiz rahbarining yangi g'oyalar bilan yo'g'rilgan inson-parvarlik siyosati asosini xalqimizning tub manfaatlari tashkil etadi hamda bu siyosat bevosita shu manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan.

Hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar quruq raqamlarda emas, balki aholining kundalik hayoti, ro'zg'orida, dasturxonida o'z aksini topmoqda. Agar yurtimizda yashayotgan oilalar hayotini shu nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, o'tgan davrda qanday salmoqli natijalarga erishganimiz ayon bo'ladi.

Binobarin, o'tgan qisqa davrda mamlakatimizda yangilanishlar nafasi kirib bormagan birorta soha yoki tarmoq, qishloq va mahalla



qolmadi hisob. Aholi bilan bevosita muloqot qilish, ularning dard-u tashvishini, muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. Xalq ichiga kirib, muammolarni o'rganish va hal etish tamoyili davlat tashkilotlari faoliyatining asosiy mezoniga aylandi. Bu orqali odamlarni uzoq yillardan buyon qiynab kelayotgan muammolarga yechim topildi. Aholining kayfiyati, dunyoqarashi va hayotga munosabati o'zgarib, ularda ertangi kunga mustahkam ishonch paydo bo'ldi.

Yana bir hayotiy misol. Ilgari mamlakatimizda kambag'allik yopiq mavzu bo'lib, bu haqda hech kim gapirmasdi. Bugungi kunda O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Aholi o'rtasida kambag'allik borligi ochiq tan olinib, bu muammo bilan jiddiy shug'ullanish boshlandi. Prezidentimiz rahbarligida xalqimiz farovonligi yo'lida juda katta maqsad va vazifalarni amalga oshirishga kirishildi.

Albatta, kambag'allikni oylik yoki nafaqa miqdorini oshirish. odamlarga kredit berish bilan qisqartirib bo'lmaydi. Buning uchun aholini kasbga o'qitish, bandligini ta'minlash, tomorqadan foydalanishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish lozim bo'ladi.

Aslida kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri. bu – ishsizlik. Bu borada aholi bandligini ta'minlash kambag'allikka barham berishning eng to'g'ri va oqilona yo'lidir. Chunki yangi ish o'rinlari yaratilsa, minglab oilalarga daromad, baraka kiradi. Ish joyi tayin, uy tashvishi, muammosi yo'q odamlar esa dunyoni yangilashga, o'zgartirishga qodir bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda ijtimoiy tenglikni muvofiqlashtirish, kambag'al, nochor oilalar turmushini yaxshilash maqsadida "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" joriy etildi va bu tizimning juda sodda, samarali usul ekani allaqachon isbotlandi.

Birgina faol islohotlar, tadbirkorlikni rivojlantirish va mahallabay ishlash natijasida o'tgan yili hududlarda 100 mingta yangi tadbirkorlik subyekti ish boshladi. O'zini o'zi band qilganlar soni 700 mingga ko'payib, 1,2 millionga yetdi. Bu ulkan evrilishlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning xalqchil siyosati bilan bog'liq.

## **O'zgarishlardan minnatdor odamlar**

Xalqimizda "Boylikning boshi – sog'liq", degan naql bor. Chunki salomatlikni har qancha moddiy boylik va mablag' evaziga sotib olib bo'lmaydi. Tinchlik va sog'liq – inson hayoti uchun eng kerakli ne'mat bo'lgani tufayli bu ikki yo'nalish davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim negizlari etib belgilangan.

Sir emas, yaqin yillargacha yurtimizda bu boradagi ahvol talab darajasida emasdi. Xususan, chekka-chekka qishloqlarda joylashgan qishloq vrachlik punktlari binolari eskirgan, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish uchun yetarli sharoitlar yo'q edi. Odamlar tibbiy xizmat sifati pastligidan oddiy kasallik tashxisi yoki muolajasi uchun uzoq yo'l bosib viloyat markaziga, hatto poytaxtga borishga majbur edi.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki davridayoq islohotlarni ayni shu og'riqli nuqtadan boshladi. Aholi sog'lig'ini muhofaza qilishga davlat siyosatining eng muhim yo'nalishi sifatida e'tibor qaratildi. Samarasiz, moddiy-texnika bazasi nochor 3 mingdan ortiq QVP o'rnida 2 mingta poliklinika va oila shifokorlik punkti tashkil etilib, aholiga o'z yashash manzilida to'liq bepul ambulator tibbiy xizmat ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi.

2016-yilgacha yurak sohasidagi murakkab operatsiyalar faqat Toshkent shahrida amalga oshirilgan bo'lsa, ayni vaqtda 12 ta hududda rentgenendovaskulyar bo'limlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. 10 ta viloyatda ochiq kardiojarrohlik amaliyoti o'tkazilyapti va bu o'zgarishlarni xalqimiz yakdillik bilan qo'llab-quvvatlamogda.

Ilgari gemodializ xizmatining poytaxtdagina yo'lga qo'yilgani qator muammolarni keltirib chiqarardi. Dori, sarflov materiallari ham yetmasdi. Bir bemorga to'rt soat gemodializ seansi olib borilishi kerak bo'lsa, uni bir soatgacha qisqartirib, bitta filtrni bitta kasal o'ziga uch-to'rt marta ishlatishga majbur bo'lgan holatlar ham kuzatilgan. Bugungi kunda buyragi ishlamasligi natijasida apparatga bog'lanib qolgan bemorlarning hayot sifatini yaxshilash va to'laqonli yashashi borasida e'tiborga molik ishlar bajarilayotir.

Yaqinda deputatlar bilan birgalikda Akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida bo'lib, bemorlar holidan xabar oldik, ular bilan suhbatlashdik. To'g'risi, ularning ko'zidagi quvonch, davlatimiz, Prezidentimizdan minnatdor ekanligini ko'rib, O'zbekistonda demokratik islohotlar o'z natijasini berayotgani va buni yurtdoshlarimiz o'z hayotida sezayotganidan ko'ngil tog'dek ko'tariladi.

– Ko'p yillardan buyon o'tkir buyrak yetishmovchiligidan aziyat chekib kelaman. Qariyb ikki yil gemodializ oldim. Chunki yaqin-yaqingacha bunday operatsiyalarni chet el klinikalaridagina amalga oshirish mumkin edi, – deydi Toshkent shahrida yashovchi D. Umarov. – Xorijdagi bunday amaliyot katta mablag' talab qilgani bois, bunga hammaniyam qurbi yetmasdi. Endilikda xorijga borishga hojat qolmadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan dunyo tibbiyotida eng murakkab va nozik amaliyot hisoblangan shunday operatsiyalar ham o'zimizda amalga oshirilmoqda. Men ham ush-

bu markazda operatsiya bo‘ldim. Opam bir buyragini berdi. Hozir ahvolimiz ancha yaxshi, shifokorlar o‘z vaqtida qarayapti. Buning uchun davlatimiz rahbaridan cheksiz minnatdormiz.

## **Xalqni rozi qilish – asosiy mezon**

Ortda qolgan besh yilda barcha sohalarda erishilgan yutuqlarga nazar tashlar ekanmiz, Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan tub islohotlarning asosiy maqsadi oliy qadriyat – inson manfaatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgani ayonlashadi.

2022-yilga “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb nom berilishi zamirida ham chuqur ma’no mujassam. Bu yangi O‘zbekiston keyingi besh yilda ham demokratik islohotlar yo‘lidan borib, natijadorlik va sifatni oshirishga katta e’tibor qaratadi, deganidir.

Inson qadrini ulug‘lash – yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlashda mahallaning alohida o‘rni bor. Zero, bugun yurtimizda yashayotgan har bir inson millati, tili va dinidan qat’i nazar, o‘z hayotini, quvonch-u tashvishini mahalladan ayri tasavvur eta olmaydi.

Shu jihatdan davlatimiz tomonidan mahallani tom ma’noda islohotlar markaziga aylantirish va odamlarning muammolarini mahallaning o‘zida hal etishga qaratilgan izchil siyosat olib borilib, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Fuqarolar yig‘inlari raislarining huquq-tartibot, oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy hamda obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimi joriy qilindi.

Yangi yildan 9 ming 309 nafar hokim yordamchilari ish boshladi, ushbu tizimga mas’ul bo‘lgan Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Hokim yordamchilari ijtimoiy daftarlar doirasida o‘z mahallasida o‘rganishlar o‘tkazib, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartira oladi. Prezidentimiz boshchiligida aholini biznesga jalb etish, bandligini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan keng qamrovli ishlar, shu maqsadda ajratilayotgan kredit va subsidiyalar haqida aholiga kengroq ma‘lumotlar berib, ularning adolatli ajratilishiga ko‘maklashadi.

Ushbu maqsadlar uchun joriy yilda 10 trillion so‘m imtiyozli kredit va 2,5 trillion so‘m subsidiya ajratiladi. Bu borada mahallada tadbirkorlik va dehqonchilikni rivojlantirish uchun oilalarni zarur asbob-uskuna va ish qurollari bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratiladi.

Bundan anglashiladiki, endilikda barcha idoralarning bosh vazifasi “mahallabay” ishlash asosida kambag‘allikni qisqartirish va ishsizlikni bartaraf etish hisoblanadi. Bunda aholi, ayniqsa, yoshlar va ayollarni kasb-hunarga o‘qitish, ularning biznesiga ko‘maklashish, ehtiyojmand fuqarolar bilan manzilli ishlash, umuman, xalqni rozi qilish asosiy mezon bo‘ladi.

### **Shunday yurt yana qayda bor?!**

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi xalq farovonligini yanada oshirish, odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Bu borada “Davlat – insonlar uchun” degan ezgu g‘oya hayotimizda izchil qaror topib, ko‘p millatli xalqimiz tinch va osuda hayot kechiryapti.

Quvonarlisi, Prezidentimizning odilona siyosati yurtdoshlarimiz tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanib, O‘zbekiston xalqaro hamjamiyat tomonidan ochiq va demokratik davlat, deya e‘tirof etilmoqda.

Muxtasar aytganda, har birimiz islohotlar jarayoniga o‘z hissamizni qo‘shishimiz, inson qadri ulug‘langan yurt rivoji, taraqqiyoti uchun bor kuch va salohiyatimizni safarbar etishimiz lozim. Zotan, inson haq-huquqlari, qadr-qimmati har narsadan ustun, keksa-yu yoshi, ayollarini e‘zozlaydigan shunday yurt yana qayda bor?!

## MUNDARIJA

So‘zboshi o‘rnida .....	3
<b>Ahmadjon Meliboyev</b>	
Seni tushunsalar va anglasalar... ..	5
<b>Gulichehra Durdiyeva</b>	
Uch taqdir haqida hikoya .....	11
<b>Abdurauf Qorjovov</b>	
Yurtimizda yangilanish nafasi.....	19
<b>Sodiq Safoyev</b>	
Yangi uyg‘onish davrining dasturi.....	29
<b>Sirojiddin Sayyid</b>	
O‘zgarganing rost bo‘lsin.....	39
<b>Zulayho Mahkamova</b>	
Jamiyatimizning yuksalish baxti.....	46
<b>Iroda Toshmatova</b>	
“Yoshlar daftari” – orzu-niyatlar ijobati .....	58
<b>Abu Bakir O‘rozov</b>	
Bu shunchaki raqamlar emas... ..	64
<b>Luqmon Bo‘rixon</b>	
Qadr topgan qoraqalpoq eli bu! .....	72
<b>Bashorat Yunusova</b>	
Armonlar chekindi, orzular ro‘yobga oshdi.....	78

<b>Mnajatdin Qutlimuratov</b>	
Mo‘ynoq: bunyodkorlik va taraqqiyot odimlari .....	82
<b>Shahzod Islomov</b>	
O‘zbekistondagi diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlar musulmon dunyosining diqqat markazida .....	91
<b>Lutfulla Suvonov</b>	
Har bir mahalla va har bir xonadonga.....	99
<b>Qutlibeka Rahimboyeva</b>	
Armonlarimiz yuksak maqsadlarga aylanmoqda.....	108
<b>Maqsud Jonixonov</b>	
Xalqni rozi qilayotgan amallar.....	112
<b>Bahor Xidirova</b>	
Afv instituti .....	121
<b>Mahmud Toir</b>	
Tinchlik tilab dunyoga... ..	124
<b>Bashorat Otajonova</b>	
Yuksak e’tibordan quvonib, sog‘aygandek bo‘ldim .....	126
<b>Joldasbay Nurullayev</b>	
Orzular ushalmoqda .....	132
<b>Ikrom Muslimov</b>	
Sinmagan tarixiy haqiqat va adolat .....	140
<b>Muhammadjon Quronov</b>	
Ko‘kdaladan keladir rozi xalqning ovozi.....	149
<b>Sherali Jo‘rayev</b>	
Dorilomon kunlar keldi, shafaqlari ol.....	158
<b>Iqbol Mirzo</b>	
El aziz, inson aziz .....	167



<b>Sobir O‘nar</b>	
<i>Oddiy yashash zavqi</i> .....	168
<b>Munavvara Usmonova</b>	
<i>Haqiqatga do‘nayotgan xayollar</i> .....	175
<b>Hayotxon Abdullayeva</b>	
<i>Bu – quvonch ko‘z yoshlarim</i> .....	182
<b>Shaydo Ahmedova</b>	
<i>O‘z yurtida senga ishonsa, qiynalsang, suyasa – baxt shu emasmi?!</i> .....	184
<b>Salohiddin Isomiddinov</b>	
<i>Buyuk saodat</i> .....	187

# INSON QADRI

To'plab, nashrga tayyorlovchilar:

*Baxtiyor Yoqubov, Elmurod Nishonov*

Muharrirlar:

*Ikrom Bo'riboev, Zarifjon Mirzaqulov*

Nashriyot muharriri *To'xtamurod Hasanboyev*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Dizayner *Bobur Tuxtarov*

Texnik muharrir *Yelena Tolochko*

Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*

Musahhih *Munisa Ismoilova*

Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*

*Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020.

Bosishga 27-mart 2023-yilda ruxsat etildi. Bichimi 70x100  $\frac{1}{16}$ .

Ofset qog'oz. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 16,12+3,22 zarvaraq. Nashriyot-hisob tabog'i 10,57+3,73 zarvaraq.

Adadi 3000 nusxa. Shartnoma № 25-1/23 Buyurtma № 932

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi

huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"KolorPak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100194, Toshkent, Yangishahar ko'chasi, 1-A

I 60 Inson qadri. [Matn]: To'plab, nashrga tayyorlovchilar: B. Yoqubov.  
E. Nishonov – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 200 b.  
ISBN 978-9943-8735-0-6

**UO‘K 821.316.728(575.1)**  
**KBK 84.60.56(5O‘)**